


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA‘LIMI VAZIRLIGI
HUZURIDAGI IXTISOSLASHTIRILGAN TA‘LIM
MUASSASALARI AGENTLIGI**

NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI



Tasdiqlayman
O‘quv-uslubiy
boshqarma boshlig‘i
U.Soliev

**TILLAR O‘QITISH METODIKASI
VA TA‘LIM TEXNOLOGIYALARI**

**FANIDAN
O‘QUV-USLUBIY**

MAJMU A

III - BOSQICH TALABALARI UCHUN

Bilim sohasi: 200000 – San‘at va gumanitar fanlar

Ta‘lim sohasi: 230000 - Tillar

Ta‘lim darajasi: 60230100- Filologiya va tillarni o‘qitish (nemis tili)

Namangan-2025

Tillar o`qitish metodikasi va ta`lim texnologiyalari fanidan tuzilgan o`quv-metodik majmua O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirining 2018 yil 28 - avgustdagi 744 -sonli buyrug`i bilan tasdiqlangan namunaviy fan dasturi asosida tuzilgan.

Tuzuvchi: M.M.Yakubbayev

Fanning o`quv-metodik majmuasi Nemis va fransuz tillari kafedrasining 2025-yil __ - avgustdagi 1-sonli yig'ilishida muhokamadan o`tgan va fakultet Kengashida ko`rib chiqish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: A.Tursunov

O`quv-metodik majmua Filologiya fakultetining 2025-yil __ - avgustdagi 1-sonli Kengashida ko`rib chiqilgan va foydalanishga tavsiya etilgan.

Fakultet Kengashi raisi: E.Isomiddinov

Fan/modul kodi TO`MET10112		O`quv yili 2025/2026	Semestr 5-6	ECTS-Kreditlar 8
Fan/modul turi Majburiy		Ta`lim tili O`zbek		Haftadagi dars soati 4 soat
1	Fanning nomi	Auditoriya mash-g`ulotlari (soat)	Mustaqil ta`lim (soat)	Jami yuklama (soat)
		Tillar o`qitish metodikasi va ta`lim texnologiyalari	60/60	120

ANNOTATSIYA

I. O`UM quyidagi bo`limlardan tashkil topgan:

1. Titul varag`i.

2. Mundarija. O`UMning asosiy bo`limlari.

3. O`quv materiallar.

a) Birinchi o`rinda fan dasturiga muvofiq ma`ruzalar mavzulari yoritib berilgan.

Har bir mavzu bo`yicha:

- reja
- tayanch so`z va iboralar
- asosiy matn.

Ma`ruza o`quv materiallari bo`limi yakunida umumiy xorijiy va mahalliy adabiyotlar ro`yxati keltirilgan.

b) Ikkinchi o`rinda fan dasturiga muvofiq amaliy mashg`ulotlari mavzulari bo`yicha yoritib berilgan.

Amaliy mashg`ulotlarning har bir mavzu bo`yicha:

- asosiy matn;
- topshiriqlar variantlari;
- keyslar to`plami;
- xorijiy va mahalliy adabiyotlar ro`yxati;

4. **Mustaqil ta`lim mashg`ulotlari.** Fan bo`yicha mustaqil ta`lim mashg`ulotlar mavzulari va ularni o`zlashtirish bo`yicha zarur uslubiy ko`rsatmalar berilgan.

5. **Kurs ishlari va kurs loyihasi** rejalashtirilmagan.

6. Glossariy. Fanga oid termin va iboralarning qisqa talqini bo`yicha o`zbek, rus va ingliz tillarida berilgan.

7. **Ilovalar:**

- fan dasturi;
- ishchi fan dasturi;
- tarqatma materiallar;
- testlar;
- ishchi fan dasturiga muvofiq baholash mezonlarini qo`llash bo`yicha uslubiy ko`rsatmalar;
- O`UMning elektron varianti.

MUNDARIJA

So`z boshi.....	5
Maruzalar konspekti.....	7
CHet til o`qitish metodikasining tadqiqot metodlari.....	28
CHet til predmeti va uning uziga xos xususiyati.....	32
CHet til ta`limidan ko`zlagan maqsad.....	36
CHet til ta`limining mazmuni.....	40
Metodikaning asosiy tushunchalari.....	43
Ta`lim vositalari va axborot manbalari.....	49
CHet til ta'limi printsiplari.....	56
Fonetik material ustida ishlash.....	61
Gammatik material ustida ishlash.....	68
Leksik material ustida ishlash.....	77
Tinglab tushunishni o`rgatish.....	85
Gapirish va gaplashishni o`rgatish.....	96
CHet tilda o`qishni o`rgatish.....	106
Yozuv va fikrni yozma bayon qilishni o`rgatish.....	113
CHet tili darsi va uni rivojlantirish.....	120
O`quvchilar bilim, ko`nikma va malakalarini nazorat qilish va baholash.....	128
CHET TIL O`QITISH METODIKASI KURSI BO`YICHA	
SEMINAR MASHG`ULOTLAR.....	135
MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL ETISHNING SHAKLI VA	
MAZMUNI.....	142
GLOSSARIY.....	144

SO`Z BOSHI

Mazkur o`quv-uslubiy majmua Tillar o`qitish metodikasi va ta`lim texnologiyalari fanidan Filologiya va tillarni o`qitish ta`lim yo`nalishi uchun mo`ljallangan bo`lib, nemis va fransuz tillari kafedrasida professor-o`qituvchilari tomonidan ishlab chiqilgan. Tillar o`qitish metodikasi va ta`lim texnologiyalari fani o`quv uslubiy majmuasini yaratishda yetakchi xorijiy OTMlari o`quv dasturlariga asosiy adabiyotlar ro`yxatiga kiritilgan - Gerhard Neuner und Hans Hunfeld "Methoden des fremdsprachlichen Deutschunterrichts" Berlin, Muenchen. Langenscheidt 2012, - Karin Kleppin "Fehler und Fehlerkorrektur" Berlin Munchen. Langenscheidt 2012, Pool -Lifdu "Heute hier, Morgen dort. Lieder, Chansons und Rockmusik Deutschunterricht" Berlin Munchen. Langenscheidt, 2015 va boshqa adabiyotlardan foydalanildi.

Semestr davomida o`quv kursiining obekti, predmeti, tadqiqot metodlari, Til bilish deganda shu tilda muloqot qila olish nazarda tutiladi. Bu esa tildagi og`zaki nutqni tinglab tushunish va o`z fikrini og`zaki bayon qila olishni taqozo etadi. Bundan tashqari yozma matnni o`qish va fikrni yozma ravishda bayon qila olish ham til bilishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bu amallarning hammasi tillar haqidagi bilimlarni, yani ularning tovushlar tizimi, grammatikasi, so`z boyligi hamda ular amal qiladigan qonuniyatlarni egallab olishni taqozo qiladi. Bundan tashqari talabalar jahon tillari, ularning o`rni, strukturasi, qonuniyatlari va boshqa masalalar haqida fikr bildira olishlari, muhokama qilish va bahslasha olish ko`nikmalari va malakalarini egallashlari ham talab etiladi.

Tillar va ularni o`rganish haqidagi nazriy masalalrni va ularning amaliyotdagi tadbiqini Tillar o`qitish metodikasi va ta`lim texnologiyalari fani o`rganadi va shu fan orqali o`rgatiladi.

I. O`UM quyidagi bo`limlardan tashkil topgan:

1. Titul varaqi
2. Mundarija.
3. O`quv materiallar.

a) Birinchi o`rinda fan dasturiga muvofiq ma`ruzalar mavzulari yoritib berilgan.

qar bir mavzu bo`yicha:

- reja
- tayanch so`z va iboralar
- asosiy matn

b) Ikkinchi o`rinda fan dasturiga muvofik amaliy mashqulotlar mavzulari bo`yicha yoritib berilgan.

Amaliy mashqulotlarning qar bir mavzu bo`yicha:

- asosiy matn;
- topshiriklar variantlari;
- nashqlar;
- keyslar to`plami;
- xorijiy va maxalliy adabiyotlar ro`yxati;

4. Mustaqil ta`lim mashqulotlari. Fan bo`yicha mustaqil ta`lim mashqulotlar mavzulari va ularni o`zlashtirish bo`yicha zarur uslubiy ko`rsatmalar berilgan.

Mustaqil vazifalarini bajarishga qaratilgan boshqa ma`lumotlar keltiriladi.

5. Kurs ishlari va kurs loyiqasi ko`zda tutilmagan.

6. Glossariy. Fanga oid termin va iboralarning qisqa talqini bo`yicha o`zbek, rus va ingliz tillarida berilgan.

7. Ilovalar:

- fan dasturi;
- ishchi fan dasturi;
- tarqatma materiallar;
- testlar;
- ishchi fan dasturiga muvofiq baqolash mezonlarini qo`llash bo`yicha

uslubiy ko`rsatmalar.

NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI

NEMIS VA FRANSUZ TILLARI KAFEDRASI

**TILLAR O'QITISH METODIKASI VA
TA'LIM TEXNOLOGIYALARI**

FANI BOYICHA

MA'RUZALAR KONSPEKTI

Namangan

MA'RUZALAR MAZMUNI

Asosiy o'rganilayotgan til o'qitish metodikasi va zamonaviy texnologiyalarining predmeti. Asosiy o'rganilayotgan til o'qitish metodikasi va zamonaviy texnologiyalar kursining vazifasi bo'lajak o'qituvchilarni o'qituvchilikka tayyorlashdir. Asosiy o'rganilayotgan til o'qitish metodikasi va zamonaviy texnologiyalar chet tili o'qitish haqidagi fandır. Asosiy o'rganilayotgan til o'qitish metodikasi va zamonaviy texnologiyalar o'qitish metodikasi pedagogika fanlari tizimiga taalluqli ekanligi. Asosiy o'rganilayotgan til o'qitish metodikasi va zamonaviy texnologiyalarini o'qitishda qo'llanadigan ilmiy tadqiqot metodlari: respublikamiz va chet el mamlakatlari tajribasini o'rganish, turli tipdagi o'quv yurtlarida til o'qitishda ishlatiladigan Asosiy o'rganilayotgan til o'qitish metodikasi va zamonaviy texnologiyalarini o'rganish tajribalarini o'rgatish, kuzatish.

Asosiy metodik tushunchalar: yondashish, metod, tamoyil (printsip), usul, vosita, o'qitish tizimi. Metod, usul, metodik usul va vositalarning ta'lim maqsad va bosqichlariga bog'liqligi. Mashq chet tili o'rgatishning asosiy komponentidir.

O'quv jarayonida nutq faoliyati turlarining nisbati.

TILLAR O'QITISH METODIKASI VA TA'LIM TEXNOLOGIYALARI FANINING ASOSIY VA YAQIN FANLAR BILAN ALOQASI VA ULARGA BOG'LIQLIGI

Asosiy o'rganilayotgan til o'qitish metodikasi va zamonaviy texnologiyalarining tilshunoslik asoslari. Til va nutq. Ularning farqi. CHet tili o'qitishni zamonaviy texnologiyalarining o'rni. Modellashtirishning ahamiyati.

“Model”, “namuna gap” va “nutq namunasi” tushunchalari. Nutq namunasi

— og'zaki nutqni o'rgatishning asosiy birligi. Asosiy o'rganilayotgan til o'qitish metodikasi va zamonaviy texnologiyalarining psixologik asoslari.

Nutqning psixologik tavsifi: og'zaki va yozma nutq, tashqi va ichki nutq, reproduktiv va retseptiv nutq. Chet tili zamonaviy texnologiyalarining o'qitishda tafakkur, xotira, idrok, qiziqish, “bilim”, “ko'nikma” va “malaka” tushunchalari. Ularni shakllantirish va rivojlantirish yo'llari. Asosiy o'rganilayotgan til o'qitish metodikasi va zamonaviy texnologiyalarining psixolingvistik asoslari.

Nutq, nutq mexanizmlari, nutqning paydo bo'lish bosqichlariga oid gipotetik nazariyalar, axborotni qabul qilish bosqichlari tarbiya tamoyil-lari, tarbiyaviy maqsadni amalga oshirish usullari.

Asosiy o'rganilayotgan til o'qitish metodikasi va zamonaviy texnologiyalarining pedagogik asoslari. “CHet tili zamonaviy texnologiyalari” fanining o'quv yurtida o'qitiladigan predmetlar orasida egallagan o'rni.

Asosiy o'rganilayotgan til o'qitish metodikasi va zamonaviy texnologiyalarini o'qitishda didaktik tamoyillarning tatbig'i.

TILLAR O'QITISH METODIKASI VA TA'LIM TEXNOLOGIYALARI FANINING MAQSADLARI, MAZMUNI, TAMOYIL VA METODLARI

Maqsadlari:

- Asosiy o'rganilayotgan til o'qitish metodikasi va zamonaviy texnologiyalarining amaliy, umum-ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlari. Maqsadlarning bir-birlari bilan o'zaro bog'liqligi. O'quvchi va talabalarga boshqalar fikrini tinglab tushunish, o'qib ma'lumot olish va fikrini og'zaki va yozma bayon etishni o'rgatish.

Kommunikativ maqsad: Asosiy o'rganilayotgan til o'qitish metodikasi va zamonaviy texnologiyalarining ma'lumotni o'zgaga berish va uni o'zgalardan qabul qilish. Tildan ta'lim berish, o'quvchi yoki talabalar tafakkurini yanada o'stirish, ona tilini yaxshiroq anglab olish, chet zamonaviy texnologiyalarning xususiyati haqida yangi bilimlarni egallash;

Umumta'limiy maqsad: Asosiy o'rganilayotgan til o'qitish metodikasi va zamonaviy texnologiyalarining tili o'rganilayotgan mamlakat tarixi, madaniyati, adabiyoti, an'analari va urf-odatlarini o'rganish asosida o'quvchi va talabalarning umumiy va lingvistik dunyoqarashini kengaytirish.

Tarbiyaviy maqsad: Asosiy o'rganilayotgan til o'qitish metodikasi va zamonaviy texnologiyalari vositasida o'quvchi va talabalarni vatanparvarlik, mehnatsevarlik, do'stlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalash. Ularga axloqiy va estetik tarbiya berish metod va vazifalari.

Rivojlantiruvchi maqsad: Asosiy o'rganilayotgan til o'qitish metodikasi va zamonaviy texnologiyalar o'quvchi va talabalarning har tomonlama barkamol shaxs bo'lib yetishishini, ularning dunyoqarashini, estetik didini, mustaqil fikrlashini, mehnat qilish madaniyatini, mustaqil bilim olishning ko'nikma va malakalarini shakllantirish usullari. Rivojlantiruvchi maqsadning o'quvchi, talaba shaxsining aqliy, hissiy va motivatsion (ichki turtki) xususiyatlarini, ularni rivojlantirish usullari.

Asosiy o'rganilayotgan til o'qitish metodikasi va zamonaviy texnologiyalari mazmuni. "O'qitish mazmuni" tushunchasi. Asosiy o'rganilayotgan til o'qitish metodikasi va zamonaviy texnologiyalari mazmuni haqida turli fikrlar. CHet tili o'qitish mazmunining tarkibiy qismi.

Ta'lim tamoyillari. "Ta'lim tamoyili tushunchasi". Pedagogik, psixologik, metodik tamoyillar. CHet tili o'qitishning zamonaviy texnologiyalari o'qitish metodikasida pedagogik, psixologik tamoyillarning tatbig'i. Metodik tamoyillar: umumiy, xususiy va maxsus tamoyillar.

Ta'lim metodi tushunchasi. Ta'lim metodi tanlashning quyidagi omillarga bog'liqligi:

- ta'lim maqsadlari va mavzuni o'quvchi va talabalarga chet tili o'qitishning zamonaviy texnologiyalarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rgatish.

TILLAR O'QITISH METODIKASI VA TA'LIM TEXNOLOGIYALARI USTIDA ISHLASH MASHQLAR TIZIMI, INGLIZ TILI O'QITISH VOSITALARI

Asosiy o'rganilayotgan til o'qitish metodikasi va zamonaviy texnologiyalar ustida ishlash mashqlar tizimi. Til yoki tayyorlov mashqlarida til materiallari ya'ni talaffuz, leksik va grammatik materiallar ustida ishlash ko'zda tutiladi, ya'ni oldin til materiallarini o'zlashtirishga ularning qiyinchiliklari ustida ishlashni taqozo etadi. Nutq mashqlari esa faqat nutq faoliyat turlari, ya'ni tinglab tushunish, gapirish o'qish yozishga o'rgatishga, o'stirishga qaratilgan bo'lim nutqning mazmunini o'zlashtirishga yo'naltirilgan mashqlarga aytamiz. Ba'zi metodistlar mashqlar nomini o'zgacharoq atashadi. 1) kommunikativ bo'lmagan mashqlar. 2) shartli kommunikativ mashqlar. 3) xaqiqiy kommunikativ mashqlar.

Asosiy o'rganilayotgan til o'qitish metodikasi va zamonaviy texnologiyalarni o'qitish vositalari. "Asosiy o'rganilayotgan til o'qitish metodikasi va zamonaviy texnologiyalar o'qitish vositalari" haqida tushuncha va ularning ta'limdagi o'rni, ahamiyati. O'qituvchi va talaba uchun asosiy vositalar: darslik til muhiti. O'qituvchi uchun vositalar: o'qitish dasturi va o'qituvchi kitobi.

Yordamchi vositalar: Texnikaviy yordamchi vositalar – fonogramma, videogramma, videofonogramma. Texnikaviy bo'lmagan vositalar – rasm, predmet, jadval, tarqatma material, xarita va boshqalar. Til ko'rgazmasi. CHet tili o'qitishning zamonaviy texnologiyalarda "O'quv-metodik to'plam" tushunchasi. O'quv yurtlaridagi joriy o'quv-metodik to'plam. *Multimedia dasturi.* "Multimedia" termini tushunchasi. Vosita turlari va ularni qo'llash, foydalanish.

ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA CHET TILI O'QITISH VA ULARNING VOSITALARI

Pedagogik texnologiya turlari:

- faoliyat ko'rsatishga asoslangan pedagogik texnologiya;
- muayyan o'quv-tarbiya maqsadlarini bajarishga sabab bo'luvchi omillarni yaratishga asoslangan pedagogik texnologiya;
- boshqarishga asoslangan pedagogik texnologiya.

Metod va interaktiv metodlar:

1. Zamonaviy metodlar.
2. Yangi pedagogik texnologiyalar.
3. Interaktiv metodlar.
4. Yangi zamonaviy metodlar, texnologiyalar.

Multimedia dasturi.

1. CHet tili o'qitishning zamonaviy metodlari:

- Suggestopedia – Sugestopedia metodi;
- The total physical method – To'liq javob berish orqali til o'rgatish metodi;
- Community language learning method – Guruh jamoada til o'rgatish metodi;
- The silent way method – Sokin yo'l orqali til o'rgatish metodi;

- Masofadan o'qitish – Distantion o'qitish (ta'lim).
- 2. Yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalar:
 - “Texnologiya” termini tushunchasi. Zamonaviy ilg'or pedagogik texnologiyalar;
 - Ilg'or texnologiyalarni o'z ichiga olgan ma'ruza;
 - Loyiha metodi; Brain storming, Project method, Case method.

INTERAKTIV METODLAR ASOSIDA CHET TILI O'QITISH VA ULARNING VOSITALARI

Interaktiv metodlar. “Interaktiv” termini tushunchasi. Interaktiv metodlar turlari: ilg'or texnologiyalarni o'z ichiga olgan ma'ruza; loyiha metodi; boshqotirma, klaster metodi, rolli o'yinlar, muammoni yechish metodi va boshqalar.

Yangi zamonaviy metodlar, texnologiyalar vositalari.

Interaktiv metodlar

“Interaktiv” termini tushunchasi. Interaktiv metodlar turlari:

Boshqotirma, Klaster metodi, Rolli o'yinlar, Muammoni yechish metodi va boshqalar.

CHETI TILI TALAFFUZNI O'RGATISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI, INNOVATSION METODLARNI QO'LLASH

Talaffuzni o'rgatish – chet tili o'rgatishda talaffuzni o'rni, ahamiyati, dastur talablari. Talaffuzni o'rgatishni metodik tashkil etish. Fonetik materialni tanlash tamoyillari, xajmi. Talaffuz malakalarini hosil qilish, nutqning fonetik tomonini o'rgatishni maqsadlari. Og'zaki va yozma nutqni o'rgatishda fonetikaning ahamiyati ta'siri, interferentsiya. Fonetik materialni o'rgatish metodlari usullari, vositalar, mashqlar tizimi, fonetik mashg'ulot. Talaffuz xatolari ularni oldini olish va to'g'rilash. Talaffuzni o'rgatishda texnik vositalardan foydalanish

SHaxsni faollashtirish.

Ta'limni modernizatsiyalashtirish ta'lim jarayonida bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish bilangina hal bo'lib qolmaydi. O'quvchi shaxsining mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlikni his etish, tanqidiy fikrlash kabi sifatlar bilan bog'liq funktsiyalari ta'limning shaxsga yo'naltirilgan tizimi vositasida amalga oshiriladi.

Roli o'yin metodi – ta'lim oluvchilar tomonidan hayotiy vazitning har xil shart-sharoitlarini Sahnalashtirish orqali ko'rsatib beruvchi metoddir. Rolli o'yinlarning ishbop o'yinlardan farqli tomoni baholashning olib borilmasligidadir.

CHET TILI GRAMMATIKASINI O'RGATISHDA INTERAKTIV METODLARNI QO'LLASH. KLASTER METODI ROLI O'YIN METODI

Og'zaki nutq va yozuvni o'rgatishda grammatikaning o'rni, ahamiyati, dastur talabi. CHet tili grammatikasini ona tili grammatikasi bilan qiyosiy tavsiflash. CHet tili grammatikasini o'rgatishda til tajribasini hisobga olish. Grammatik materialni o'rgatishni metodik tashkil qilish va uni tanlashning asosiy tamoyillari.

Grammatik qoida va uning turlari. Grammatikaning o'rgatish usullariga ko'ra turlari. Grammatik material ustida ishlash (kiritish, tushuntirish, o'zlashtirish, mustahkamlash). Grammatik materialning shakli, ma'nosi va qo'llanilishini o'rgatish. Grammatik materialning metodik tipologiyasi. Grammatik materialni o'rgatish (induktiv, deduktiv, leksik yo'l) metodlari. Grammatik materialni o'rgatishda qo'llaniladigan mashqlar. Og'zaki nutq va o'qishning grammatik tomoni ustida ishlash.

Klaster metodi – pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo'lib, u o'quvchilarga ixtiyoriy muammolar xususiyada erkin, ochiq o'ylash va shaxsiy fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi.

Roli o'yin metodi – ta'lim oluvchilar tomonidan hayotiy vazitning har xil shart-sharoitlarini Sahnalashtirish orqali ko'rsatib beruvchi metoddir. Rolli o'yinlarning ishbop o'yinlardan farqli tomoni baholashning olib borilmasligidadir.

CHET TILI LEKSIKASINI O'RGATISHDA INTERAKTIV METODLARNI QO'LLASH. SHAXSNI FAOLLASHTIRISH KLASTER METODI

Og'zaki nutq, o'qish va yozuvni o'rgatishda leksikaning o'rni va ahamiyati. CHet tili leksikasining ona tili leksikasi bilan qiyosiy tavsiflash. CHet tili leksikasini o'rgatishda o'quvchi talabalarning til tajribalarni va interferentsiyani hisobga olish.

Leksikani o'rgatishga qo'yiladigan dasturiy talablar (o'rta umum-ta'lim maktabi, akademik litsey, kollejlari). Leksik materialni o'rgatishni metodik tashkil qilish, uni tanlash tamoyillari. Leksika ustida ishlash (tushuntirish, kiritish, o'zlashtirish, mustahkamlash). Leksikaning shakli, ma'nosi va qo'llanilishi ustida ishlash. Leksikaning metodik tipologiyasi. Og'zaki nutq va o'qishning leksik tomoni ustida ishlash. Leksik mashqlarning klassifikatsiyasi.

SHaxsni faollashtirish.

Ta'limni modernizatsiyalashtirish ta'lim jarayonida bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish bilangina hal bo'lib qolmaydi. O'quvchi shaxsining mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlikni his etish, tanqidiy fikrlash kabi sifatlar bilan bog'liq funksiyalari ta'limning shaxsga yo'naltirilgan tizimi vositasida amalga oshiriladi.

Klaster metodi – pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo'lib, u o'quvchilarga ixtiyoriy muammolar xususiyada erkin, ochiq o'ylash va shaxsiy fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi.

CHET TILIDA TINGLAB TUSHUNISHNI O'RGATISHDA INTERAKTIV METODLARNI QO'LLASH. BAHS-MUNOZARA METODI. VIDEOTOPISHMOQ METODI. AQLIY XUJUM METODI. RASMLARNI TO'G'RI JOYLASHTIRISH

Tinglab tushunish nutq faoliyatining turidir va dastur talablari. Tinglab tushunishning nutq faoliyatining boshqa turlari bilan bog'liqligi. Tinglab tushunish mexanizmlari, uning qiyinchiliklari, ularning oldini olish va bartaraf etish yo'llari. Turli tuzilishga ega bo'lgan monolog, dialog, poliloglarni bevosita tinglab tushunish xususiyatlari. O'rta umum-ta'lim maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejlarda tinglab tushunishning xususiyatlari va uning tinglanayotgan nutqning tezligiga bog'liqligi. Tinglab tushunishni tashkil qilish va o'tkazish metodikasi, uni o'tkazish bosqichlari. Tinglab tushunishni o'rgatishda tayyorlov, nutq mashqlari. Tinglab tushunishni o'rgatishda texnik vositalardan foydalanish. Tinglab tushunish malakalarini nazorat qilish yo'llari.

Bahs-munozara metodi- biror mavzu bo'yicha ta'lim oluvchilar bilan o'zaro bahs tarzida o'tkaziladigan o'qitish metodidir.

Videotopishmoq metodi – mavzuni muayyan qismlarga bo'lgan holda o'zlashtirish imkonini beradi hamda o'quvchilarga guruh va juftlikda ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

Aqliy xujum metodi – biror muammo bo'yicha ta'lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va muloazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir yechimga kelinadigan metoddir. «Aqliy xujum» metodining og'zaki va yozma shakllari mavjud. Og'zaki shaklida a'lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta'lim oluvchilarning har biri o'z fikrini og'zaki bildiradi. Yozma shaklida esa berilgan savolga ta'lim oluvchilar o'z javoblarini qog'oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko'rinarli tarzda yozadilar.

Rasmlarni to'g'ri joylashtirish-kichik guruhlarda ishlashga mo'ljallangan. Metoddan foydalanishni afzalligi shundaki, bu jarayonda o'quvchilarda mavzuni muayyan qismlarga bo'lib o'rganish va qismlar o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlik hamda aloqadorlikni analiz va sintez asosida aniqlash ko'nikmalarini hosil qiladi.

GAPIRISHNI O'RGATISHDA INTERAKTIV METODLARNI QO'LLASH. DAVRA SUHBATI METODI. INSERT STRATEGIYASI. BILISHNI XOXLAYMAN METODI BAHS-MUNOZARA METODI. ROLLI O'YIN METODI

Gapirishni o'rgatish, nutq faoliyatining og'zaki reproduktiv turi sifatida. Gapirish mexanizmi va qiyinchiliklari, uning nutq faoliyatining boshqa turlari bilan bog'liqligi. Ichki va tashqi nutq. Gapirish shakllari: monolog, dialog va polilog. CHet tilida gapirish ko'nikmalarini shakllantirish va o'stirishda ularning

tutgan o'zni. Gapirishni o'rgatishda nutq vaziyatining ahamiyati. Monolog va dialog o'rgatishning xususiyatlari, dastur talablari. Dialog birikmalari: nutq luqmalari, savol-javob, xabar-xabar, savol-savol va boshqalar. Gapirishni o'rgatishda mashqlar tizimi til va nutq mashqlari. Gapirishni ko'nikmalarini tekshirish yo'llari.

Davra suhbatlari metodi – ayni stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta'lim oluvchilar tomonidan o'z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o'qitish metodidir.

Roli o'yinlari metodi – ta'lim oluvchilar tomonidan hayotiy vazitning har xil shart-sharoitlarini Sahnalashtirish orqali ko'rsatib beruvchi metoddir. Rolli o'yinlarning ishbop o'yinlardan farqli tomoni baholashning olib borilmasligidadir.

Bilishni xohlayman-ushbu metod o'quvchilarga muayyan mavzular bo'yicha bilimlari darajasini baholay olish imkonini beradi. Metodni qo'llash jarayonida o'quvchilar bilan guruhli yoki ommaviy ishlash mumkin. Guruh shaklida ishlashda mashg'ulot yakunida har bir guruh tomonidan bajarilgan faoliyat tahlil qilinadi.

Insert strategiyasi-strategiya o'zlashtirishi ko'zda tutilgan Yangi mavzu bo'yicha o'quvchilarning muayyan tushunchalarga egaliklarini aniqlash va ularda matnga nisbatan taxliliy yondoshish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Bahs-munozara metodi- biror mavzu bo'yicha ta'lim oluvchilar bilan o'zaro bahs tarzida o'tkaziladigan o'qitish metodidir.

O'QISHNI O'RGATISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH. MUAMMOLI VAZIYAT METODI. BAHS MUNOZARA METODI. AQLIY XUJUM METODI

O'qish nutq faoliyatining yozma, retseptiv turi sifatida, dastur talablari. O'qishning turli bosqichlarida nutq faoliyatining boshqa turlari bilan bog'liqligi. O'qishda ichki va tashqi nutq. O'qish jarayoni mexanizmi, uning qiyinchiliklari. O'qish texnikasi va o'qiganni tushuntirishni o'rgatish. Mashqlar tizimi. O'qish turlari, shakllari. O'qishni o'rgatishda tarjimani o'zni va roli. Matnlar ustida ishlash bosqichlari. O'qish ustida ishlashda lug'at, texnik vositalar va internetdan foydalanish.

Muammoli vaziyat metodi - ta'lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning yechimini topish bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan metoddir.

Bahs-munozara metodi- biror mavzu bo'yicha ta'lim oluvchilar bilan o'zaro bahs tarzida o'tkaziladigan o'qitish metodidir.

Aqliy xujum metodi – biror muammo bo'yicha ta'lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va muloazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir yechimga kelinadigan metoddir. «Aqliy xujum» metodining og'zagi va yozma shakllari mavjud. Og'zaki shaklida a'lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta'lim oluvchilarning har biri o'z fikrini og'zaki bildiradi. Yozma shaklida esa berilgan savolga ta'lim oluvchilar o'z javoblarini qog'oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko'rinarli tarzda yozadilar.

YOZUVNI O'RGATISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH. LOYIXALASHTIRISH METODI. ISHBOP O'YIN METODI

Yozuv nutq faoliyatining produktiv turidir. Uning nutq faoliyatining boshqa turlari bilan bog'liqligi, dastur talablari. Yozuv qiyinchiliklari, yozuvni o'rgatish mazmuni, yozuv texnikasini o'rgatish: grafika, orfografiya, kalligrafiya va fikrni yozma bayon etishni o'rgatish. Yozuvni o'rgatish mashqlari va yozma ish turlari. Yozma ishlarni tekshirish va xatolar ustida ishlash.

Loyiha metodi - bu ta'lim oluvchilarning individual yoki guruhlarda belgilangan vaqt davomida, belgilangan mavzu bo'yicha axborot yig'ish, tadqiqot o'tkazish va amalga oshirish ishlarini olib borishdir.

Ishbop o'yin metodi- faoliyati biror bir tashkilot vakili sifatida ishtirok etayotgan ishtirokchining xulq-atvori va ijtimoiy vazifalarini imitatsiya qilish orqali beriladi. Bir tomondan o'yin nazorat qilinsa, ikkinchi tomondan oraliq natijalarga ko'ra ishtirokchilar o'z faoliyatlarini o'zgartirish imkoniyatiga ham ega bo'ladi.

CHET TILIDA BILIM, KO'NIKMA VA MALAKA LARNI TEKSHIRISH

Har bir fan o'qituvchisi o'quvchilarning bilim, malaka, ko'nikmalarini tekshirishi, nazorat qilishi, hisobga olishi zarur. Tekshirish natijasini qayd qilish, hisobga olish chet tili o'qitishning ajralmas qismidir. Doimiy tekshirish, nazorat qilish ta'lim berishda ahamiyati shuki, u bilimlarni esdan chiqarishni, malakako'nikmalarni susayishini ogohlantiradi, o'quvchilarni, talabalarni, ularning o'quv ishini boshqaradi, ularning bilim darajasini aniqlab ko'rsatadi, ularning kamchiligini aniqlabgina qolmay, o'qituvchilarning ham kamchiliklarini topadi, belgilaydi.

CHET TIL O'QITISH JARAYONINI TASHKIL ETISH. MAJBURIY KURSNI AMALGA OSHIRISH

CHet tilidan sinf, maktab va auditoriyadan tashqari ishlar. Ularning maqsadi, vazifalari va tashkil qilish turlari: ommaviy, to'garak, yakka holda mashg'ulotlar. Majburiy kursni amalga oshirish bosqichlari. O'rta umumta'lim maktablarida majburiy kursning birinchi va ikkinchi bosqichlari. Akademik litseyda va kasbhunar kollejlarda majburiy kursni amalga oshirishning 3 ta bosqichi. O'quv yurtlarida o'quv jarayonini rejalashtirish va reja turlari: taqvim-mavzuiy va kundalik rejalar. CHet tili darsi, uning xususiyatlari, maqsad va vazifasi, tuzilishi. Darsga qo'yiladigan zamonaviy talablar: amaliy (kommunikativlik) ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarning dars jarayonida birga amalga oshirilishi. Mavzuiy-taqvim, kundalik dars rejalarini tuzish. Dars tiplari va turlari.

CHET TIL O'QITISH JARAYONINI TASHKIL ETISH. MAJBURIY BO'LMAGAN KURSNI AMALGA OSHIRISH

Fakultativ, mustaqil ishlar. Fakultativ mashg'ulotlarning maqsadi va vazifalari. Mustaqil ishlar, ularning maqsad, vazifalari va turlari: matn ustida ishlash, tarjima qilish, test yechish, olimpiada o'quvchi va talabalarda ilmiy metodik adabiyotlar bilan mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish yo'llari.

Majburiy kurs o'quv predmetining dastur talablari o'rtacha qobiliyatga ega o'quvchilarga mo'ljallanadi. Muayyan o'quv predmetiga zo'r ishtiyoqi bo'lgan o'quvchilar ixtiyoriy kursga jalb etiladi.

“Fakultativ” so'zi lotincha facultas (facultatis)dan olingan bo'lib, «yo'l qo'yiladigan», «iloji bor», «majburiy emas», “tanlanadigan” kabi ma'nolarni bildiradi. Maktabda “majburiy” o'quv predmet bo'yicha birlamchi dastur ishlaydi, asosiy kurs amal qiladi, undan tashqari xoxlovchilar uchun, barchaga majburiy bo'lmagan, qiziqishiga qarab tanlanadigan mashg'ulotlar tavsiya etiladi.

CHET TILI O'QITISH JARAYONINI YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA REJALASHTIRISH

Kalendar, ya'ni yillik reja odatda darslik mualliflari tomonidan tuziladi. Uni tuzishda dastur talablari, o'quv-metodik majmua mazmuni va tuzilishi, o'quvchilar yosh xususiyatlari va zamonaviy darslik nazariyasi hisobga olinadi. Yillik reja yarim yillik, chorak rejalaridan tashkil topadi. Uning tarkibiga mavzu rejalar ham kiradi. Har bir mavzuga ajratiladigan dars soatlari aniqlanadi, ko'nikma va malakalarni tahminiy darajasi ko'rsatiladi, o'tkaziladigan dars muddati belgilanadi. Yillik rejada yuz beradigan o'zgarishlar yarim yillik – chorak rejalarda o'z aksini topadi. Yarim yillik rejalarini shahar yoki tuman o'qituvchilari birlashmasi tuzadi. Kalendar tematik rejada har bir mavzuning til materiali nutq faoliyati turlari va dars tizimi mashg'ulotlariga bo'linadi.

CHET TILI O'QITISH JARAYONINI YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA REJALASHTIRISH

1. CHet tili o'rgatishning unumdor va maqsadga muvofiq bo'lishi o'quv jarayonini to'g'ri rejalashtirishga bog'liqdir.
2. Rejalashtirish tizimini muddati, mazmuni bo'yicha turlarga bo'lish mumkin. Muddati bo'yicha rejalar 4 ga bo'linadi.
 1. bir o'quv yili yoki to'rt choraklik;
 2. yarim o'quv yili uchun yoki 2 choraklik;
 3. bir choraklik;
 4. bir soatlik;Mazmuni bo'yicha esa ikki turga bo'linadi:
 1. kalendar tematik reja
 2. bir soatlik yoki kundalik reja

Darsning maqsadi qismida qaysi nutq faoliyati turi shu darsda rivojlantirilishi yoziladi va qanday til materiallari o'tilishi beriladi. Tarbiyaviy, ta'limiy va amaliy maqsadlar har bir darsda namoyon bo'ladi, ularni rejada ko'rsatmasa ham bo'ladi.

Darsning borishi 3 qismdan iborat bo'ladi. Boshlanish qismida salomlashib, chet til atmosferasi yaratiladi. Bunda o'quvchilarga o'quv o'yinlari taqdim etilib, olib boriladi.

Uy vazifasi tekshirilishi mumkin. Albatta, o'quv o'yini shu darsning maqsadi bilan bog'liq bo'lishi kerak. Asosiy qismda yangi mavzu o'tiladi: so'zlarni semantizatsiya qilish va nutqda qo'llashni o'rgatiladi yoki grammatik material kiritilib, buning uchun darslikdagi mashqlarni bajarish ko'rsatiladi. Yakuniy qismda o'quvchilar baholanadi va uy vazifasi berilib xayrlashadi. Dars rejasidagi har bir bajariladigan mashq va undagi ish turiga vaqt belgilanadi.

CHET TILI DARSINI ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O'TKAZISH

So'nggi vaqtlarda o'qitish metodikalariga «loyiha» termini kirib keldi. Ushbu metodikadan hozirda keng foydalanilmoqda, chunki ulardan foydalanilganda o'quvchilarni o'quv jarayonida turli xil manbalar bilan mustaqil ishlashga jalb etadilar, bu bir muammoni hal etish paytida turli soha bilimlaridan foydalanishga imkon beradi, olgan bilimlarini amaliyotda qo'llashimkonini yaratadi. Ingliz tili o'qituvchilari uchun «Mening Vatanim» mavzusi ustida ishlashda mazkur metoddan foydalanib, elektron dars loyihasini tayyorlash mumkin.

SEMINAR MASHG'ULOTLARI MAZMUNI

Seminar mashg'ulotlar katta o'qituvchilar tomonidan tuzilgan va kafedrada tasdiqlangan savollar, topshiriqlar asosida o'tkaziladi. Amaliy seminar mashg'ulotlari o'tkazishning maqsadi ma'ruzalarda o'tilgan, o'qilgan mavzularni chuqurlashtirish, muhokama qilish, metodik ko'nikma va mala-kalarni shakllantirish, rivojlantirishdan iboratdir. Amaliy seminar mashg'ulotlarning savoltopshiriqlari ikki qismdan iborat bo'ladi:

1) nazariy qism; 2) amaliy qism.

Nazariy qismda seminar mashg'ulot mavzusi chuqurlashtiriladi, kengaytiriladi.

Amaliy qismda esa ma'lum darslik asosida talabalarni til materiallari, nutq faoliyatining turlari bo'yicha ko'nikma va malakalar shakllantirish o'rgatiladi. Ular asosida dars fragmentlari, darslar tashkil qilinadi. Seminar mashg'ulotlarga tayyorlanish uchun savollar, topshiriqlar, metodik adabiyotlar, darsliklar ilova ilinadi. Seminar mashg'ulotlari taqsimotda ko'rsatilgan mavzular va soatlar asosida o'tkaziladi.

MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL ETISHNING SHAKLI VA MAZMUNI

Asosiy o'rganilayotgan til o'qitish metodikasi va zamonaviy texnologiyalardan mustaqil ishlar talabalarning mustaqil ishlashlarini shakllantiradi, rivojlantiradi. Talabalar mustaqil ishlar orqali metodik adabiyot bilan ishlash, konspekt qilish, mavzularni ma'ruza qilish, ishlanma, referat yozish, rejalar tuzish malakalariga ega bo'ladi. Mustaqil ishlar seminar mashg'ulotlaridan keyin bajariladi, ma'ruza qilinadi, referat topshiriladi. Metodik papka uchun tegishli materiallar to'planadi.

1. Yangi pedagogik texnologiyalar bo'yicha material yig'ish.
2. Interaktiv metodlar bo'yicha material yig'ish.
3. Metodik papka tayyorlash (Ko'rgazmali qurollar tayyorlash)

Ma`ruza matnlari

KIRISH

CHet tillarni samarali o`rgatish o`qituvchidan uning metodikasini bilishni taqazo etadi. CHet til o`qitish metodikasi kursi oliy o`quv yurtlari xorijiy filologiya fakul'tetlarida mutaxassislik berishni ta'minlovchi fanlardan biri bo`lib, yuqori malakali chet til o`qituvchilari tayyorlashni o`z oldiga maqsad qilib qo`yadi.

CHet til o`qitish metodikasi kursi uch qismdan iborat:

1. CHet til o`qitish metodikasining nazariy asoslari.
2. Til materiali hamda nutq faoliyatining turlari – chet tildagi nutqni tinglab tushunish, gapirish, o`qish va fikrni yozma ravishda bayon qilishni o`rgatish.
3. CHet til o`qitish jarayonini tashkil qilish.

Ushbu qo`llanmada quyidagi mavzular yoritilgan:

1. CHet til o`qitish metodikasi fandi.
2. CHet til o`qitish metodikasining boshqa fanlar bilan aloqasi.
3. CHet til o`qitish metodikasining tadqiqot metodlari.
4. CHet til predmedi va uning o`ziga xos xususiyati.
5. CHet til ta`limidan ko`zlangan maqsad.
6. CHet til ta`limining mazmuni.
7. Metodikaning asosiy tushunchalari.
8. Ta`lim vositalari va axborot manbalari.
9. CHet til ta`limi printsiplari.
10. Fonetik material ustida ishlash.
11. Grammatik material ustida ishlash.
12. Leksik material ustida ishlash.
13. Tinglab tushunishni o`rgatish.
14. Gapirish, gaplashish va muloqotni o`rgatish.
15. O`qishni o`rgatish.
16. YOzuv va fikrni yozma ravishda bayon qilishni o`rgatish.
17. CHet til darsi va uni rejalashtirish.
18. O`quvchilar bilim, ko`nikma va malakalarini nazorat qilish va baholash.

Qo`llanma chet ellarda va respublikamizda nashr etilgan lingvistika, psixologiya, psixolingvistika va metodikaga oid adabiyotlarni chuqur o`rganish hamda muallifning Moskva Davlat lingvistik Universitetidagi aspirantura paytida professor Z.M.TSvetkova, I.V.Raxmanov, S.K.Folomkina, Z.I.Klichnikova, N.I.Jinkin, I.A.Zimnyaya, dotsentlar N.I.Gez, I.P.Pavlova, I.A.Juchkova, Germaniyaning metodist, lingvist va psixologlarining ma`ruzalarini tinglash, o`z va hamkasabalarining pedagogik tajribasiga tayangan xolda tayyorlandi.

O`zbyokiston Respublikasi Oliy Majlisining IX va XIV sessiyalaridagi nutqlarida prezident I.Karimov uzluksiz ta`lim tizimining yangi darsliklar va o`quv adabiyotlar bilan ta`minlash masalasini qo`ydi. Ushbu masalaga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 5-yanvar 4-son «Uzluksiz ta`lim tizimini darsliklar va o`quv adabiyotlar bilan ta`minlashni takomillashtirish to`g`risida»gi

qarorini ijrosi bo'yicha qabul qilingan vazirlik xay'atining 17.06.98 yil 6/4 son, 29. 10. 96 10/4 sonli va 28. 09. 99, 288-sonli buyruqlariga muvofiq Oliy va o'rta maxsus, kasb xunar ta'limi muassasalarida yangi o'quv adabiyotlari yaratish va kutubxonalar faoliyatini takomillashtirish borasida ma'lum tadbirlar amalga oshirildi.

Ushbu qo'llanma yuqoridagi buyruq va qarorlarning ijrosi sifatida bunyodga keldi.

CHET TIL O'QITISH METODIKASI FANDIR

CHet til o'qitish metodikasi fan sifatida 200 yildan ortik tarixga ega. Bu davr ichida chet til o'qitish metodikasiga turlicha munosabatni kuzatish mumkin. Bunday karashlardan biri akademik L.V.SHcherbaga mansubdir. uning fikricha, har kanday fanni o'qitish metodikasi fan bo'lishiga karamasdan, nazariy fan hisoblanmaydi. U amaliy masalalarini xal qiladi. Jumladan, chet til o'qitish metodikasi ham fakat psixologiya dalillariga tayanmaydi, balki umumiy va xususiy tilshunoslik tadkikotlariga asoslanadi. SHuning uchun ham chet til o'qitish metodikasi ta'lim nazariyasidan ajralib chikib, amaliy tilshunoslikka, ya'ni umumiy tilshunoslikning texnik ilovasiga aylanadi. Agar tilshunoslik til xodisalarining kelib chikish va harakatlanish konuniyatlari bilan shugullansa, metodika bu konuniyatlarga asoslanib, zarur til xodisasidan amalda foydalanish uchun nima qilish kerak degan savolga javob beradi. Metodikaga oid kitoblarning eng kimmatlilari tilshunoslar tomonidan yozilganligi ham akademik SHcherbaning metodika amaliy tilshunoslikdir degan fikrini kuvvatlashga dalil bula oladi. Bu kitob avtorlari tilshunoslik fanida favkulodda kishilar bulmay, balki lingvistika masalalarini xal qilishda Garbiy Evropada dong taratgan olimlardir.

Bular jumlasiga XIX asr fonetistlaridan biri va buyuk ingliz tilshunosi G.Suit, XIX asr oxiri va XX asr boshida Angliyada eng original fonetist va nazariyotchisi tilshunos hisoblangan, O.Esperson, XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida eng kuzga kuringan frantsuz lingvistlaridan F.Bryuns va Brealya, kuzga kuringan anglist va tanikli fonetist V.Fietor va boshqalar kiradi¹. Rossiyada til o'qitish metodikasi masalasi bilan akademik L.V.SHcherba va uning ustozlari buyuk tilshunos olim I.A.Boduen-de-Kurtone va ularning shogirdlari shugullanadilar.

Fikrimizcha, yuqorida nomlari kursatilgan tilshunos olimlarning chet tillarni amaliy bilishlari chet til o'qitish metodikasi bilan shugullanishlariga olib keldi. U davrning psixolog va pedagoglari bevosita til o'rgatish masalalari bilan shugullanmadilar.

CHet til o'qitish metodikasiga psixologlar uzgacha munosabatda buldilar. Metodika va psixologiya fanlarining uzaro munosabatlari haqida professor V.A.Artemov kimmatli fikr bayon kildi. Uning fikricha, psixologiya metodika uchun material beradi. Metodika o'qituvchining kanday dars utishini urganadi. Psixologiya esa o'quvchilarning bu predmetni kanday uzlashtirib olayotganliklari bilan shugullanadi. Lyokin bu fikrga tula kushilib bulmaydi. CHunki o'qituvchi

dars berish jarayonida, o`quvchi esa uzlashtirish davrida ma`lum ruxiy jarayon va xolatlarni boshdan kechiradilar, ular xoxlaydilar, yo`qmi ruxshunoslikning konunlariga rubaru bo`ladilar va ta`sirlanadilar.

B.V.Belyaevning fikriga kura, psixologiya birinchi navbatda chet tillarni o`rgatishning psixologik konuniyatlarini belgilashi metodistlarga chet tili o`rgatish yo`llari, vositalari va metodlarini ishlab chikishga yordamlashishi va bu predmetni o`qitish jarayonida o`quvchi ongida kanday uzgarishlar bo`lishini nazorat qilishi kerak (Belyaev, 1963)

"CHet tillarni o`rgatish psixologiyasi ocherklari" da metodikani amaliy psixologiya deb isbotlashga urinishni kuzatish mumkin. Bu bilan B.V.Belyaev chet tili o`qitish ta`limining barcha konuniyatlarini psixologiyadan keltirib chikarishga harakat qiladi. Lyokin bu fikr ishonarli emas. Chunki metodika psixologiya fanining konuniyatlariga amal kilsa ham uni amaliy psixologiya deyish xakikatga tugri kelmaydi.

Metodika tarixiga oid adabiyotlarni cho`qurrok o`rganish shuni kursatadiki, ayrim tadkikotchilar metodikani san`at deydilar. Ular odatda frantsuz metodisti Penlash fikriga ishora qiladilar, ya`ni "yaxshi" yoki "yomon" metod yo`q, "yaxshi" yoki "yomon" o`qituvchilar bor. Bunday fikrdagi kishilarga nemis metodisti e.Ottoning 1924 yilda bayon qilingan fikrlari bilan javob berish mumkin. U jumladan shunday deydi: "Agar kimki metodikani san`at hisoblar ekan, u fan nazariyasini uning amalda qo`llanishi bilan korishtirib yuboradi".

1. V.A.Artemov. eksperimental`naya fonetika i psixologiya v obuchenii inostrannomu yazo`ku. Uchenie zapiski Moskovskogo Gospedinstituta inostrannix yazikov. T-1,M.,1940

2. B.V.Belyaev. Metodika i psixologiya. IYASH., 1/63, 6, str. 23. Metodikani texnika deb hisoblovchilar ham bo`lgan. Bunday fikrni biz I.V.Raxmanovning dastlabki asarlarida uchratamiz. U chet til o`qitish metodikasini o`qitish texnikasi bilan takkoslaydi. Texnika deganda esa ma`lum jarayonni egallashda qo`llaniladigan metod va usullar yigindisini tushuniladi.

I.V.Raxmanovning keyingi asarlarini urgansak, uning metodika fani mustakil fan sifatida uzining tadkikot predmeti, konuniyatlari va metodlari bor ekanligini isbotlovchi fikrlarining guvoxi bulamiz. J.Jalolov ta`kidlaganidek, metodika chet til o`rgatish ilmi bo`lib, chet tilni o`quv predmeti sifatida belgilaydi, muallim va o`quvchi faoliyatini urganadi va yakin fanlar yuto`qlari hamda konuniyatlariga asoslangan xolda uz muammolarini tadkik qiladi.

CHet tili o`qitish metodikasi fan sifatida tilshunoslik va psixologiya bilan yakin aloqada bo`lib, ushbu fanlarning konuniyatlari, printsiplari va tajribalariga tayanadi. Biroq chet tili o`qitish metodikasida shunday masalalar borki, ularni na tilshunoslik, na psixologiya xal eta oladi. Metodika fani haqida gapirganda, fanlarning uzaro munosabatlari natijasida ularning kesishgan no`qtasida paydo bo`lgan fan haqida so`z yuritish mumkin.

I.V.Raxmanovning ta`kidlashicha, chet tili o`qitish metodikasi pedagogika fanlari sistemasiga kirib, ham nazariy, bir vaqtning uzida ham amaliy fan hisoblanadi. Nazariy fan sifatida ta`limning muayyan printsiplarini urganadi,

amaliy fan sifatida esa qaror topgan konuniyatlardan ta'lim jarayonida foydalanishni kursatib beradi.

Har bir fan uz tadjikot ob'ektiga ega. CHet tili o`qitish metodikasi uchun bu ob'ekt chet tili o`qitish jarayoni konuniyatlari hisoblanadi. Bu konuniyatlar metodikaning quyidagi masalalarini xal qilishda ruyobga chikadi.

1. Ta'lim maqsadlari, (nima uchun o`qitamiz);
2. Ta'lim ob'ekti, (kimni o`qitamiz);
3. Ta'lim mazmuni (nimani o`qitamiz, o`rgatamiz);
4. Ta'lim metodlari, printsiplari, yo`llari, usullari (kanday o`qitamiz).

CHet tili o`qitish metodikasi umumiy va xususiy metodikadan iborat. Umumiy metodika uz navbatida tarixiy va xozirgi zamon metodikasiga bo`linadi. Tarixiy metodika fandagi tarixiy bilimlar yigindisi bilan shugullanadi va zamonaviy metodika uchun xulosalar yasaydi. Xozirgi zamon metodikasi esa chet tili nazariyasi va o`qitish metodlari bilan shugullanadi.

Umumiy metodika barcha chet tillar uchun umumiy bo`lgan nazariyani tadjik qiladi, ya`ni barcha tillarni o`qitishga xos bo`lgan umumiy metod, printsipl, usullarni kuzda tutadi. Umumiy metodika uz oldiga quyidagi vazifalarni xal qilishni qo`yadi:

1. Ta'lim metodlarining psixologik va lingvistik asoslarini belgilash.
2. Ta'lim metodlarini belgilash va asoslash;
3. Ta'lim printsiplarini belgilash;
4. Ta'limning mazmunini belgilash;
5. Xususiy metodikaning vazifasini belgilash;
6. Mashqlar tizimini asoslash;
7. O`quv metodik qo`llanmalar masalasi;
8. Ta'lim jarayonini boshqarish;
9. Darslar tizimi va uni rejalashtirish;

Xususiy metodika deganda ma`lum chet tilini konkret til vakillariga o`qitish nazariyasi tushuniladi, jumladan nemis tili o`qitish metodikasi, ingliz tili o`qitish metodikasi va boshqalar.

Ma`lumki, konkret olingan chet tili metodikasi, o`quvchilar ona tilisiga karab bir-biridan farq qiladi. Masalan, nemis tilini o`rganish uzbek o`quvchilariga nisbatan ingliz o`quvchilari uchun osonrok bo`ladi. Bunga sabab, ingliz va nemis tillarining bir-biriga yakinligi va umumiy tomonining kupligidir. SHunga kura xususiy metodikada nemis tili o`qitishning umumiy metodikasi deb so`z yuritmay, balki ingliz yoki uzbek o`quvchilari uchun nemis tili o`qitish metodikasi deyish maqsadga muvofiqdir.

Xususiy metodika quyidagi masalalarni xal qilishni uz oldiga vazifa qilib qo`yadi:

1. Ta'limning maqsad, mazmuni va vazifalarini belgilash;
2. Ta'lim vositalarini aniqlash va asoslash
3. O`quv dasturi talablarini belgilash.
4. Metodik kiyinchiliklarni tavsiflash, tasniflash va diagnostika.
5. Turli til muhitida chet til ta`limini tashkil qilish.

Ma'lumki, tilshunoslik fanida til va nutq bir xodisaning ikki tomoni deb karaladi. Psixologik va metodik no`qtai-nazardan esa til aloqa vositasi, nutq esa fikrni shakllantirish va ifodalash vositasi, nutq esa fikrni shakllantirish va ifodalash usuli hisoblanadi. Har bir til fonetik, leksik va grammatik xodisalardan tashkil topgan. Tilga o`quv predmeti sifatida karash quyidagi metodik masalalarni keltirib chikaradi. Bu metodik masalalarni ham xususiy metodika xal qiladi. Ular quyidagilar:

1. Til materialini tanlash va metodik jixatdan tashkil etish.
2. Til materialini uzlashtirishga oid kiyinchiliklarni tasniflash;
3. Til materialini takdim qilish va mustaxkamlash.
4. Fonetik, leksik, grammatik ko`nikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirish;
5. Til materialiga oid mashqlar tizimini asoslash va ishlab chikish;
6. Til materialiga oid bilim, ko`nikma va malakalarni nazorat qilish.

Aytganimizdek, nutq fikrni shakllantirish va ifodalashning usuli hisoblanadi. Nutqiy muomala og`zaki yoki yozma tarzda amalga oshirilishi mumkin. Og`zaki nutq tinglab tushunish va gapirish (so`zlash)dan iborat. YOzma nutq esa o`qish va yozishga bo`linadi. Og`zaki nutq uz navbatida dialogik va monologik nutqqa bo`linadi. Axborotni qabul qilish va uzgalarga uzatish no`qtai-nazaridan nutq faoliyatining retseptiv (qabul qilish) va produktiv (uzatish) turlari farqlanadi. Nutq faoliyatining retseptiv turiga tinglab tushunish va o`qish, produktiv turiga esa gapirish va yozma kiradi. Nutq faoliyati turlarining yuqoridagi tasnifidan xususiy metodika uchun ta`lim jarayonida xal qilishi zarur bo`lgan quyidagi metodik masalalar kelib chikadi:

1. Nutq faoliyati turlarining uzaro munosabatini belgilash;
2. Nutqiy ko`nikma va malakalarning shakllanish darajasini belgilash;
3. Ta`limning maqsadini belgilash;
4. Nutqiy ko`nikma va malakalarning shakllanish darajasini nazorat qilish.

Umumiy va xususiy metodika bir-biri bilan uzviy boglikdir. Xususiy metodika umumiy metodikaning konuniyatlarini ma`lum bir tilni konkret til vakillariga o`rgatish jarayonida tadbik qiladi. Uz navbatida, xususiy metodika amaliy tajribalar bilan umumiy metodikani boyitadi. Umumiy metodika esa umumiy metodikasiz juda tor bo`lib, fakat bir tilni o`qitish jarayonida tuplangan tajribalar metodik konuniyatlarni kashf qilishda etarli bulmaydi. Fakat umumiy va xususiy metodikaning uzaro hamkorligigina metodikaning mustakil fan sifatida chet tili o`qitish nazariyasi va amaliyoti bilan shugullanish imkoniyatini ortiradi.

Fikrimizni quyidagicha jamlashimiz mumkin:

CHet til o`qitish metodikasi

- amaliy tilshunoslik (L.V.SHcherba)
- amaliy psixologiya (V.A.Artemev, B.V.Belyaev)
- ta`lim texnikasi (I.V.Raxmanov)
- san`at (Penlash).
- chet til ta`limi jarayonining konuniyatlarini tadbik kiluvchi mustakil fan.

CHET TILLARNI O'QITISH METODIKASINING BOSHQA FANLAR BILAN ALOQASI

CHet tillar o'qitish metodikasining boshqa fanlar bilan uzaro munosabati murakkabdir. Metodikaning quyidagi fanlar bilan aloqasini kiskacha kurib chikaylik.

1. PEDAGOGIKA.

CHet tili o'qitish metodikasi pedagogika fanlari sistemasiga kirganligi uchun ham pedagogika fani bilan uzviy boglik. Metodika jamiyat tarakkiyotining mazkur boskichida ta'limning pedagogika belgilab bergan maqsad va vazifalariga, ta'lim va tarbiyaning goyaviy yunalishiga asoslanadi. Metodika chet tili ta'limining maqsadlari, boskichlari, mazmuni, jarayonining umumiy yunalishini belgilashda pedagogika fanining konuniyatlariga asoslanadi.

2. DIDAKTIKA. CHet tili o'qitish metodikasi ta'lim nazariyasi-didaktika bilan yaqin aloqada. CHunki metodika ham didaktika kabi ta'lim-tarbiya jarayoni bilan shugullanadi. Farqi shundaki, didaktika bu jarayonni umumiy ma'noda, barcha o'quv predmetlariga boglik bo'lgan xolda urganadi. Metodika didaktika ishlab chikkan umumiy va politexnik ta'lim vazifalari, maktab o'quv rejasi, ta'lim jarayoni, ta'limning umumiy printsiplari, metodlari, usullari asosida chet til ta'limi masalalarini belgilaydi va xal qiladi. Dars nazariyasining umumiy konuniyatlariga asoslangan xolda metodika chet til darsini nazariy asoslaydi va amaliy ishlab chikadi. U chet til darslarini tiplarga ajratishda va strukturasi belgilashda didaktikaning konuniyatlariga tayanadi.

3. TARBIYA NAZARIYASI: CHet til o'qitish metodikasi tarbiya nazariyasi bilan yaqin aloqada. O'rta maktabda o'qitiladigan har bir predmet kabi, chet til ta'limi jarayonida o'quvchilarga tarbiya beriladi. Metodika ta'limning mazmunini tanlashda tarbiya nazariyasining talablariga amal qiladi. Darslarda urganiladigan mashqlar va tekstlar o'quvchilarda umuminsoniy kadriyatlarni shakllantirishga karatilgan bo'lishi kerak. Tarbiya nazariyasi darslarda o'quvchilarga fakat ta'lim berish, ularda nutq faoliyatining turlarida ko'nikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirishni nazarda tutmay, balki tarbiyaviy momentining ham bo'lishini takozo etadi. CHet til darsida ham har kanday ta'lim tarbiyaviy bo'lishi kerak degan printsipga amal qilinadi. Darslarda o'quvchilarning ijobiy xislatlari tarbiyalab boriladi. Ular Vatan, vatanga muxabbat, til, ona tili, vaqt va uni kadrlash, millat, milliylik, millatlararo munosabat, milliy mafkura, milliy kadriyat tushunchalarini uzga millat va xalklarga xos bo'lgan xususiyatlar bilan takkoslash yo'li bilan cho'qurrok anglab boradilar. Uzni va uzlikni kadrlashga urganadilar.

4. ONA TILI O'QITISH METODIKASI. CHet til o'qitish metodikasi, ona tili o'qitish metodikasi bilan uzviy boglik. CHet tilida shakllanadigan ko'nikma ona tili ta'sirida (ham ijobiy, ham salbiy) bo'lganligi uchun ham ona tili o'qitish tajribalarini hisobga olish zarur. CHet til o'qitish metodikasi uz navbatida ona tili o'qitish metodikasini tuldiradi. O'quvchi uzga tilni o'rganish jarayonida ona tilini cho'qurrok, mo'qammalrok urganib boradi. Tilning fonetik, grammatik va leksik vositalarini, ifoda usullarini chet tildagi imkoniyatlar bilan takkoslaydi,

ular o`rtasidagi uxshashlik va farqlarni aniklaydi. Bu bilan o`quvchining mushoxada qilish, fikrlash imkoniyatlari kengayadi.

5. RUS TILI O`QITISH METODIKASI. CHet tili o`qitish metodikasi milliy maktablarda rus tili o`qitish metodikasi bilan ham yakindan aloqada. U milliy maktablarda rus tili o`qitish metodikasining printsip va tajribalariga tayanadi. Ayniksa interferentsiya, ijobiy kuchirish, til xodisalarini kiyosiy o`rganish, ma`lum millatga mansub bo`lgan o`quvchilarning lingvistik tajribalarini hisobga olish va boshqa masalalarda chet tili o`qitish metodikasi rus tili o`qitish metodikasiga murojat qiladi. Rus tilini o`rganish jarayonida uzbek tilida mavjud bulmagan xodisalarni rus tili orkali tushuntirish imkoniyati tugiladi. Natijada o`quvchilar chet til xodisasini tezrok va puxtarok anglab etadilar.

6. PSIXOLOGIYA. CHet til o`qitish metodikasi ta`lim jarayoni bilan shugullanganligi uchun ham psixologiya bilan uzviy boglik. Metodika psixologiyaning bilimlarni uzlashtirish, ko`nikmalarni shakllantirish va malakalarni rivojlantirish haqidagi tadbikot natijalariga tayanadi va bu natijalarni uzining juz`iy masalalarini xal qilishga tadbik qiladi. Psixologiya kishi dikkati, xotirasi, fikrlash konuniyatlari va boshqa ruxiy jarayon va xolatlar haqida umumiy ma`lumot beradi. Metodika bu ma`lumotlardan chet tillarni o`rgatish jarayonida foydalanadi.

7. PEDAGOGIK PSIXOLOGIYA. CHet til o`qitish metodikasi pedagogik-psixologiya bilan uzviy boglik. Psixologiyaning bu tarmogi ta`lim tarbiyaning konuniyatlari bilan shugullanadi. Jumladan u o`quvchilarda tafakkurning shakllanishi, bilim olish usul va malakalari jarayonini boshqarish, ta`limning muvaffakiyatini ta`minlovchi ruxiy dalil aniqlash, o`qituvchi va o`quvchi munosabatlariga oid konuniyatlar, o`quvchilarning shaxsiy individual xususiyatlarini belgilash, ta`lim jarayonida kattalar bilan ishlashning psixologik xususiyatlarini kuzda tutish kabi va boshqa masalalarni tadbik qiladi. Metodika ushbu masalalarni chet tili ta`limiga bog`lab xal qilishda pedagogik psixologiya chikargan xulosalarga tayanadi.

8. NUTQ PSIXOLOGIYASI. CHet til o`qitish metodikasi nutq psixologiyasining dalillariga tayanadi. Nutq psixologiyasi nutq jarayonini turli tomondan urganadi. Og`zaki va yozma nutqning bir-biridan farqi va ularning xususiyatlarini ochib beradi. Metodika nutq faoliyatining turlarida ko`nikmalarni shakllantirish, ta`limning mazmunini tanlash, mashqlar tizimini nazariy asoslash va amaliy ishlab chikishda nutq psixologiyasining dalillariga tayanadi. Nutq psixologiyasining nutqni retsepti (axborot qabul qilish) va prodo`qtiv (axborot berish) jixatdan harakterlaydigan dalillari ham metodika uchun juda katta ahamiyatga ega. Nutqiy muomaladagi retseptiv faoliyat axborotni qabul qilish bilan boglik bo`lib, nutq faoliyatining tinglab tushinish va o`qish turlari vositasida amalga oshiriladi, produktiv jarayon esa fikrni og`zaki yoki yozma ravishda bayon qilish faoliyatlari bilan boglik va bu nutq faoliyatining gapirish va yozish turlari orkali amalga oshiriladi. Metodist nutq psixologiyasining yuqoridagi dalillariga asoslangan xolda nutq faoliyatining turlarida ko`nikmalarni shakllantirish, nutq psixologiyasining til, nutq, nutq faoliyati va malakalarni rivojlantirish jarayonini tashkillash masalalari bilan shugullanadi. Tafakkurning uzaro boglikligi

masalalarini xal qilishdagi xulosalari ham chet til ta'limini zamonaviy talablar asosida tashkillash borasida benixoya katta ahamiyatga ega ekanligi xech kandy shubxa tugdirmaydi.

9. YOSH PSIXOLOGIYASI. CHet til o'qitish metodikasi yosh psixologiyasi va uning tarmoklari bo'lgan bolalar, usmirlar, yoshlar, kattalar psixologiyasining dalillariga tayanadi. YOsh psixologiyasi psixik jarayonlarning har xil yoshlarga mansub bo'lgan xususiyatlari, ya'ni bilimlarni egallashning turli yoshga xos bo'lgan imkoniyatlari, shaxsning rivojlanish xususiyatlari bilan shugullanadi. YOsh psixologiyasining yana bir dolzarb masalalaridan biri ta'lim masalasi va akliy rivojlanish hamda ularning bir-biriga boglikligi masalasidir. Metodika yosh psixologiyasining yuqorida bayon qilingan masalalarni tadkik qilish natijalariga asoslanib, chet tili ta'limini tashkil qilishda turli yoshdagi guruxlarning yosh xususiyatlarini hisobga oladi.

10. CHET TIL O'QITISH METODIKASI ilmiy texnika jarayoni rivojlangan bir paytda injener psixologiyasi dalillariga asoslanmasdan texnika vositalari turli turlarining bilimlarni uzlashtirish jarayoniga ta'sirini aniklay olmaydi. Ma'lumki zamonaviy ta'lim tizimini audio, video-, kompyuter texnikasining yordamisiz tasavvur qilish mumkin emas. Kurish va kursatish vositalarining ta'lim jarayonidagi urni ham kun sayin kengayib bormokda. Bunday vositalardan til o'rgatish va o'rganish o'quvchi ruxiyatiga, kayfiyatiga kandy ta'sir qilishi masalalari bilan injener psixologiyasi shugullanadi. Psixologiyaning ushbu tarmogi tadkikotlari chet til o'qitish metodikasi uchun katta ahamiyatga ega.

11. NEYROPSIXOLOGIYA. CHet til o'qitish metodikasi neyropsixologiyaning xulosalarini hisobga oladi. Neyropsixologiya psixik xodisalarning miyaning fiziologik strukturasi ga boglikligi masalalari bilan shugullanadi.

12. TILSHUNOSLIK. CHet til o'qitish metodikasi tilshunoslik (ingvistika) va uning tarmoklari bilan uzviy boglik. Ma'lumki tilshunoslikning tadkikot ob'ekti kishilar o'rtasidagi muxim aloqa vositasi-tildir. Metodikaning predmeti esa til vositasida nutq faoliyatining turlarida muomalaga o'rgatish jarayoni hisoblanadi. SHuning uchun ham metodika tilshunoslikning asosiy tushunchalari va konuniyatlaridan foydalanadi. Metodika uchun tilshunoslikning til, nutq va nutq faoliyati masalasini xal qilishdagi xulosalari katta ahamiyatga ega. Til aloqa qilish vositalaridan biri sifatida ma'lum tizimni tashkil qiladi. O'quvchilarning shu tizimni uzlashtirib olishlari ularning tilda aloqa kila olishlarini ta'minlay olmaydi. Nutq bu tizimning amalda reallashuvi hisoblanadi. O'quvchilarni chet tilida nutq faoliyatining turlarida faoliyat kursatishga o'rgatish uchun ularga aloqa vositasi tizimini, ya'ni tildagi ishoralarni nutqda qo'llash qoidalarini va bu qoidalarning nutq faoliyatining turlarida qisman avtomatik tarzda tadbik kila olishni o'rgatish lozim. Bundan tashkari til va nutq birligini belgilash ham metodika uchun mashqlar tizimini kaysi material asosiga kurish kerak degan savolga javob berishda muxim rol uynaydi.

Metodik masalalarni xal qilishda tilshunoslikning tarmoklari bo'lgan xususiy tilshunoslik, sotsial tilshunoslik, statistik tilshunoslik, tekst tilshunosligi,

paralingvistika, muomala tilshunosligi, pragmatik tilshunoslikning tadkikot xulosalari kimmatli ekanligini aloxida ta`kidlash lozim.

13. CHet til o`qitish metodikasi tilshunoslikning fonetika, leksika, grammatika, stilistika va boshqa soxalarisiz uz oldiga kuygan vazifalarni tula bajara olmaydi. Ushbu masalalarga aloxida ma`ruzalar bag`ishlangan.

14. SOTSIOLINGVISTIKA. CHet til o`qitish metodikasi sotsiolingvistika bilan uzviy boglik. Sotsiolingvistika tilning jamiyatdagi, sotsial guruxlardagi tutgan urni, tilning rivojlanishiga millatning tarixiy, iktisodiy va madaniy soxalardagi erishgan yuto`qlarining ta`siri masalalarini urganadi. Metodika ushbu dalillarni ta`lim jarayoniga tadbik qilishi va til o`rgatishda ularni hisobga olishi lozim.

15. STATISTIKTILSHUNOSLIK. CHet til o`qitish metodikasi statistik tilshunoslikning xulosalariga tayanib ish kuradi. Statistik tilshunoslik biror bir til elementining kanchalik tez va kup qo`llanishini aniklab beradi. Bu til materialini tanlash muxim ahamiyatga ega. Statistik tilshunoslik quyidagi savollarga javob topishda yordam beradi. eng kup uchraydigan so`zlar kaysilar va ularning soni nechta? Agar o`quvchi, nechta so`zni aktiv uzlashtirsa uz fikrini og`zaki bayon kila oladi? O`quvchi tekstning mazmuni bilan tanisha olishi uchun u nechta so`zni uzlashtirgan bo`lishi kerak? Kaysi grammatik xodisalar tekstda kup qo`llaniladi? va boshqalar. Ushbu savollarga javob olish ta`lim mazmunini real, ilmiy ob`ektiv belgilash imkoniyatini yaratadi.

16. PARALINGVISTIKA. CHet til o`qitish metodikasi paralingvistika (imo-ishora) ning xulosalariga ham tayanadi. Ma`lumki, har bir til vakilining muomala jarayonida foydalanadigan imo-ishoralari, yuz ifodasi, organlarning harakati bor. Bir xalkning imo-ishorasi ikkinchisidan farq qiladi. Nutqni tulik tushunish uchun bunday imo-ishoralarning ham ma`nosini tushunish kerak. Metodika urganilayotgan til vakiliga xos bo`lgan paralingvistika (tildan tashkarida bo`lgan) tizimini ham hisobga olishi lozim.

17. MATNSHUNOSLIK. CHet til o`qitish metodikasi matnshunoslik tadkikotlari natijalaridan foydalanadi. Tilshunoslikning ushbu tarmogi asosan quyidagi masalalar bilan shugullanadi;

1. Jummlar o`rtasidagi bog`lanish va munosabat;
2. Jummlar va matn birliklari masalasi;
3. Matn strukturasi va xususiyati;
4. Matnning intonatsion tarkibi;
5. Matn va kontekst, tekst va podtekst, tekst va tekstlarning uzaro munosabati;
6. Matndagi lingvistik va ekstralingvistik faktorlarning uzaro munosabati;
7. Turli uslubga mansub bo`lgan matnlarni harakterlovchi belgi va xususiyatlar;
8. Matnning emotsionalligi va boshqalar.

Agar tilshunos og`zaki va yozma matndagi ichki bog`lanishni, matnning fonetik, leksik, grammatik va stilistik xususiyatlarini tadkik kilsa, metodist og`zaki nutq va o`qish uchun matn tanlash, tuzish va matn ustida ishlash masalalarini xal qilishda yuqoridagi faktlarni hisobga oladi.

18. KOMMUNIKATIV LINGVISTIKA. CHet til o`qitish metodikasi kommunikativ tilshunoslik dalillariga tayanib ish kuradi. Kommunikativ tilshunoslik tilni muomala vositasi sifatida urganadi. Til kishilar o`rtasidagi uzaro aloqani ta`minlaydi. Til vositasida qilingan muomala kommunikatsiyadir.

Lingvistikaning bu tarmogi tilni nutq faoliyati no`qtai nazaridan tadkik qiladi, ya`ni til strukturasi nutqiy muomala konuniyatlari asosida taxlil qiladi. Kommunikativ lingvistika nutqiy muomalani nafakat nazariy jixatdan, balki kishining kundalik xayot faoliyatida uzaro aloqa bilan boglik xolda urganadi. CHet tili o`qitish metodikasi esa yuqoridagi dalillarga asoslanib, chet tilida kandy muomala qilishni o`rgatish muammolari bilan shugullanadi.

19. PRAGMATIKA. Pragmatik tilshunoslik tilning aloqa vositasi sifatida ta`sir darajasini urganadi. CHet tili o`qitish metodikasi pragmatik tilshunoslik masalalarining tadkikot natijalaridan foydalanadi.

20. PSIXOLINGVISTIKA. CHet til o`qitish metodikasi psixolingvistika bilan uzviy boglik. Psixolingvistika nutq jarayoni va uni idrok qilish til strukturasi boglik ekanligi masalasi bilan shugullanadi, ya`ni til va nutq xodisalarini psixologik va lingvistik no`qtai-nazardan tadkik qiladi. Psixolingvistika nutq faoliyati nazariyasini, ya`ni faoliyatni xususiy faoliyat sifatida urganadi. Masalan, psixolog nutq faoliyati jarayoni bilan shugullansa, lingvist nutq faoliyatining natijasi bilan mashgul bo`ladi. Psixolingvist esa til birliklarining nutq faoliyatini amalga oshirish mexanizmlariga va formalariga munosabati masalasi urganadi. Psixolingvist nutqni yaratish va qabul qilish jarayonida inson bosh miyasida sodir bo`ladigan uzgarishlar, ularning sabab va natijalari bilan mashgul bo`ladi. Psixolingvistika psixologiya va tilshunoslik kesishgan no`qtadan boshlanadi. U nutqiy tafakkurning yuzaga kelishi va idrok etilishi konuniyatlarini urganadi. Metodist esa yuqoridagi fanlar konuniyatlarini hamda kimni, nimaga va nima uchun o`qitishni hisobga olgan xolda nutq faoliyatining turlariga o`rgatish jarayonining optimal variantini ya`ni kandy o`qitishni tashkil qiladi.

CHET TIL O`QITISH METODIKASINING TADKIKOT METODLARI

Har bir fan uzining tadkikot metodlariga ega. Metodikada tadkikot metodi deganda, metodik xodisalarni o`rganish yo`li, usuli tushuniladi. Tadkikot metodlarini ikkiga bo`lish mumkin:

1. Tadkikotning asosiy metodlari:

2. Tadkikotning yordamchi metodlari

CHet til o`qitish metodikasi soxasida zamon talabiga javob beradigan tadkikot o`tkazish uchun albatta, tilshunoslik, nutq psixologiyasi, psixolingvistika, metodika va fanning boshqa tarmoklariga oid **ADABIYOTLARNI TANKIDIY O`RGANISH** zarur. Adabiyot manbalarini tankidiy o`rganish, birinchidan urganilayotgan masala tarixi bilan tanishish uchun, ya`ni kimlar bu masala bilan shugullangan, masalaning kaysi tomonlari tadkik qilingan, kandy manbalar bor,

ular kachon yozilgan, masala kaysi no`qtai-nazardan urganilgan va boshqa savollarga javob olish uchun; ikkinchidan, urganilayotgan masalaning zamonaviy axvoli va xal kilinishi kerak bo`lgan tomonlarini bilib olish uchun zarurdir. Bu metod qilingan ishlarni yana takrorlanmasligini ta`minlaydi va chet til ta`limi soxasida Vatanimizda va chet ellarda olib borilgan nazariy va amaliy tadkikotlar bilan tanishish imkonini beradi. U nazariy jixatdan metodik konuniyat va goyalarning rivojlanish boskichlari bilan tanishtiradi, ularning davomiyligini taminlaydi va masalani xal qilish jarayonida yangicha yondoshishga imkon yaratadi. Adabiyot manbalarini tankidiy o`rganishga ta`lim-tarbiya ishidagi turli xil xujjat, ma`lumot, ish kogozi va boshqalarni o`rganishi ham kiradi.

2. Ilgor pedagoglarning **IJOBIY TAJRIBALARINI O`RGANISH** ham katta ahamiyatga ega. Ma`lumki, har bir o`qituvchi ta`lim tarbiya jarayoniga umumiy konuniyatlardan kelib chikib, uziga xoslik bilan yondoshadi. Buni har kaday konkret maktab misolida kurish mumkin. Har bir o`qituvchi uziga xos bir dunyo. Ta`lim-tarbiya jarayonida o`qituvchilar masalani turlicha xal qilishi mumkin, masalan darsni tashkil qilish, birinchi darsni kaday boshlash, 5 minutlik suxbat, o`quvchilardan eq uy vazifasini so`rash, yangi mavzuni tushuntirish, til modellaridan foydalanish, nutqiy xolatlar asosida so`zlash va boshqalar.

Metodika tarixida ilgor tajriba sifatida urganilgan va umumlashtirilgan hamda ta`lim jarayoniga kiritilgan tajribalardan kuplab misol keltirish mumkin, masalan navbatchi bilan suxbat, navbatchining axboroti, fonetik nutqiy gimnastika va boshqalar, ayrim o`qituvchilarning ish faoliyatidan urganilgan va ommalashtirilgan usullardan hisoblanadi.

Ilgor pedagoglarning ijobiy tajribalarini o`rganish ma`lum maktab, rayon, shahar mikiyosida amalga oshirilishi va boshqa maktablarda sinab kurilishi mumkin. CHunki ta`lim jarayoni tajribani o`rganish va umumlashtirish ob`ektiv maqsadga muvofiq va tula bo`lishini takozo qiladi. Ilgor pedagoglarning ijobiy tajribalarini o`rganish, umumlashtirish va ommalashtirishda pedagoglik o`qishlar, konferentsiya, seminar va boshqa tadbirlar muxim rol` uynaydi.

3. **ILMIY KUZATISH.** Ushbu metoddan tadkikotchi tabiiy sharoitda foydalanadi. Kuzatish ob`ekti bo`lib o`quvchining faoliyati, harakati, xulki, qobiliyati va psixologik jarayonlar xizmat qiladi. Kuzatish orkali o`quvchini har tomonlama o`rganish mumkin. Tadkikot metodi sifatida kuzatish anik maqsad, reja asosida sistemali ravishda turli sharoitlarda utkaziladi. Tadkikotchi ushbu metoddan foydalanganda kuzatilayotgan ob`ektga uz ta`sirini utkazmaydi. YA`ni o`quvchi uzini kuzatilayotganidan bexabar bo`ladi. Kuzatish natijalari yozma ravishda kayd qilib boriladi. Masalan, chet tili ta`limi sharoitida o`quvchilarning dikkati, xotirasi, qobiliyati uzlashtirish kursatkichlari va boshqa psixologik xususiyatlarini kuzatish mumkin.

4. **TAJRIBA ISHI YOKI SINOV TA`LIM** oldindan nazariy jixatdan asoslangan va amaliy ishlab chikilgan metod, o`quv material yoki darslik bilan ishlash va ta`limning taklif kilinayotgan metodi kaday natija berishini sinab kurish imkoniyatini beradi. Sinov ta`lim kup sonli maktablarda va o`quvchilar bilan turli xil shart-sharoitlarda utkaziladi. Sinflar barcha kursatkichlar bo`yicha bir xil bo`lgan ikki guruxga bo`linadi. Birinchi gurux nazorat guruxi va ikkinchi gurux

sinov guruxi deb belgilanadi. Nazorat guruxida an'anaviy metodika bo'yicha dars utiladi, sinov guruxida esa taklif kilinayotgan metodika asosida ish olib boriladi. Sinov ta'lim yakunlangandan sung uning natijalari an'anaviy ta'lim natijalari bilan solishtiriladi va sinov metodikasi boshqa maktablarda foydalanish uchun metodik tavsiyalar sifatida keng yoyish xuquqini oladi. Harakteri jixatdan sinov ta'lim eksperimentga yaqin turadi. Lyokin sinov ta'lim va eksperimentni bir xil tushunish notugridir.

5. eKSPERIMENT. Metodika ilmiy tadkikot metodlarining eng muximdir. eksperiment tadkikotchi tomonidan ilmiy asoslangan gipoteza asosida tashkil qilinadi va shu gipotezani tekshirishga karatiladi. Gipoteza deganda ta'limning shart-sharoitlari saklangan xolda o'qish, mazmuni, shakli, yo'li va usullari yoki vositalari uzgartirib natijalarning yaxshilanishi haqidagi ilmiy faraz tushuniladi.

Eksperimentning konkret maqsadi, shart-sharoiti, metodikasi, muddati belgilangan bo'lishi kerak. SHunga kura, eksperiment quyidagi yunalishda: sinfda yoki laboratoriyada, uzok yoki kiska muddatli, individual yoki bitta gurux bilan,tabiiy yoki sun'iy sharoitda utkazilishi mumkin. Metodik eksperimentning quyidagi turt tarkibiy qismini farqlash lozim:

1. Ta'limning eksperiment davomida uzgartiriladigan elementlari;
2. Uzgartirilmaydigan sub'ektiv dalillar, ya'ni o'quvchi va o'qituvchining shaxsiy harakteristikasi;
3. Uzgartirilmaydigan ob'ektiv dalillar, ya'ni tekst materiali, yordamchi qo'llanmalar, gurux tarkibi va boshqalar;
4. YAkuniy dalillar.

Har kandy eksperimentni o'tkazishdan avval o'quvchilarning bilimlari sinab kuriladi. Adabiyotda eksperimentdan avvalgi, kundalik, kuniy va keyinga surilgan tekshirish farqlanadi. Ushbu tekshirishni o'tkazishdan maqsad o'quvchilarning dastlabki, kundalik va kuniy bilim, ko'nikma va malakalarini belgilashdan iborat. eksperiment o'tkazishda turt boskich mavjud:

1. Tashkiliy boskich. Bunda eksperimentning gipotezasi nazariy jixatdan asoslanadi va amaliy ishlab chiqiladi;
2. Asosiy boskich-eksperiment utkaziladi, harakteriga karab u kushimcha boskichlardan iborat bo'lishi mumkin. Bu boskichda eksperimentning sofligi va ishonchligini ta'minlash muximdir.
3. Natijalash, ya'ni eksperiment natijalarini son va sifat jixatidan ishlab chikish, taxlil qilish va harakterlash.
4. Xulosalash-erishilgan natijalarning sabablarini, ishonchligini isbotlash.

YUqoridagi boskichlardan keyin eksperiment natijalari amaliyotda sinab kuriladi.

Endi tadkikotning yordamchi metodlarini kurib chikamiz:

1. ANKETALAR YORDAMIDA OMMANING FIKRINI BILISH metodik eksperimentda juda katta ahamiyatga ega. Bu yordamchi metod metodikaga sotsiologiya orkali kirib keldi. Bu metod orkali ommaning fikrini bilishda suraladigan kishilar soni kancha kup bo'lsa natijalarning ob'ektivligi shunchalik ishonchli bo'ladi. Bu metodni amalga oshirishning asosiy vositasi anketadir. SHuning uchun anketalarni tayyorlashga aloxida talab kuyiladi.

Anketaning shakli va mazmunini tadkikotning xususiyati belgilaydi. Anketa tadkikotning maqsad va harakteriga, Suralayotgan kishilarning imkoniyatlariga mos bo'lishi kerak. Anketaning formasi suraluvchilar va tadkikotchi uchun kulay bo'lishi lozim. Anketadagi savollarga tayyorlangan javoblar barcha imkoni bo'lgan javoblarni uz ichiga olishi kerak. Javoblar ballar bilan hisoblanishi mumkin.

2. TESTLAR O'TKAZISH tadkikot metodi sifatida tobora keng tarkalmokda. Test-bu barcha sinaluvchilar uchun bir xil sharoitda utkaziladigan kiska muddatli, texnik jixatdan nisbatan oddiy uyushtirilgan sinovdir.(xaydovchilik guvoxnomasini olish uchun topshiriladigan va oliy o'quv yurtlariga kirish uchun imtixonlar xozirgi kunda asosan testlar asosida utkazilmokda).Test bir vaqtning uzida butun sinf yoki gurux tekshirish imkonini beradi. Testni har bir amaliy mashgulotda o'tkazish mumkin. Uni o'tkazish uchun kup vaqt talab kilinmaydi.Testni bajarishda barcha o'quvchilar uchun bir xil sharoit bo'ladi-ular yakka xolda ishlaydilar,xajmi va murakkabligi bir xil material bilan ta'minlanadilar.Test keng xajmli materialni kamrab oladi va fakat bu materialni uzlashtirish emas,balki bu material bilan ishlash malakalarini ham tekshirish imkonini beradi.Test odatdagi nazorat ishidan standartligi bilan farq qiladi.Topshirik beriladi va sinaluvchi topshirikka berilgan javoblardan birini tanlaydi. Tanlangan javob tugri yoki notugri bo'lishi mumkin. O'qituvchi javoblarni testning "kaliti"ga karab tugri yoki notugriligini aniklaydi.Testlar nazorat yoki ta'limiy maqsadda utkazilishi mumkin.Testlar bir vaqtning uzida, kup sonli o'quvchilarni sinash imkonini beradi,vaqtni tejaydi va o'qituvchining ishini osonlashtiradi,biroq sinaluvchini ijodiy uylashga majbur kilmaydi.

3. SUXBAT tadkikotning yordamchi metodi sifatida sinaluvchilar yoki o'qituvchi bilan yuzma-yuz turib olib boriladi. Utkazilgan suxbat tadkikotning etishmaydigan komponentlarini tuldirish, nazardan chetda kolgan detallarni kiritish,ayrimlarini uzgartirish,gipotezani tuldirish va boshqa imkoniyatlarni beradi.Tadkikotchi suxbat orkali tadkikotning yuto'q va kamchiligini aniklaydi hamda ayrim uzgartirishlar kiritish imkoniga ega bo'ladi.Suxbat natijalarining ob'ektiv,anik va ishonchli bo'lishi uchun tadkikotchi suxbatni anketalar va testlar o'tkazish bilan bog'lab olib boradi.

4. XRAMOMETRLASH (dars jarayonini yozib olish)-tadkikotning yordamchi metodi sifatida dars jarayonida o'qituvchi vaqtdan kanday foydalanadi, darsning boskichlariga vaqtni tugri sarfladimi, o'qituvchi va o'quvchilarning nutqi kanday va boshqa savollarga javob berish imkoniyatini beradi. Keyingi paytda chet til o'qitish metodikasida tulik bir darsni yoki darslar seriyasini magnitafon yoki video magnitafonga yozib olish va tadkik qilish keng tarkalغان.

Darsning ma'lum boskichini yozib olish ham mumkin. Bundan tashkari bir o'qituvchining bir nechta darsidagi shu boskichni yoki bir necha o'qituvchining darsini yozib olish kiyoslash, hamda tegishli xulosa chikarish imkoni mavjud.

CHET TIL PREDMETI VA UNING UZIGA XOS XUSUSIYATI

O`rta maktablarda o`qitiladigan o`quv predmetlarini shartli ravishda uch guruxga bo`lish mumkin.

Birinchi guruxga asosan nazariy bilim beradigan predmetlarni kiritish maqsadga muvofiq. Bunday predmetlarga tarix, jamiyatshunoslik, adabiyot, geografiya va boshqalar kiradi. Bu predmetlarning asosiy vazifasi o`quvchilar ongida tushuncha, tasavvur va konunlar tizimini shakllantirishdir.

Ikkinchi gurux predmetlar borki, ular o`quvchilarga nazariy bilim berishdan tashkari, bu bilimlarni tajribada sinab kurishga ham o`rgatadi. Bunday predmetlarga ximiya, fizika, biologiya va boshqalar kiradi. O`quvchilar ximiya yoki fizikadan olgan nazariy bilimlarini tajribalar o`tkazish yo`li bilan sinab kuradilar.

Uchinchi gurux predmetlar zimmasiga o`quvchilarga nazariy va amaliy bilim berishdan tashkari ularda muayyan ko`nikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirish vazifasi yuklanadi. Bunday fanlarga jismoniy tarbiya, musika, rasm, chizmachilik, mexnat va boshqalar kiradi. O`quv predmetlarining mazkur guruxining asosini muayyan umuminsoniy faoliyat tajribasi tashkil etadi. Bu fanlarni o`qitishdan maqsad, o`quvchilarda ushbu predmetga oid nazariy masalalar haqida tushunchalar xosil qilishdan tashkari maxsus ko`nikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirishdir. Masalan, o`quvchi jismoniy tarbiya darsida yugurish salomatlik uchun foydali ekanligini, 100 metrga yugurish uchun sarflanadigan vaqt, yugurish texnikasi va boshqalarni bilishdan tashkari bu masofani berilgan vaqtda bosib utishga o`rganishi kerak. Musika darsida o`quvchi urganilayotgan kushikchi kuylay oladigan bo`lishi kerak. Buning uchun o`quvchidan ma`lum maxorat talab qilinadi. O`quvchilarga chet til predmetini o`qitishdan asosiy maqsad til materiallaridan foydalanib, nutq faoliyatining turlarida berilgan mavzularda muomala qilishga o`rgatishdan iboratdir. CHet tilda muomala kila olish o`quvchidan murakkab ko`nikma va malakalarning shakllanishi va rivojlanishini talab qiladi. SHunday ekan, chet til predmetini ham uchinchi gurux predmetlari katoriga kiritish mumkin. CHet til predmetining xususiyatlari haqida akademik L.V.SHcherba tuxtalib, chet tillarni o`qitishdan maqsad kishilar jamoasiga xos bo`lgan nutq faoliyatni o`rgatishdan iborat ekanligini ta`kidlaydi. I.V.Raxmanov akademik L.V.SHcherba goyalarini rivojlantirib chet tili o`qitishdan a) ilmiy, b) tarbiyaviy, v) kommunikativ maqsadlar nazarda tutilishi kerakligini o`qtiradi:

Ushbu xususiyatlar chet tili o`quv predmetining harakterini belgilash uchun muximdir. Biroq bu xususiyatlar o`quvchilar ona tilisiga ham xos. Ona tili predmetini o`qitishdan asosiy maqsad savodli kishilarni, ya`ni o`qish va yozishda ko`nikma va malakasi bo`lgan kishilarni tayyorlashdir. Ma`lumki, ona tilini yaxshi bilish mamlakatning xujalik, siyosiy va madaniy xayotida faol ishtirok etishga yordam beradi. CHet til predmetining ona tilidan farqlovchi belgilari ham mavjuddir. Bular quyidagilar:

1.O`quvchilar ona tilini fan sifatida o`rganishni og`zaki nutq- ni egallagan xolda boshlaydilar. CHet tilni o`rganishni esa xech kanday zaminsiz boshlaydilar.

2.CHet tilni o`rganishga sarflanadigan vaqt ona tili o`rganishga sarflanadigan vaqtga nisbatan juda cheklangan.

3.O`quvchining tafakkuri ona tilini o`rganish jarayonida barobar shakllanib va usib boradi. CHet til o`rganishni esa u narsa-xodisalar haqida shakllangan ma`lum tushunchalar bilan boshlaydi, ya`ni ona tilini o`rganishda bir yo`la tafakkur shakllanadi,chet tilini o`rganishda esa fikr bayon etishning boshqacha vosita va usullari, boshqacha so`zlar, so`z birikmalari, iboralar, fonetik, grammatik va leksik vositalar egallanadi. CHet tilni o`rganish jarayonida ona tilidagi tajribaga tayanish, uni takomillashtirish imkoniyati yaratiladi.

4.Ona tili tabiiy til muhiti sharoitida urganiladi, chet tilni o`rganishda esa bu muxim omil etishmaydi. Fakat chet til darsi paytidagina til muhiti sun`iy ravishda yaratiladi.

5.Bola ona tilini ota-onasidan, oila a`zolari va atrof muhitidan aloqa vositasi sifatida urganadi. Uning til o`rganishi muomala jarayonida eshitish- qo`llash- sinash- tuzatish tarzida amalga oshiriladi. Birinchi sinfga kelgan o`quvchi ona tilida uzgalar fikrini tinglab tushunadigan va uz fikrini og`zaki bayon kila oladigan darajada bo`ladi. O`qish va yozish ko`nikma va malakalarini maktab sharoitida

egallay boshlaydilar.O`quvchilar chet tilni o`rganishga kirishganlarida ona tilida va rus tilida ma`lum lingvistik bilim va tajribaga ega bo`ladilar.Bu tajriba chet tilni o`rganish jarayonida ham ijobiy,ham salbiy ta`sir kursatishi mumkin. Ijobiy ta`sir ona tili va rus tilidagi xodisa chet til xodisasiga muvofiq kelganda sodir bo`ladi. Bunday muvofiqlik tilning leksik, grammatik va fonetik katlamlarida uchraydi.CHet tilni o`rganishda bunday xodisalar jiddiy kiyinchilik tugdirmaydi. Ayrim til xodisalarini uzlashtirishda ona tili va rus tili xodisalari salbiy ta`sir kursatadi. Bunday xolatni tillararo interferentsiya deb ataladi. CHet til o`rganishda ona tilining ijobiy yoki salbiy ta`siri va uni ta`lim jarayonida hisobga olish zarurati chet til predmetining xususiyatlaridan biridir. CHet til predmetining uziga xos xususiyati haqida gapirganda albatta, I.A.Zimnyaning fikrlarini hisobga olish zarur. U chet tili predmetining uziga xos xususiyatini quyidagicha belgilaydi:

1. CHet tili predmetining **kup kirraliligi** (neodnorodnost`).

Tilning kup kirraliligi haqida uz davrida V.Gumbol`dt gapirgan edi. Jumladan, u shunday degan: "Til fakat kogozga tushirilgan xosila, sistema bo`lib kolmay, balki faoliyat jarayondir".Ferdinand de Sossyur uz navbatida nutq faoliyati (langage), til (langua) va nutq (parole) haqida gapirib ushbu tushunchalarni farqlashni tavsiya qiladi. Akademik L.V.SHcherba uzining "Til xodisalarining uch aspekti haqida" degan makolasida til xodisalarining quyidagi tomonlari mavjud ekanligini o`qdiradi: a) So`zlash va tushunish nutq faoliyatining turlari sifatida; b) Til tizimi, "til" tor ma`noda ishoralar yigindisi sifatida; v) Nutq faoliyatining natijasi (tilshunoslikda "matn"deb ataladi).

YUqoridagilardan kurinib turibdiki, til tushunchasiga boshqa tushunchalar ham kiradi. Bu chet til predmetining kup kirraliligini belgilaydi. Lyokin ta`lim jarayonida asosiy e`tiborni nutq faoliyati va uning turlariga karatish lozimligini I.A.Zimnyaya ta`kidlaydi. Zamonaviy metodikada ta`limning predmeti nutq

faoliyati va uning turlari tinglab tushunish, gapirish, o`qish, yozish hisoblanadi. Boshqa faoliyat kabi nutq faoliyati ham z a r u r a t dan boshlanadi.

1. Ferdinand de Sossyur Kurs obshey lingvistiki. Trudi po yazikoznaniyu. M."Progress" 1977.46-53 betlar. 2. L.V.SHcherba. Prepodavanie inostrannix yazikov v shkole. M.1974. 3. Zimnyaya «I.A.Psixologicheskie aspekti obucheniya govoreniyu na inostrannom yazo`ke». M.1985 g.

Zarurat uz ifodasini predmetda topadi. Nutq faoliyatining predmeti fikrdir. Fikrning yashash vositasi tildir. Fikrni shakllantirish va ifodalash usuli bu nutqdir. Bir xil fikr turli xil usullar bilan ifodalanishi mumkin. Masalan, fikrni shakllantirish va ifodalash usuli ona tili va chet tillarida bir-biriga mos tushmaydi. CHet tili ta`limida urganilayotgan til tizimi vosita sifatida, nutq fikrni shakllantirish va ifodalash usuli sifatida nutq faoliyati bilan birga ta`limning mustakil ob`ekti hisoblanadi. CHet tili ta`limi orkali o`quvchilarni nutq faoliyatiga o`rgatamiz, bu ta`limning pirovard maqsadi hisoblanadi.

2. CHet til predmetining navbatdagi xususiyati kizik, **predmetning "predmetsizligi"**. YUqorida aytib utilganidek, til fikrni bayon qilish vositasi hisoblanadi. CHet til predmetining boshqa o`quv predmetlaridan farqi shundaki, fikr shu predmetning uzida, shu predmet vositasida ifodalanadi. Boshqacha qilib aytganda, chet til ta`limining ob`ekti nutq faoliyati va uning turlaridir. Biz o`quvchilarni faoliyat orkali shu faoliyatga o`rgatamiz, ya`ni tinglab tushunib tinglab tushunishga, so`zlab so`zlashga, o`qib o`qishga, yozib yozishga o`rgatamiz.

3. **"CHegaranmaganlik"** yoki chet til predmetining navbatdagi xususiyatini tashkil qiladi. Borlik cheksiz, fikr ham unga cheksiz kirib boraveradi. Predmet cheksiz ekan, uni ifodalovchi vosita ham cheksiz bo`lib boraveradi. Har kandy lugat ham tula bo`lishi mumkin emas, chunki so`zlar tushunchalarning ifodasi sifatida yangi paydo bulaveradi. SHuning uchun fikrni shakllantirish va ifodalash usuli ham chegaralanmagan. CHet til o`quv predmeti sifatida "cheksizligiga" til uning katlamlarini cheksiz o`rganish mumkinligi yana bir misol bula oladi.

CHet til predmetini o`qitish jarayoni boshqa predmetlarni o`qitish jarayonidan tubdan farq qiladi. CHet tili predmetining o`qitish jarayoni ikki boskichdan iborat:

- CHet til materialini uzlashtirish.
- Nutq faoliyatining turlarida ko`nikma va malakalarni shakllantirish va qisman avtomatizm darajasiga kutarish.

Til materialini uzlashtirish ikki boskichni uz ichiga olgan murakkab psixologik jarayondir.

1. Konkret til materialini bilan tanishish;
2. Konkret til materialini axborot olish va berish uchun nutq faoliyatida qo`llash.

Birinchi boskich avvalo o`qituvchining o`quvchini til ishorasi bilan tanishtirish jarayonidan iborat. Til tabiatan tovushlar sistemasidan iborat bo`lganligi uchun ham o`quvchilarni avvalo til materialini bilan og`zaki tanishtirish lozim. SHuning uchun ham o`quvchilar ongida til materialining talaffuz obrazini yaratish zarur. Bu obraz til ishoralarining (tovush, tovushlar birikmasi, bugin, so`z,

soʻzlar birikmasi) oʻquvchi tomonidan qayta-qayta tinglash va takrorlash jarayonida shakllanadi. Bu mashqlarni bajarish orkali amalga oshiriladi. Mashqlarsiz til ishoralarini va ular bilan boʻladigan faoliyatni mustaxkam uzlashtirib olish mumkin emas.

Ikkinchi boskich-til materialini nutq faoliyatining turlarida qoʻllash, materialni uzlashtirib olish uchun juda muximdir. CHet til oʻrgatishning pirovard maqsadi til haqidagi bilimlarni uzlashtirib olish emas, balki oʻquvchilarda nutq faoliyatining turlarida koʻnikmalarni shakllantirish va malakalarni ustirishdan iborat. Biroq bu fikr til materiali (qoidalar)ni uzlashtirish kerak emas degan fikrni tasdiklamaydi. Til haqidagi bilimlar oʻquvchiga tilni amaliy egallash jarayonida vosita sifatida yordam beradi. Agar oʻquvchi til materiali haqidagi qoidani bilsa-yu, lyokin ushbu til xodisasini nutq faoliyatining turlarida amaliy qoʻllay olmasa, u xolda chet til darsida maqsadga erishildi deb hisoblab bulmaydi. CHet til oʻqitish jarayonining asosini nutq koʻnikma va malakalarini egallashni tashkil qilishi kerak. Nutq malakalari nutq koʻnikmalaridan, koʻnikmalar esa operatsiyalardan, operatsiyalar harakatlardan iborat.

Nutqiy koʻnikmalarni shakllantirish va malakalarni rivojlantirish muntazam va maqsadga karatilgan mashqlarni bajarishni talab qiladi. Mashqlar odatda ikkiga boʻlinadi:

1. Tilga oid (tayerlov) mashqlar.
2. Nutqqa oid mashqlar.

Birinchi turdagi mashqlar til materialini uzlashtirishga karatilgan boʻlsa, ikkinchilari nutq faoliyatining turlaridan amalda foydalanishni oʻrgatishni nazarda tutadi. Respublikamizda chop etilgan adabietlarda mashqlarni quyidagi turlarga bulinganining guvoxi boʻlish mumkin (J.Jalolov.1996).

1. Shakllantiruvchi mashqlar
2. Rivojlantiruvchi mashqlar
3. Takomillashtiruvchi mashqlar.

Yuqoridagi fikrlarni xulosalab chet til predmetining uziga xos xususiyatlarini quyidagilar deb hisoblash mumkin.

- bilim berish, koʻnikma xosil qilish va malakani rivojlantirish;
- tilni sunʼiy muhitda oʻrgatish;
- taʼlimiy, tarbiyaviy rivojlantiruvchi maqsadlarni amaliy maqsadni ruyobga chikarish jarayonida amalga oshirish;
- ona tilini oʻrgatishga karaganda chet tilni oʻrgatishga sarf-lanadigan vaqtning cheklanganligi, vosita va imko-niyatlarning etarli emasligi;
- tillararo interferentsiyaning mavjudligi;
- predmetning kup kirraliligi;
- predmetning "predmetsizligi";
- predmetning "cheksizligi"
- taʼlim jarayonining muomalaga karatilganligi.

CHET TIL TA'LIMIDAN KO'ZLAGAN MAQSAD

Ushbu masalani yoritish uchun "CHet tilni nima uchun o'qitamiz" degan savolga javob berish kerak. Avvalo maqsad degan atamani aniklab olaylik. Maqsadbu erishish, amalga oshirish uchun kuzda tutilgan narsa, murod, muddao, tasavvurdagi natija. Umumta'lim o'rta maktablarida chet tillarni o'qitishdan quyidagi maqsadlar kuzda tutiladi: amaliy (kommunikativ), ta'limiy (bilim,ilm) rivojlantiruvchi va tarbiyaviy maqsadlar. Barcha ko'zlangan maqsadlar bir-biri bilan uzviy bog'lik bo'lib, bir-birini takozo etadi. Ta'limiy, rivojlantiruvchi va tarbiyaviy maqsadlarga kommunikativ maqsadni amalga oshirish jarayonida erishiladi.

Kommunikativ maqsad o'quvchilardan tilni aloqa (muomala) vositasi sifatida o'rganishni, undan fikr almashish vositasi sifatida foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantirish va rivojlantirishni nazarda tutadi. Barcha psixolog va metodistlar tomonidan nutq faoliyatining quyidagi turlari mavjud ekanligi e'tiroz etiladi:

1. Og'zaki nutq (tinglab tushunish yoki audirovanie va gapirish yoki so'zlash).

2. YOzma nutq (o'qish va yozish).

O'rta maktab o'quvchilaridan chet tili ta'limining birinchi boskichida tinglab tushunish, gapirish va o'qish ko'nikma va malakalarini shakllantirish va rivojlantirish talab qilinadi. SHu bilan birga chet tilidan aloqa vositasi sifatida foydalanish o'rgatiladi. Bu jarayonning ikki tomonini kurib chikish zarur:

Birinchiidan, til vositasida uzgalar axboroti qabul qilinadi. Bu axborot og'zaki yoki yozma ravishda bayon kilinishi mumkin. Og'zaki yoki yozma ravishda bayon qilingan axborotni qabul qilish tildan aloqa vositasi sifatida foydalanishning retseptiv tomonini tashkil qiladi. Retseptiv nutqiy faoliyatga tinglab tushunish va o'qish kiradi.

Ikkinchiidan, til vositasida axborotni og'zaki yoki yozma ravishda bayon qilinadi. Bunday nutqiy faoliyat produktiv nutqiy faoliyat deyiladi. Produktiv nutqiy faoliyatga gapirish va yozish kiradi.

CHet tilni amaliy bilish darajasi turlicha bo'lishi mumkin. Bu akademik L.V.SHcherba 1974 asarlarida yakkol kursatilgan. O'rta maktab o'quvchilarga umumta'lim beradi va bu bilan o'quvchilarda ma'lum kasbni egallashlari uchun asos yaratadi. CHet tillarga kelsak, O.I.Moskal'skaya 1971 ta'kidlaganidek, o'quvchiga mutaxassislik takozo kilganda yoki shaxsiy qiziqish paydo bo'lganda chet tilni o'rganishni davom ettirish uchun asos yaratiladi. Kelajakda o'quvchi uchun nutq faoliyatining kaysi turida mashgul bo'lishini oldindan aytish kiyin. SHuning uchun o'rta maktabda nutq faoliyatining barcha turlarini uzlashtirib olishi kerak. SHunga kura, o'rta maktablarda chet tilni o'rgatishdan ko'zlangan maqsad umumiy qilib uzgalar fikrini tushunish va uz fikrini og'zaki va yozma ravishda bayon kila olishi deb ifodalanishi mumkin. O'rta maktabda chet tilni o'rgatishga sarflanadigan vaqtning cheklanganligi sababli kuyiladigan talablar ham cheklangan bo'lishi lozim. CHEklanganlik quyidagicha amalga oshiriladi:

1. Nutq faoliyatining hamma turlarini ham bir xil darajada rivojlantirish talab kilinmaydi, ya'ni aso-san, og'zaki nutq va o'qish malakalari rivojlantiriladi. YOzish esa nutq faoliyatining tinglab tushunish, gapirish va o'qish turlarini egallashda vosita vazifasini baja-radi.

2. Tematika ham cheklanadi. Ma'lumki, kishi xatto uz ona tilisida ham barcha mavzularda erkin suxbatlasha olmaydi. Mavzular cheksizdir. CHet tiliga kelsak, o'quv-chining imkoniyatlari yana ham cheklanadi. SHuning uch-un o'rta maktablarda chet tilini amaliy egallash nutq faoliyatining tinglab tushunish, gapirish va o'qish tur-larida cheklangan mavzular asosida ko'nikma va mala-kalarni shakllantirish va rivojlantirishni takozo qiladi.

3. Til materiali. Til materiali nutq faoliyatining turlari uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Nutq faoliya-ting leksik va grammatik asosining xajmi cheklanadi O'rta maktab o'quv dasturi bitiruvchilar oldiga quyidagi talablarni qo'yadi:

Og'zaki nutq bo'yicha: bitiruvchilar og'zaki nutqning dialogik va monologik shakllarida aloqa qilish jarayonida o'rta maktab uchun muljallangan dastur materialidan nutq vaziyatida foydalana oladigan bo'lishlari kerak. Kiskasi, chet tilni amaliy o'rganish ushbu til yordamida kerakli axborotni olish va boshqalarga etkazish ma'nosini bildiradi. (Kontsepsiya 1998).

O'qish bo'yicha: bitiruvchilar unchalik murakkab bulmagan ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-ommabop adabiyotni va badiiy adabiyotdan tanlab olingan, adaptatsiya qilingan matnni o'qiy oladigan bo'lishlari kerak. Maktab kursida chet tilni amaliy tarzda o'rganishning yakuniy maqsadi o'qish, ya'ni o'qib axborot olish demakdir. Oralik maqsad esa kuyi sinflarda gapirish (va tinglab tushunish) bilan cheklanadi. (Kontsepsiya 1988).

SHunday qilib, o'rta maktabda o'quvchining kelajakda chet tilni amaliy o'rganishni davom ettirishi uchun asos yaratiladi.

Ta'limiy maqsad o'quvchilarga chet tilini o'rganish jarayonida ta'lim (ilm, bilim) berish bilan amalga oshiriladi. CHet tilni bilish o'quvchilarning filologik tayyorgarligini oshiradi, chet tilni o'rganishga yordam beradi. O'quvchilar o'rganayotgan chet til haqida, ona tili haqida bilim oladilar. Urganilayotgan chet tiliga oid bilimni shartli ravishda quyidagilarga bo'lish mumkin:

1. Fonetik bilim.
2. Leksik bilim
3. Grammatik bilim
4. O'qish texnikasiga oid bilim
5. YOzish texnikasiga oid bilim.

YUqorida kursatilgan bilimlar o'quvchilarga ma'lum tizim va ketma-ketlik asosida beriladi. SHu bilan birga o'quvchilarga ona tili va rus tili haqida ham bilim berib boriladi. Bu bilimlar ma'lum tizimga solinmay, balki ta'lim jarayonida zarurat sezilganda ona tili yoki rus tili xodisalaridan chet tilidagi xodisani osonrok tushuntirish maqsadida foydalaniladi yoki ona tili va rus tili xodisalari chet tili xodisalarini o'rgatish va o'rganish jarayonida xalakit xavfi tugilsa, bu xodisalardan o'quvchilar ogoxlantiriladi. Natijada o'quvchilar yo'l kuyishi mumkin bo'lgan til va nutq xatolarining oldi olinadi. Boshqacha qilib aytganda tillar o'rtasidagi interferentsiya (salbiy ta'sir)ning oldi olinadi. CHet til o'rganish jarayonida

o`quvchilar uz ona tillari haqidagi bilimlarini to`ldirib boradilar, ona tili xodisalarini cho`qurrok tushunadilar. Akademik SHcherbaning fikriga kura, ona tilini o`rganish, ya`ni uning vositalarini baholash, imkoniyatlarini tushunishga fakat chet tillardan birini o`rganish jarayonidagina erishish mumkin. Kiyoslamay turib xech narsani, jumladan ona tilini ham o`rganish mumkin emas. CHet tillarni o`qitish tugri yo`lga kuyilsa, o`quvchi chet til hamda unga muvofiq kelgan ona tili so`zlarida yashiringan ma`nolar haqida fikr yuritadi. Ona tili hamda chet til uchun umumiy bo`lgan, shuningdek fakat ona tili yoki chet tilga xos bo`lgan xodisalar mavjud ekanligini bilib oladi. Fikr bayon etishning turli shakllarini tushunib borish tufayli o`quvchi ona tilini yanada cho`qurrok bilib, uning butun boyliklarini, barcha ifoda vositalarini kadrlashga urganadi.

Rivojlantiruvchi maqsad chet tili o`rganish jarayonida o`quvchilar dunyokarashining kengayib borishi bilan belgilanadi. Bu asosan tili urganilayotgan mamlakatning siyosiy va iktisodiy xayotini, geografiyasini, tarixi, adabiyoti, san`ati, urf-odatlarini va ilmiy-texnika revolyutsiyasi yuto`qlari haqida ma`lumot berish bilan amalga oshiriladi. CHet tilini o`rgatish jarayonida ushbu predmetning ona tili, rus tili, adabiyot, tarix, geografiya va boshqa o`quv predmetlari bilan aloqasiga ham katta ahamiyat beriladi. Predmetlar o`rtasidagi bu aloqa uzaro ta`sir harakteriga ega: bir tomondan boshqa predmetlar orkali egallangan bilim, ko`nikma va malakalar chet tili ta`limiga utadi va ijobiy ta`sir qiladi, uz navbatida chet tili predmeti orkali egallangan bilimlar boshqa predmetlar orkali olingan bilimlarni boyitadi va kengaytiradi. CHet tillarni o`rganish o`quvchilar tafakkurini rivojlantiradi, ularni ijodiy uylashga o`rgatadi, mantiqiy fikrlashni ustiradi, xotirani mustaxkamlaydi, o`quvchida mustakil ishlash malakalarini rivojlantiradi. Xullas o`quvchining akliy, xissiy va motivatsion (ichki intilish) jixatlarini rivojlantirish orkali uning xis-tuygularini kamol toptirish, tashki ta`sirni analizatorlar va sezgilar yordamida idrok etib tushunish va faoliyat darajasini kuchaytirish kabilar rivojlantiruvchi maqsadning moxiyatini ifodalaydi.

Tarbiyaviy maqsad chet til predmetining tarbiyaviy ahamiyati bilan ifodalanadi. CHet til o`rgatish jarayonida o`quvchilarga goyaviy-siyosiy, vatanparvarlik, proletar internatsionalizmi tinchlik dustlik, mexnatga ijodiy munosabat, axlokiy, estetik tarbiya berib boriladi. Tarbiyaviy maqsad ikki yo`l bilan ruyobga chikariladi. (Kontseptsiya 1998):

Til o`rganuvchi ta`lim jarayonida bevosita odob urganadi (shu tilda salomlashish, xayrlashish, tevarak atrofga munosabat bildirish, vaqtni kadrlash va undan tugri foydalanish, xushmuomala bo`lish, she`r va ashulalar aytish, yangi ma`lumotlar olish), ikkinchidan, tinglaydigan, aytiladigan, o`qiladigan va yoziladigan chet til materiallari tarkibida shunday tarbiyaviy jixatlar mavjudki, ular o`quvchini ma`rifat sari etaklaydi, uning ma`naviy extiyojini kondiradi. CHet til ta`limi jarayonida o`quvchilarning goyaviy siyosiy saviyalarini oshirish soxasida bir muncha keng imkoniyatlar mavjud. O`quvchilarga mustakillik goyalarini milliy mafkura, milliy kadriyat, kengrok tushuntirish bilan birga boshqa mamlakatlardagi mexnatkashlarning axvoli, ularning iktisodiy va siyosiy xuquqlari uchun kurashlari konkret misollarda bayon kilinishi va o`quvchilarda karshi propaganda qilish ko`nikma va malakalarini rivojlantirilishi kerak. Ularda goyaga karshi fakat goya,

fikrga karshi fakat fikr, jaxolatga karshi fakat baxsga kirishish, ma`rifat bilan javob berish xissini tarbiyalanishi lozim. Albatta, bu urinda ekstremistik goylarning asl ma`nosi, mazmuni va maqsadini tula ochib berish, mustakillik goylarining afzalliklarini konkret misollarda kursatish yaxshi samara beradi.

CHet tili predmeti orkali o`quvchilarda vatanparvarlik va vatan bilan faxrlanish xissini tarbiyalash asosiy vazifalardan biridir.

3. Axborotning nutqiy -tasviriy (audio - vizual) manbaalari ovozli diafil'm, kinofil'm televideniya.

Nutq faoliyatining har bir turi uchun axborot manbaalari muxim rol' uynaydi, biroq har bir axborot manbaai nutq faoliyatining retsentiv va rasprodo`qtiv turlari uchun turli ahamiyat kasb etadi.

Nutq faoliyatining retsentiv (tinglab tushunish va o'qish) turining maqsadi axborot qabul qilishdan iboratdir. SHunga kura axborot manbaalari nutq faoliyatining retsentiv turi uchun ma'lumot berish vazifasini bajaradi.

Nutq faoliyatining produktiv va prodo`qtiv gapirish va ezish turlari uzgalarga axborot berishdan iboratdir. SHuning uchun ham gapiruvchi tinglovchi uchun ezuvchi esa o'quvchi uchun axborot manbaalari hisoblanadi. Biroq axborotni berish uchun unga ega bo'lish, ya'ni uni tayerlash yoki oldindan qabul qilish kerak. Axborot manbaalari yuqoridagi vazifalarning bajarilishining ta'minlaydi.

Tinglab tushunishga o'rgatishda axborotning quyidagi manbaalari keng qo'llaniladi.

1. Audialingual manbaalar: magnitofon grammplastinka, radio eshittirish.

2. Audiovizual manbaalar:

a). Notexnik: o'qituvchi nutqi

b). Texnik: dia - kinofil'm, televidenie.

Ushbu manbaalarni kiskacha tavsiflaymiz.

O`qituvchi nutqi uzining quyidagi xususiyatlari bilan axborotning boshqa manbaalardan ajralib turadi. Masalan: muomala vaziyatining mavjudligi, gapiruvchi va tinglovchi o`rtasidagi bevosita aloqa, nutqning tinglovchiga karatilganligi, auditoriyaning xususiyatlarini hisobga olish, o`qituvchi shaxsining iroda va emotsional ta`siri, chetdan xalakitning yo`qligi va boshqalar.

O`qituvchi nutqining axborot manbai sifatidagi muxim xususiyatlaridan biri o`qituvchining o`quvchi bilan mulokati tabiiy keng xolatda utishidadir bu fikrni tushinishni osonlashtiradi o`qituvchi va o`quvchi o`rtasidagi bevosita muomala o`qituvchiga o`quvchilar reaksiyasini kuzatish imkonini beradi. Qayta bog`lanishning mavjudligi o`qituvchiga uz axborotini o`quvchilar uchun tushunarli qilib uzgartirishga sharoit yaratadi.

CHET TIL TA'LIMI PRINTSIPLARI

Ta`lim- tarbiya jaraeni didaktik, psixologik, lingvistik, metodik va boshqa konuniyatlarga amal qiladi. Ularning ayrimlari barcha fanlar uchun umumiy bo`lishi mumkin. Bu konuniyatlarni ta`limning umum didaktik printsipti deyiladi. Boshqa konuniyatlar esa ayrim fanlarni o`qitishga xos bo`lishi mumkin, masalan; chet tili ta`limi printsiplari.

Printsipt tushunchasi didaktikada xali tula xal kilinmagan. SHuning uchun ham adabietlarda chet tili o`qitishning 4 ga yakin printsiplari mavjud ekanligining guvoxi bulamiz. Bu printsiptlar turli ma`noning anglatadi: bir grux printsiptlar ta`limi jaraenining konuniyatlarini ifodalasa, ikkinchi grux printsiptlar kaysidir nutq faoliyatining turiga xos bo`lgan konuniyatlarini ifodalaydi, uchinchilari esa til materialining kaysidir bulimiga xos bo`lgan printsiptlardir. Oxirgilarini maxsus printsiptlar deyiladi.

CHet til o`qitish metodikasida ta`limning umum didaktik printsiptlariga kandy amal qilishni kurib chikamiz.

Umumdidaktik printsiptlar ta`lim jaraenini samarali tashkil qilishga, bilimlarning asosini egallashga va ularni xaetga tadbik qilishga karatilgan. Bunday printsiptlarga quyidagilar kiradi: 1) ta`limning tarbiyaviyligi printsipti 2) ta`limning printsipti 3) ta`limning onglilik printsipti 4) ijodiy aktivlik printsipti 5) kurgazmalilik printsipti 6) ilmiylik printsipti 7) sistemalilik printsipti 8) moslik printsipti 9) o`quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish printsipti.

YUqorida kursatilgan printsiptlar bir-biriga boglik va biri ikkinchisini takozo qiladi. Bu printsiptlar ma`lum ma`noda universal harakterga ega. SHuning uchun ham ular o`rta maktabda o`qitiladigan predmetlarning barchasiga xosdir. Biroq ushbu printsiptlarni ma`lum fanga tadbik qilishda predmetning xususiyatini hisobga olish zarur. Ayniksa, chet til ta`limida predmetning uziga xos xususiyatini hisobga olish ta`lim jaraenining muvaffakiyatini belgilaydi.

CHunki chet til ta`limida til haqidagi bilimlarni uzlashtirish asosiy vosita sifatida chegaralangan tematika va til materialini asosida foydalanish ko`nikma va malakalarini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.

YUqorida keltirilgan umumdidaktik printsiptlarning ayrimlarini chet til predmetiga bog`lagan xolda kurib chikamiz.

Ta'limning tarbiyaviyligi printsipti chet tili predmeti orkali o'quvchilarni vatanparvar, interatsionalist qilib tarbiyalashni taqazo qiladi. CHet tili o'quvchilarni Vatanga muxabbat, dustlik, tinchlik uchun kurashchi ruxida tarbiyalash uchun har bir mavzuning tarbiyaviy tomoni ochib berilishi lozim.

Ta'limning xaet bilan bog'lash prntsipti esa o'qituvchidan har bir mavzuni o'quvchilar xaeti bilan bog'lashni talab qiladi. Takomillashtirilgan dasturda mavzuda bu printsiptga talab yanada kuchaytirilgan.

Ta'limning onglilik printsipti turli metodistlar tomonidan turlicha talkin qilinadi. Masalan, akademik L.V.SHchebra va I.V.Raxmanov onglilik prntsipti chet til va ona tili materialini kieslashda va chet til materialini o'quvchilar ona tili xodisalari asosida tushuntirishda namoen bo'ladi deb ta'kidlaydilar.

A.S.SHklyaeva onglilik-nazariyasini ongli ravishda amaliyetga tadbik qilishda deb tushunadi.

G.E.Vedel' onglilik deganda nutq mazmunini tushunish, uzlashtirilgan material asosida til tuzilish haqidagi bilimlarni umulashtirishni nazarda tutadi. Umumiy metodika mualliflarining fikricha, onglilik fakat nutq mazmunini tushunishdangina iborat bulmay, balki til materiallarni uzlashtirish jaraenida uni tushunish va amalda qo'llay olishdan iboratdir.

A.N.Leont'ev onglilik nima uchun o'qish, o'rganish kerakligini tushunganlikda ifodalanadi deb kursatadi. YUqoridagi fikrlardan kurinib turibdiki, ushbu printsiptni tavsiflashda tadjikotchilar turli no'qtai nazardan endashganlar.

SHuni aytish kerakki, onglilik birinchi navbatda o'quvchi faoliyati va uning ta'lim mazmunini uzlashtirib olishdagi faolligi bilan boglikdir. "O'rta maktablarda chet tili o'qitish metodikasi" mualliflari takidlaganidek, onglilik birinchi navbatda o'quvchi faoliyati va uning ta'limi mazmunini uzlashtirib olishdagi faolligi bilan boglikdir. "O'rta maktablarda chet tili o'qitish metodikasi" mualliflari ta'kidlaganidek, onglilik printsipti, o'quvchidan til xodisalari va bu xodisa anglatadigan ma'noni ongli tushunib etishni, nutq faoliyatining turlarida shakllangan ko'nikmalarni ongli ravishda yangi nutq varianti qo'llay olishni taqazo qiladi.

Ijoddiy faollik printsipti o'quvchining dars jaraenida ma'lum fikriy topshirikni bajarishida uz ifodasini topadi.

Ushbu printsipt o'quvchining fakat tashki faolligini (kul kutarishi, takrorlash, diqqat qilish) talab kilmay, balki ularning ichki ijodiy faolligini ham taqazo qiladi. Masalan: tinglab tushunish yoki o'qish jaraenida nutqni tankidiy tinglash yoki matnni tankidiy no'qtai nazardan o'qish, dars jaraenida fakat tinglovchi yoki itoatguy shaxs sifatida ishtirok etmay balki, har bir masalani mustakil xal etishi, urgangan nutq birliklarini yangi nutq vaziyatiga mustakil tadbik kilaoladigan bo'lishi kerak.

Ta'limning YA.A.Kamenskiy olga surilgan kurgazmalilik printsiptiga amal qilish o'rta maktablarda muxim ahamiyatga ega.

CHet tili ta'limi jaraenida kurgazmalilik printsipti E.I.Passov fikricha quyidagicha ta'minlashi mumkin:

Kurgazmalilik printsipli eng avvalo o'qituvchi faoliyatidan boshlanadi. O'qituvchi o'quvchilar uchun har tomonlama namuna bo'lishi lozim. Bundan tashkari,

- a) o'qituvchining chet tilidagi nutq faoliyati;
 - b) o'quvchilarning chet tilidagi nutq faoliyati
 - v) chet tilidagi devoriy gazetalar va stendlar
 - g) radio eshittirishlari
 - d) tugarak ishlari
 - e) mustakil ishlashga muljallangan gramplastinka va magnit lentalar;
 - j) o'qishga muljallangan kushimcha adabietlar;
 - z) chet tilda utkaziladigan turli tadbirlar kurgazmalilikni ta'minlaydi.
- YUqoridagi tadbirlar til muhitini yaratishda asosiy urinni egallaydi.

CHet til muhitini ta'minlovchi dalillarga yana quyidagilarni kiritish mumkin;

- 1) Syujetli rasmlar katori,
- 2) Predmetlar va ular bilan harakat
- 3) Turli maketlar
- 4) dia-video-va kinofil'mlar.

Ta'lim jaraenidagi muvaffakiyat kup jixatdan yuqorida kursatilgan kurgazmalilikni ta'minlovchi tadbirlardan kachon va kanday foydalanishga boglikdir.

Ikkinchi gurux printsiplarga umummetodik printsiplar kiradi. Metodik printsiplar haqida. Z.M.TSvetkova, I.V.Raxmanov, A.A.Mirolyubov, G.E.Vedel', P.B.Gurvich, G.V.Rogova, I.D.Salitra, A.P.Starkov, E.I.Passov asarlarida batafsil fikr baen kilganlar.

Metodik printsiplar ma'lum metodlarga xos bo'lib, ular metodga xos bo'lgan konuniyat va xususiyatlarni tavsiflash uchun muxim omil hisoblanadi. SHuning uchun ham metodning uzgarishi uning yangi printsiplarining paydo bo'lishiga olib keladi. Masalan, tarjima metodlari ta'lim jaraenida o'quvchilar ona tilisini mutlak rad kilganlar, ongli kommunikativ metod esa o'quvchilar ona tili xususiyatlarini hisobga olish printsipigaya tayanadi.

Metodik printsiplarning mezoni sifatida ta'limning maqsadi, sharoiti, mazmuni va boshqalar xizmat qiladi. Ta'lim printsiplarini taxlil qilish bu printsiplarni ta'limning psixologik, lingvistik va ta'lim jaraenini tashkil qilishga oid konuniyatlarni ifodalanishini kursatadi. Biroq bu printsiplar ta'limning lingvistik, psixologik va metodik printsiplari deb emas, balki umummetodik, xususiy va maxsus printsiplar deb yuritiladi.

O'rta maktablarda chet tili o'qitish metodikasi mualliflari ta'limning umummetodik printsiplariga quyidagilarni kiritadilar.

1.CHet til ta'limining muomalaga yunalganligi printsiipi.

2.Ona tili xususiyatlarini hisobga olish printsiipi.

3.CHet tili ta'limining barcha boskichlarida mashqning xo'qmronlik roli printsiipi.

Keyingi paytda chet tili ta'limida kommunikativlik printsiipi keng urin olmokda. E.I. Passovning fikricha, ushbu printsiip ta'lim jaraenini tashkil qilishda tabiiy muomali sharoitini hisobga olishni taqazo qiladi.O'rta maktabda chet tili

ta'limi jaraenini shunday tashkil kilinishi kerakki, natijada o'quvchilar o'quv dasturida ifodalangan cheklangan til materialini, mavzular nutq vaziyati asosida tildan muomala vositasi sifatida foydalanish imkoniyatini ta'min-lovchi ko'nikma va malakalarni egalashlari lozim. Nutq mashqlarini bajarish davomida grammatik jihatdan tugri kurilgan, lyokin nutq vaziyatiga mos kelmaydigan jumladan voz kechish kerak. O'qituvchi va o'quvchi uz nutqida qo'llaydigan har bir jumla tabiiy muomalada ishlatiladigan bo'lishi maqsadga muvofiq.

Ushbu printsiplarni asosiy e'tiborni til materialini uzlashtirishga emas, balki nutq faoliyati turlarida amaliy faoliyat kursatishni talab qiladi.

Til materialini tushuntirilgan paytda ham albatta bu til materialini nutq faoliyatining turlarida qanday qo'llanishi mumkin ekanligini o'quvchilar uzlashtirib olishlari va ularni nutq faoliyatining turlarida amaliy qo'llayoladigan bo'lishlari kerak.

SHuning uchun ham o'quvchilar til materialini muomala jaraenida uzlashtirishlari maqsadga muvofiqdir. Kommunikativlik printsiplari ta'lim jaraenida nutqiy ko'nikmalarni shakllantirishi uchun kommunikativ mashqlardan foydalanishni takozo qiladi. CHet tili ta'limi sharoitida ona tili xususiyatlarini hisobga olish ayniksa milliy maktablarda aloxida e'tibor talab qiladi.

Ma'lumki bu printsiplarni ona tiliga tayanish va ona tilini ta'lim jaraenidan chikarib yuborish printsiplarini keltirish asosida vujudga kelgan.

Agar bevosita metod tarafdorlari ona tilini ta'lim jaraenidan mutlak chikarib tashlash printsiplari amal kilgan bo'lsalar, ongli metod vakillari o'quvchilar ona tiliga tayanish printsiplari asoslanadilar. Akademik L.V.SHcherba fikricha ona tilini sinfdan chikarib yuborishi mumkin, lyokin o'quvchi ongidan chikarib yuborish mumkin emas. SHuning uchun ham o'quvchi uchun yangi bo'lgan til xodisalarini ona tili xodisalari bilan kieslash yo'li orkali o'quvchiga tushuntirish ta'limini muvaffakiyatini belgilaydi.

CHet tili ta'limining barcha boskichlarida mashqning xo'qmrnlik roli printsiplari xozirgi zamon chet til o'qitish metodikasining xususiyatidan kelib chikadi. Ta'limning provard maqsadi o'quvchilarning tilni aloqa vositasi sifatida o'rganishlarini ta'minlashdir. Bu maqsadga nutq faoliyatining turlarida mashq qilish bilan erishiladi, ya'ni o'quvchi gapirishni o'rganish uchun gapirishda, tinglab tushunishni o'rganish uchun o'qishda, ezishni o'rganish uchun ezishda mashq qilish talab qilinadi.

SHunga kura o'quvchiga tushuntirilaetgan har bir til xodisasi nutqda qanday foydalanishi kursatilishi va o'quvchi undan amalda foydalanishi lozim. Mashq ta'limning provard maqsadga olib boruvchi vosita vazifasini bajarilishi kerak.

"O'rta maktablarda chet tili o'qitish metodikasi" mualliflari quyidagi printsiplarni metodikani xususiy printsiplari deb hisoblaydilar. 1) CHet tilni nutq namunalari (modellar) asosida o'rgatish printsiplari. 2) Tilga oid mashqlarning nutqiy amaliy bilan bog'lash printsiplari 3) Nutq faoliyatining asosiy turlarining uzaro bog'likligi printsiplari 4) O'qish va ezishni o'rgatishda og'zaki uzib ketish printsiplari 5) CHet til ta'limida approksimatsiya printsiplari.

Ushbu printsiplarni kiskacha tavsiflaymiz. CHet tilni nutq namunalari asosida o'rgatish xoziri kunda amalda keng tarkalgan. SHuning uchun ham nutq

namunalrini turlicha nomlash xollarini kuzatish mumkin, Masalan; modellar, strukturalar, tipik jumlar, standartlar va boshqalar.

Ushbu printsipt ta'limning mazmunini tanlash bilan uzviy bog'lik. SHunga kura eng kup qo'llaniladigan fonetik, leksik va grammatik material va keng tarkalgan nutqiy namunalr sinchiklab tanlanadi va kontsentrik usulda o'quvchilarga etkaziladi. Ushbu tanlangan material o'quvchilarga og'zaki nutq va o'qish jaraenida, muomila vositasi sifatida foydalanish imkoniyatini berish lozim.

Tilga oid mashqlarni nutqiy amaliyot bilan bog'lash provard natijada tildan muomila vositasi sifatida foydalanish malakasini rivojlantirish uchun xizmat qiladi. O'quvchi til vositasida aloqa qilishni uzlashtirib olishi ya'ni u fonetik, leksik, grammatik materialni hamda ezish va o'qish texnikasini bilishi shart. Biroq bu provard maqsad emas, balki nutqiy tajriba uchun asos, poydevor hisoblanadi. Tilga oid mashqlarni bajarish ta'lim jaraenining birinchi boskichini tashkil qiladi.

SHuning uchun ham chet tilidagi mashqlar tizimi asosan ikki boskichdan nutq faoliyatiga tayerlovchi va nutq faoliyatini rivojlantiruvchi boskichdan iborat. Birinchi gurux mashqlari "til mashqlari", ikkinchi gurux mashqlari "nutq mashqlari" deb ataladi. (I.V.Raxmanov, N.I.Geiz, M.S.II'in, I.M.Bermen va boshqalar).

Tayerlov mashqlari fakat til materialini (fonetik, grammatik, leksik) uzlashtirishni ta'minlovchi mashqlarni uz ichiga olmay, balki fikrni shakllantirish va ifodalash usulini o'rgatuvchi, nutq mexanizmlarini shakllantiruvchi mashqlarni ham uz ichiga oladi.

Til haqidagi nazariy bilimlarni egallash tilni bilishni ta'minlamaydi. Bu bilimlarni nutqiy amaliyotda qo'llashgina nutq faoliyatining turlarida ko'nikma va malakalarini shakllanishi va rivojlanishi uchun imkoniyat yaratadi (B.V.Belyaev).

SHunga kura nutq mashqlari nutq faoliyatining turlaridagi mashqlardan iborat. Nutq mashqlari til materialini uz fikrini baen qilishda va boshqalar fikrini tushunishda, chet tilidan aloqa vositasi sifatida foydalanish sharoitida uzlashtirishni ta'minlashi kerak.

Nutq faoliyati turlarining uzaro bog'likligi printsipti nutq faoliyatining tabiatidan kelib chikadi. Nutq faoliyatining asosiy turlari bo'lgan tinglab tushunish, gapirish, o'qish va ezish bir biri bilan uzviy bog'lik. Ular bir birini taqazo qiladi va tuldiradi. Bu xol quyidagi psixologik konuniyatdan kelib chikadi. Nutq faoliyatining barcha turlari murakkab nutqiy mexanizmlar yordamida amalga oshiriladi. Bu mexanizm fikrlash xotira va oldindan bilib olishdir. (N.I.Jinkin).

CHet tilni o'rganishda mexanizmlarning shakllanmaganligi ta'lim jaraenida kiyinchilik tugdiradi. Nutq faoliyatining barcha mexanizmlari bir xil bo'lsada, ona tilida shakllangan nutq mexanizmi chet til uchun barobar xizmat kilmaydi. Masalan; ta'limning boshlangich boskichida o'quvchilar so'zlarni eslab kolishga kiynaladilar chet tilda kiyinchilik bilan fikrlaydilar, oldindan bilib olishda kiyinchiliklarga duch keladilar.

Nutq faoliyatining barcha turlariga motiv uygotuvchi orientir-tadkikot (analitiko-sintetik) va ijro etuvchi boskichlar xosdir (N.I.Jinkin). Nutq psixologiyasidan ma'lumki, nutq faoliyatining barcha turlariga xos umumiy va bir turiga xos juz'iy psixologik mexanizmlar mavjud. Bu xolat ta'lim jaraenidagi nutq

faoliyatining turlaridan birini egallash, keyingisini egallashni engillashtiradi, biroq nutq faoliyatining ayrim olingan turini aloxida shakllanishini inkor etmaydi. Nutq faoliyati turlarining uzaro bog'likligi printsipti tinglab tushunish, gapirish, o'qish, ezish turlarni anik vaqt ketma-ketligida umumiy til materiali asosida, maxsus mashqlar tizimi yordamida shakllantirishni taqazo qiladi.

O'qishga va ezishga o'rgatishda og'zaki uzib ketish printsipti o'quvchilarning til materiali bilan bir necha bor uchrashuvini ta'minlaydi. Ta'lim jaraenida bir darsda yoki bir kurs davomida og'zaki uzib ketishni kuzatish mumkin.

O'quv faoliyatining approssimatsiya printsipti o'qituvchiga o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalariga chegaralangan talab kuyish xuquqini beradi. O'qituvchi o'quvchilarning muomila jaraeniga xalakit bermaydigan, ya'ni nutqni tushunishga salbiy ta'sir kilmaydigan xatolarni kechirishi mumkin. Amalda o'quvchilarning talaffuz, leksika va grammatikaga oid xatolari, agar ular muomilaga salbiy ta'sir kilmasa, kechirilishi mumkin.

Umummetodik va xususiy printsiplardan tashkari metodikada nutq faoliyatining fakat ayrim turlariga, tilning konkret aspektiga, ta'lim vositalaridan foydalanishga, ta'lim sharoitlariga xos bo'lgan printsiplar ham mavjud. Bunday printsiplar metodikada maxsus printsiplar deb yuritiladi. Maxsus printsiplar ayrim soxa bo'yicha printsiplar tizimini tashkil qiladi. Masalan; o'rta maktabda chet tili grammatikasini o'rgatish printsiplari sistemasi (V.S.Tsetlin) o'rta maktabda chet tili leksikasini o'rgatish printsiplari sistemasi (V.A.Buxbinder) o'rta maktablarda chet tili o'qishga o'rgatish printsiplari sistemasi (S.K.Falomkina) chet tili ta'limida ovozli ezuvlardan foydalanish printsiplari (M.V.Lyaxovitskiy), milliy maktablarda chet tilini o'qitish printsiplari (L.R.Borso'q) va boshqalar.

FONETIK MATERIAL USTIDA ISHLASH

Fonetika va talaffuz tushunchalari bir biridan farq qiladi. Fonetika atamasi quyidagi tushunchalarni ifodalaydi;

1) Tilning tovush tugilishi (tovushlar, tovush birikmalari, urgu, pauza, intonatsiya

2) Tilshunoslikning bulimi sifatida tilning tovush tizimining o'rganuvchi fan. Talaffuz deganda esa quyidagilar nazarda tutiladi;

a) nutq tovushlarini tugri talaffuz qilish.

b) ma'lum til tovushlari sistemasining talaffuz normalari yigindisi.

Talaffuzga o'rgatishda til xodisalarining quyidagi fonetik xususiyatlarini hisobga olish zarur;

1) tilning tovushlar tizimini

2) tilning buginlar tuzilishini

3) so'z urgusini

4) intonatsiyani.

Zamonaviy metodikaning asosiy maqsadi o'quvchilarni tilning tovushlar tuzilishi haqida bilim berish emas, balki tovush va tovush birikmalarini tugri oxang bilan talaffuz qilishga o'rgatishni taqazo qiladi, ya'ni o'quvchilarda fonetik bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirish lozim.

Ma'lumki kishi talaffuz ko'nikma va malakalarini mustaxkam egallagan takdirdagina tildan aloqa vositasi sifatida unumli foydalana oladi. Tilning talaffuz normalarini egallash nutq faoliyatining asosini tashkil qiladi va uning turlari uchun muxim ahamiyatga ega. Agar gapiruvchi fonetik normalarga amal kilmasa, tinglovchi uni emon tushunadi yoki mutlako tushunmaydi.

Agar tinglovchida talaffuz ko'nikma va malakalari shakllanmagan bo'lsa, u nutqni tushunmaydi yoki kiyinchilik bilan tushunadi.

O'qish va ezish jaraenlari uchun ham talaffuz kunima malakalari muxim ahamiyatga egadir. SHuning uchun ham chet tili talaffuziga o'rgatishda nutq faoliyatining psixologik xususiyatlarini hisobga olish zarur.

Psixolog, metodist va fonetistlarning fikrlarini taxlil qilish talaffuzga o'rgatishga turli endashishlar mavjud ekanligini kursatadi. Masalan ba'zi fonetistlar (N.D.Klimov) o'quvchilarni avval artikul'yatsion harakatlarni idrok etishga o'rgatib sungra tovushni talaffuz kildirish kerak degan fikrni olga suradilar. Ushbu yunalish tarafdorlarining fikricha o'quvchilar nutq organlarining harakatini seza olish ularni boshqara olishlari uchun ovozsiz nutq gimnastikasini bajarishlari lozim. Nutq organlarining harakati ushbu gimnastika natijasida avtomatizm darajasiga kutarilishi talab qilinadi. Nutq gimnastikasiga oid mashqlar O.A.Nork va N.D.Klimov darslarida urin olgan. Jumladan; nafas olish va nafas chikarishga, tovush xosil qilish, artikul'yatsiyaga oid, til lablar, jag harakatlariga oid mashqlar ushbu qo'llanmalarda mufassal berilgan. Bunday mashqlarga ogzingizni oching va oynaga karab tilingiz uchuni labingiz buylab avval chapdan unnga, sungra undan aylana harakat kildiring kabilar kiradi.

Talffuzga o'rgatish jaraenidagi ikkinchi endoshish til o'rganishning tabiiy konuniyatiga asoslanadi. Ma'lumki bola ona tilini til muhiti sharoitida taklid qilish yo'li bilan urganadi. U so'zlarni talaffuz kila oladigan bulguncha ularni juda kup marta tinglaydi. Bolada asta syokin nutqni tinglash qobiliyati shakllana boradi. SHunga kura o'quvchilarda avval nutqni tinglash qobiliyatini, sungra talffuz ko'nikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirish tavsiya qilinadi. Biroq shuni hisobga olish kerakki tovushlarni talaffuz qilish so'zlash, tinglash mexanizmlarining uzviy boglik bo'lgan harakatiga asoslanadi. Masalan, biz so'zlarni talaffuz qilish jaraenida, bu so'zlarni eshitamiz, ya'ni tinglash nazorati bilan talaffuz kilamiz. Talaffuziimizdagi xatoni va kamchilikni tinglash nazorati yordamida tugrilaymiz. So'zlarni talaffuz qilish fakat nutqiy harakat emas, balki bir vaqtning uzida tinglash harakati hamdir.

Ikkinchi tomondan, N.I.Jinkin aytganidek, tinglab idrok qilish tinglash nutqiy va kurish sezgilarining hamkorlikdagi faoliyatini takozo qiladi. Nutqiy harakatsiz tinglash mumkin emas.

S.I.Bernshteynning fikricha biz tugri talaffuz kila oladigan tovushlarnigina tugri eshitamiz. Etarli darajada shakllanmagan artikul'yatsion ko'nikma notugri eshitishga olib keladi. Natijada o'quvchi uz talaffuzidagi xatolarni sezmaydi, talaffuzi va o'qituvchi va diktorning numunali nutqi o'rtasidagi farqni anglamaydi. Talaffuzga o'rgatishda o'quvchini aynan shu farqni idrok kila olishga o'rgatish lozim.

Nutq organlarining faoliyati natijasida sifatida akustik signal-tovushlar vujudga keladi. Ushbu tovushlar tinglash orkali nazorat qilinadi. Tugri nazorat kila olish uchun tinglovchining xotirasida urganilaetgan tovushlarning kolipi, na`munasi, etaloni, andozasi shakllanishi lozim.

Agar bu etalon shakllanmagan bo`lsa, yoki kat`iy bulmasa unda o`quvchining talaffuzida xatolar sodir bo`ladi. SHuning uchun ham o`quvchini talaffuzga o`rgatish jaraenida albatta uning nutqini tinglash qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish kerak.

Nutqni tinglash qobiliyati uch komponentdan tashkil topadi.

1. Fonematik (fonologik) tinglash qobiliyati
2. Fonetik tinglash qobiliyati
3. Intonatsion tinglash qobiliyati

Fonematik tinglash qobiliyati nutq tovushlarining fonologik, (fonematik-ma`no ajratuvchi) xususiyatlarini farqlash uchun xizmat qiladi. Masalan: chuziklik-kiskalik, lablanganlik-lablanmaganlik.

Fonetik tinglash qobiliyati esa nutq tovushlarining fonetik (ma`no ajramaydigan) xususiyatlarini farqlash uchun xizmat qiladi. Masalan; portlovchi p, t, k tovushlarining zarb bilan, so`z boshidagi unlilarning kattik zarblanishi bilan talaffuz kilinishi.

Intonatsion tinglash qobiliyati esa jumlaning intonatsion strukturasi farqlash va uni tilning intonatsion kolipi bilan biriktirish, aloqaga kirishdan iboratdir.

O`rta maktablarda asosan o`quvchilarning fonematik va intonatsion tinglash qobiliyatlarini ustirish zarur. CHunki bu qobiliyatlarsiz nutqni tushunish va tugri talaffuz qilish mumkin emas. Ushbu qobiliyatning etarli darajada rivojlanmaganligi o`quvchilar nutqida fonologik va intonatsion xatolarni keltirib chikadi. Masalan: o`quvchilar nemis tili yoki ingliz tilidagi chuziklik va kiskalikni farqlamaydilar, natijada so`zning mazmuni notugri tushuniladi.

O`rta maktablarda talaffuzga o`rgatish approksimatsiya (cheklanganlik) printsiptiga asoslanganligi uchun o`quvchilarning fonetik tinglash qobiliyatini ustirishga aloxida e`tibor berilmaydi. CHunki o`quvchining fonetik xatosi muomila jaraenini tuxtatib kuymaydi.

Endi o`quvchilar talaffuziga kuyiladigan talablar haqida kiskacha tuxtalib utamiz. Ma`lumki o`rta maktablarda chet tilini o`rgatishga sarflanadigan vaqt chegaralangan. Bu chegaralanganlik o`quvchilar talaffuziga kuyiladigan talablarni ham chegaralaydi.

O`rta maktablarda talaffuzni o`rgatish approksimatsiya printsipti asosida ikki tsunalishda;

1. Uzashtirilishi lozim bo`lgan chet tili tovushlari va intonatsiya modellari sonini cheklashda; (fakat o`quvchilar uchun kiyinchilik tugdiradigan materiallar ustida ishlanadi).

2. Ba`zi tovushlarni taxminiy artikul`yatsiya qilishda nomoen bo`ladi. (tovushlarni "ideal" artikul`yatsiyasi qilish talab kilinmaydi).

Ma`lumki, har bir urganilaetgan tovush fonologik va fonetik xususiyatga ega. Tovushning fonologik xususiyati so`z ma`nosiga ta`sir etadi, fonetik belgilar esa

soʻz maʼnosiga taʼsir etmaydi. Talaffuz ustida ishlashda tovushning fonetik xususiyatlari ustida aloxida ishlanmaydi. Chunki ular muomila jaraeniga xal kiluvchi taʼsir kursatmaydi. Agar oʻquvchilar soʻz morfemalar boshida unli tovushni zarb bilan talaffuz kilmasalar, bunga yoʻl kuyish mumkin.

Maksimal approksimatsiyani chet tilining fakt fonema tarkibiga nisbatan talab qilish mumkin. Xozirgi vaqtda fonetistlarning eʼtibori ovoznig asosiy oxangidagi uzgarishlarga karatilgan. Bunday uzgarishlar gapning modal kommunikativ va sintaktik turlarni farq qilish uchun xizmat etadi. Intonemalar deb ataluvchi bu birliklar lingvistik ahamiyati jixatidan fonemalarga uxshaydi. Intonemalardagi maʼnolarni emotsional (ekspressiv) va sintaktik (mantikiy) maʼnolarga boʻlish mumkin. emotsional maʼnolarga masalan xursandlik, xafagarchilik, gazab va shu kabilar kiradi. Ular tillarda deyarli bir xil ifoda etiladi. SHuning uchun chet til oʻqitishda maʼlum intonatsiya bilan ifoda etishning bu tomonini maxsus ravishda oʻrgatishning zarurati yoʻqdir. Fakat nutqning ifodali boʻlishiga, vaziyatga ona tiliga xos boʻlgan shakllarga javob berilishiga harakat qilish lozim.

Intonatsiyaning sintaktik maʼnolariga quyidagilar kiradi;

1. Fikrni baen qilishning yaxlitligi (tugallangan va tugallanmaganligi)
2. Kommunikativ maqsad (axborot, savol, istak)
3. Kommunikativ vazifa (mavzu)

Oʻrta maktablar uchun fonetik minumim (oʻquvchilar uzlashtirib olishlari zarur boʻlgan tovushlar, tovush birikmalari, urgu, intonatsion strukturalar, fonetik qoidalar va fonetik koʻnikma va malakalar) grammatik va leksik minumimlar bilan boglik xolda tanlab olinishi kerak. Grammatik va leksik minumim soʻzlarning shakllarini, maʼnosini va qoʻllanilishini bilib olishni taqazo qiladi. Fonetik minumim esa grammatik va leksik minumimga kiruvchi soʻzlarni va jummalarni til normalari talabiga javob beradigan darajada talaffuz qilishni uz ichiga oladi.

Maʼlumki til materiali minumim produktiv (axborot berish) va retseptiv (axborot qabul qilish) qismlarga ajratiladi.

Produktiv fonetik minumim retseptiv minumimdan quyidagicha farq qiladi:

1. Produktiv fonetik minumimda aproksematsiyaga yoʻl kuyiladi. Retseptivda esa yoʻl kuyilmaydi. Chunki produktiv minumim mazmuniga fonemalarning variantlari ham kiradi.

2. Produktiv fonetik minumim ixtieriy dikkat asosida (namunaga ongli ravishda taklid qilish, artikulʼyatsiya qoidasini uzlashtirish), retseptiv minumim esa ixtiersiz dikkat asosida uzlashtiriladi.

Fonetik minimum quyidagi printsiplar asosida tanlab olinadi.

1. Aloqa qilish extiejariga moslik printsiipi
2. Stilistik printsiip

Maʼlumki talaffuz qilishda ikki uslub;

a) Tulik (akademik), b) Tulik bulmagan (soʻzlashuv) uslubi bor.

Biz oʻquvchilarni tulik uslubga oʻrgatishimiz lozim.

3. Talaffuzning normativligi printsiipi.

Biz oʻquvchilarni adabiy talaffuzga oʻrgatishimiz, dialektlarga yoʻl kuyishimiz kerak.

CHet tili talaffuziga ugatish ikki usul bilan olib boriladi.

1. Taklid qilish (imitatsiya) usuli.

2. Tushuntirish (fonetik, analitik) usuli

Taklid qilish ikki boskichdan iborat; a) nutq namunasini tinglash (o`qituvchidan, magnitafondan gramplastinkadan), b) uni takrorlash. Takrorlash jaraenida o`quvchilar uz talaffuzlarini tinglaetgan nutq namunasiga uxshatishga harakat qiladilar. Bu jaraenning ahamiyati tinglab tushunish uchun ayniksa muximdir.

Talaffuzga o`rgatish jaraenida kaysi usuldan foydalanish auditoriyaga boglik. Buning uchun konkret tilni va o`quvchilar ona tilisini hisobga olish zarur. Talaffuzga o`rgatish usullarning kaysi biridan foydalanishni aniqlash uchun o`rgatilaetgan til tovushlar tizimini o`quvchilar ona tilisi tovushlari tizimi bilan takkoslash zarur.

Ma`lumki chet til va ona tilini qiyosiy o`rganish natijasida chet til tovushlarini ta`lim maqsadlariga muvofiq guruxlarga bo`linadi. Masalan; birinchi guruxga artikulyatsion va akustik jixatdan ona tili tovushlariga yaqin keladigan tovushlar kiritiladi. Ularni o`quvchilarga tanishtirishda maxsus ish olib borilmaydi. O`quvchilar bu tovushlarni yoki diktorga taklid qilish yo`li bilan uzlashtirib oladilar. Ikkinchi guruxga umumiy harakteristkasi bilan ona tili tovushiga uxshash, lyokin ona tili tovushlaridan muxim tomonlari bilan farq qiladigan tovushlar kiradi.

Ushbu tovushlarni o`quvchilar ona tili tovushlariga uxshatib yuboradilar. SHuning uchun ham bu gruppaga kiruvchi tovushlar bilan o`quvchilarni tanishtirishda barcha usullardan, ya`ni artikulyatsiyani tasvirlash, chet tili va ona tili tovushlari bilan takkkoslash, kursatish, taklid qilish va boshqalardan foydalanish zarur.

Uchinchi guruxga ona tilida artikulyatsion va akustik jixatdan uxshashi bulmagan tovushlar kiradi. Bu tovushlar bilan ishlash jaraenida o`quvchilarda yangi artikulyatsion baza yaratish zarur.

Talaffuzga nutq namunalari, jumlar, so`zlar asosida yoki ayrim tovushlar ustida ishlash yo`li bilan o`rgatish mumkin. Zamonaviy metodikada talaffuzga o`rgatish nutq faoliyatiga o`rgatish asosida tashkil kilinishini taqazo kilinishi munosabati bilan nutq namunalari bilan ishlash samarali natija bermokda. Nutq namunalari asosida talaffuzga o`rgatishda ikki yo`ldan foydalanish mumkin. Kaysi yo`lni tanlab olish yuqoridagi tovush guruxlarga boglik.

Birinchi gurux - ona tili tovushlariga yaqin tovushlar bilan ishlaganda ularni nutq namunasi tarkibidan ajratib olinmaydi.

O`quvchilar bu tovushlarni nutq namunasi tarkibida taklid qilish usuli bilan uzlashtirib oladilar.

Ikkinchi va uchinchi guruxlarga mansub bo`lgan - ona tili tovushidan farq qiladigan va ona tilida yo`q bo`lgan tovushlar ustida aloxida ishlash zarur. Konkret tovush o`qituvchi tomonidan talaffuz qilinadi, o`quvchilar bu namunalarni anglab olgach, tovush namunadan ajratib olinadi. Ajratib olingan tovush taxlil qilinadi, artikulyatsiyasi tushuntiriladi. va taklid qilish asosida jiddiy mashq qilinadi. Sungra u yana namunaga kushiladi va mashq qilinadi. Sungra asosiy ish intonatsiya, xususan, jumla urgusi, pauza va oxang ustida olib boriladi. Ikkinchi va

uchinchi guruxlarga mansub tovushlar ustida quyidagicha ish olib boriladi; 1) tovushni namoyish qilish; 2) talaffuz qilish usulini tushuntirish; 3) farqlashga oid mashq bajarish; 4) yangi tovushni o`quvchilar tomonidan talaffuz qilish.

Namoyish qilish o`qituvchi tomonidan konkret tovushni aloxida, so`zda, jumladan anik talaffuz qilishni taqazo qiladi. Bu urinda ikki yo`l mavjud. O`qituvchi aloxida tovushdan jumlagi yoki jumladan aloxida tovushga karab borish mumkin. O`qituvchi jumlaning talaffuz qiladi. Jumladagi tovushni ishtirok etgan so`zlarni taklid bilan talaffuz qiladi, sungra tovushni ajratib, yakka xolda talaffuz qiladi. Tovush talaffuzdagi nutq organlari xolati va harakatini o`quvchilarga tushuntiradi.

Tovushning talaffuz kilinish usulini tushuntirish konkret tovushning xususiyatiga bogliq. O`qituvchi urganilaetgan tovushning talaffuzidagi nutq organlarining xolati va harakatini, bu xolat va harakatning ona tilidagi uxshash tovush bilan chogishtirish kerak. Bu chogishtirish sodda, o`quvchi uchun tushunarli va kiska bo`lishi lozim. Tovushning talaffuzini o`rgatishda kurish, eshitish, motor, sezgilarga asoslanish yaxshi samara beradi.

Farqlashga oid mashq bajarish o`quvchi urganilaetgan tovushning boshqa tovushlardan farqini yaxshi anglab olishga yordam beradi. O`qituvchi urganilaetgan tovushni o`quvchilar kuprok adashtirib qo`yadigan chet til va ona tili tovushlari bilan talaffuz qiladi va farqni kursatadi.

Sungra ushbu tovushlarni o`quvchilar takrorlaydilar. Bu bilan o`quvchilar mashq boskichiga utadilar. Mashqni boshlashdan avval o`qituvchi yana bir marta tovushning xususiyatini eslatib utadi va o`quvchilar xor bo`lib takrorlaydilar. Nixoyat o`quvchilar aloxida bo`lib navbat bilan talaffuz qiladilar.

Bu ishlar tovushdan, bugin, so`z, so`z birikmasi, jumlalarga utish asosida olib boriladi.

Fonetik materialning takdimoti ustida ishlash quyidagi tartibda bo`lishi mumkin:

1. O`qituvchi yangi tovushni so`zda yoki nutq namunasida talaffuz qiladi.

2. YAngi tovushni namunadan ajratib olib, uni yaxlit talaffuz qiladi, doskaga orfografik va transkripsion shaklda ezadi yoki jadvalda namoyish qiladi.

3. Tovushga artikulyatsion harakteristka beradi, zarur bo`lsa ona tilidagi tovush bilan takkoslaydi.

4. Har bir o`quvchi tovushni avval yakkadan, sungra xor bo`lib talaffuz qiladi, tovush mashqlarda mustaxkamlanadi.

5. Magnitofondan shu tovush katnashgan tekst eshittiriladi.

6. Talaffuz ko`nikma va malakalarini shakllantirish va rivojlantirish uchun o`quvchilar tovush ishtirok etgan nutq materialini kup marta takrorlaydilar.

O`quvchilarni intonatsion modellar bilan tanishtirish nutq namunalarini uzlashtirish jaraenida amalga oshiriladi. Bu masalada o`quvchilar uchun jumalarni ritm-intonatsion guruxlarga ajratish, ularni tugri oxang bilan talaffuz qilish, ovozni pauzasiz bir yusinda tushirish yoki kutarish, jumlaning bir butunlik sifatida yaxlit intonatsion struktura bilan talaffuz qilish ayniksa kiyinchilik tugdiradi.

Jumlaning ritm-intonatsion modeli ustida ishlashda tushuntirishni va taklid qilishni muvofiq ravishda birlashtirish yaxshi samara beradi.

O`qituvchining kursatmalari deduktiv yoki induktiv bo`lishi mumkin. Birinchi xolatda o`qituvchi avval bir xil bo`lgan jummalarni anik talaffuz qiladi va misollardagi urgu, oxang va boshqa ekstrolingvistik xodisalarni tushuntiradi. Ikkinchi xolatda o`quvchilarni tegishli qoidaga yo`llaydi.

Talaffuz va malakalarni shakllantirish va rivojlantirish kuni bilan muntazam mashq qilishni talab qiladi.

Talaffuzga o`rgatuvchi mashqlar asosan ikkiga bo`linadi:

1. Tinglash mashqlari, 2. Tinglab takrorlash mashqlari.

Tinglash mashqlari asosan nutqni tinglash qobiliyatini ustirishga karatilgan. Bu mashqlar ijodiy faollik bilan bajarilishi lozim. Buning uchun esa har bir mashq ma`lum topshirik bilan berishi va o`quvchining ixtiersiz dikkati mashq kilinaetgan fonetik xodisaga tortilishi kerak. Bunday mashqlarga quyidagilar misol bo`ladi.

-Quyidagi tovush (so`z) larni tinglang.

-tovushni eshitganingizda kulingizni kutaring;

-juft tovushlarni tinglang. Ikkala tovush bir xil bo`lganda kulingizni kutaring;

-jumlaning tinglang va tovushi necha marta takrorlanganligini ayting;

-jummalarni tinglang, darak, (surok, undov) gapni eshitganingizda kulingizni kutaring;

-jummalarni tinglang va har bir gapda nechtadan sintagma (urgu) borligini aniklang.

Ushbu guruxga kiruvchi mashqlar kurish tayanchi bilan ham bajarilishi mumkin. Quyidagilar bunday mashqlarga misol bula oladi.

-So`zlarni (so`z birikmalarini, jummalarni) tinglang, o`qituvchi (diktors) talaffuz kilgan so`z so`z birikmalari, jummalarning ostiga chizing;

-Jumladagi (tekstdagi) urguli so`zlarning ostiga chizing;

-Jumladagi pauzaning urnini belgilang;

-Jumladagi oxangning kutarilishi (tushunishini) belgilang;

YUqoridagi mashqlarning kupchiligi magnitofon yordamida bajarilishi mumkin. Magnitofon materialni uzgartirmasdan, ovozni kutarmasdan xoxlagancha takrorlash imkonini beradi. Biroq har bir mashq avval o`qituvchi nutqini idrok qilish bilan boshlanib, sungra fonogramma yordamida bajarilsa ko`zlangan maqsadga osonrok erishiladi.

Tinglab takrorlash mashqlari asosan o`quvchilarning talaffuz ko`nikma va malakalarini shakllantirish va rivojlantirishga karatilgan. Bunday mashqlar uchun material sifatida tovushlar, buginlar, so`z, so`z birikmalari, jumlar xizmat qiladi. Bunday mashqlarga o`qituvchi (diktors)ga kushilib tovushlarni (bugin, so`z, so`z birikmasi, jumla) takrorlang, tovush ishtirokidagi so`zlarni talaffuz kiling. O`qituvchi aytgan so`zni jumlagaga kushib takrorlang va boshqalar misol bo`ladi. Ushbu mashqlar kurish tayanchi bilan ham bajarilishi mumkin. Masalan:

-Jummalarni urgu (pauza) bilan o`qing;

-Jumladagi mantik urgusini urnini almashtirib o`qing;

-Jummalarni turli intonatsiya bilan o`qing;

YUqoridagi mashqlardan tashkari talaffuzga o`rgatishda tez aytish, kofiya, she`rlar, dialog, matndan parchalar bilan ishlash ham keng tarkalgan.

Tinglash talaffuz malakalari nutq mashqlarini bajarish jaraenida nazorat qilinadi va xatolar aniklanadi.

O`quvchi nutqidagi talaffuzga oid xatolarni ikkiga bo`lish lozim:

1) fonologik (fonematik) xato va

2) fonetik xato. Fonologik xato nutq mazmuniga ta`sir qiladi, natijada nutq tushunarsiz bo`ladi. SHuning uchun ta`lim jaraenida bunday xatolarga yo`l kuyib bulmaydi.

Fonetik xatolar esa nutq mazmuniga ta`sir kursatmaydi, lyokin chet tilidagi aktsentni keltirib chikaradi. Approktsimatsiya printsipiga kura o`quvchilar nutqidagi fonetik xatolarga yo`l kuyishi mumkin.

GRAMMATIK MATERIAL USTIDA ISHLASH

Ma`lumki, grammatik konuniyatlar asosida so`zlardan so`z birikmalari va jumlar tashkil qilinadi. Bu nutqning tushunarli bo`lishini ta`minlaydi. Grammatika atamasi quyidagi ma`nolarni ifodalaydi; 1) tilning grammatik kurilishini. 2) tilning grammatik kurilishi haqidagi fanni 3) amaliy grammatikani, ya`ni konkret tilga oid bo`lgan grammatik qoidalar, grammatik xodisalarning tavsifi, grammatik ko`nikma va malakalar.

Xozirgi kunda grammatikaga oid bilim, ko`nikma va malakalarning chet tillarni egallashdagi rolini xech kim inkor etmaydi. Grammatik shakl va tuzilmalarni tanish va ma`nosini anglamay turib nutqni tinglab yoki matnni o`qib tushunish mumkin emas. Ularni qo`llashni bilmasdan turib, uz fikrini shakllantirish, og`zaki yoki ezma baen qilishni tasavvur etish kiyin.

Grammatik xodisalar haqida gapirib akademik L.V.SHcherba ajoyib misolni keltiradi; "Glokaya kuzdra shteks budlanula bokra i nudraychi bokrenka". Ushbu jumladagi so`zlar xech kanday ma`noga ega emas, lyokin jumladagi so`zlar rus tili grammatik qoidalar asosida bir biri bilan bog`langan. Jumladagi grammatik xodisalardan quyidagilarni bilib olish mumkin. ---- aya ---a ----o ---- la ---- a i ---- i ---- a . Ushbu jumlaning shakliy grammatik kursatkichlari orkali o`quvchi birinchi so`zning sifat ekanligini va u so`zdan keyin jenskiy roddagi ot turganligini, otni aniklab kelaet- ganligini, ot jenskiy rodga bo`lganligi uchun -a kushimchasini olishi va kesim fe`lning utgan zamon shakli orkali ifodalanganligini, kesimdan keyingi so`z -a kushimchasi orkali tushum kelishigida turganligini va mujskoy roddagi ot ekanligini osonlikcha tasavvur qilishi mumkin.

Urganilaetgan til grammatikasini uzlashtirish nazariy, amaliy va umumta`lim ahamiyatga ega. CHet til grammatikasini o`rganish jaraenida o`quvchilar ona tillariga xos bulmagan lingvistik xodisalarga uchraydilar, yangi grammatik xodisalarni uzlashtirib oladilar, masalan; nemis tilidagi artikl, predlog uzbek tiliga xos emas. Ona tilida mavjud bo`lgan grammatik xodisalarni chet tilida o`rganish ona tili grammatikasini cho`qurrok uzlashtirib olishga yordam beradi.

CHet til grammatikasini uzlashtirish o`quvchilarning tafakkurini rivojlantiradi, kuzatuvchanlik, taxlil qilish qobiliyatini ustiradi va xotira xajmini kengaytiradi. Kiskasi grammatikani o`rganish chet tilni egallashni engillashtiradi va tezlashtiradi.

SHunga karamasdan metodika tarixida grammatikaga turlicha munosabatda bulingan. Masalan; grammatik tarjima metodi tarafdorlari til o`rganish deganda asosan grammatikani egallashni tushunganlar. Grammatika ma`lum tizim va qoidalar asosida urganilgan.

Grammatik tarjima metodlaridan keyin chet tili ta`limiga kirib kelgan tugri metod tarafdorlari esa grammatik qoidalarni umuman rad etganlar. Xatto V.Fietorning tugri metodlar haqidagi kitobchasidagi "Yo`qolsin grammatik qoidalar!" "Grammatik qoidalarga ulim!" degan shoirlarni o`qiymiz.

Ongli qiyosiy metod tarafdorlari grammatikani o`rganishga jiddiy e`tibor berganlar. Grammatika tilning aloxida aspekti sifatida urganilgan. Grammatik qoidalar sistemali ravishda urganilib, ularga oid mashqlar muntazam bajarilgan.

Xozirgi paytda grammatika til aloqasini ta`minlovchi vosita sifatida karaladi. Nutq psixologiyasi tarafdolari grammatikaning nutq faoliyat turlaridangi tutgan urnini mufassal baen kilganlar. Masalan, B.V.Belyaev va V.A.Artemovlarning fikricha til qoidalarini bilmay turib nutqiy harakatlarni uzlashtirib olish mumkin emas. Grammatik qoidalarni o`rganish va tilni amaliy qo`llash birgalikda olib borilishi kerak. I.A.Zimnyaya, A.A.Leont`ev, T.V.Ryabova kabi psixologolar uz tadjikotlarida nutqning shakllanishida uning grammatik jixatdan kurulishi, nutqni idrok qilishda esa grammatik xodisalarni shaklini tanib olish muxim ekanligini kursatdilar.

Grammatik xodisalarni nutq faoliyatining turlarida qo`llay oladigan bo`lishi uchun o`quvchida grammatik ko`nikmalarni shakllantirish kerak. Grammatik ko`nikma deganda grammat`ik xodisani ongli ravishda nutq qoidasini buzmay qo`llay olish tushuniladi. Grammatik ko`nikmalar nutq faoliyati turlarining tarkibiy qismini tashkil qiladi.

Nutq faoliyatining retseptiv va produktiv turlariga xos bo`lgan grammatik ko`nikmalar bir biridan farq qiladi. Gapiirishga xos bo`lgan grammatik ko`nikmalar deganda grammatik xodisalarni xatosiz, avtomatizm darajasiga kutarilgan, muomilaga yunaltirilgan xolda og`zaki nutqda foydalana olish tushuniladi. Bunday ko`nikmalarni shakllanganligi belgisi sifatida grammatik nutqiy speratsiyalarning bajarilishidagi avtomatizm va butunlik, grammatik xodisani qo`llashning situatsiya va kommunikatsiyaga mosligi xizmat qiladi.

Grammatik ko`nikmalarni morfologik va sintaktik ko`nikmalarga ajratiladi. Morfologik ko`nikmalarga og`zaki nutqda artiklni, kelishik kushimchalarini, sifat, fe`l, olmosh va boshqa turkumlarini gaplarda tugri qo`llash va boshqalar tushuniladi. Sintaktik ko`nikmalarga esa gapda so`z tartibini tugri belgilash, nutqda gap turlari- dan tugri foydalanish va boshqalar kiradi.

Ezma nutqni idrok qilish va shakllantirishga asos bo`lgan morfologik va sintaktik ko`nikmalarni shakllanishida ham xuddi og`zaki nutqdagi singari mexanizmlar ishtirok etadi. biroq ularga grafik va orfografik ko`nikmalar kushiladi.

Ezma nutqqa xos bo`lgan ko`nikmalar og`zaki nutq grammatik ko`nikmalaridan quyidagi jixatlari bilan farq qiladi, ya`ni fikrni ezma baen qilish jaraeni og`zaki nutqdan farqli ravishda tuxtash, tekstni qayta kurib chikish, taxlil qilish, to`g`rilash aniqlash tuzatish imkoniyatini beradi.

Nutq faoliyatining retseptiv turlariga xos bo'lgan ko'nikmalar retseptiv grammatik ko'nikmalarni tashkil qiladi. Retseptiv grammatik ko'nikma deganda grammatik xodisalarni og'zaki va ezma tekstni tanib olish va tushunish nazarda tutiladi.

O'rta maktablarda o'quvchilar uzlashtirib olishi zarur bo'lgan grammatik material grammatikaning mazmunini tashkil qiladi. Grammatikaning mazmuniga morfologiya va sintaksisga xos bo'lgan grammatik xodisalar, qoidalar, modellar va namunalar, hamda ushbu grammatik xodisalar bilan bogliq ko'nikma va malakalar kiradi.

CHet tili ta'limiga sarflanadigan nutqning va talablarning chegaralanganligi grammatik materialni tanlab olish zaruriyatini keltirib chikaradi. SHuning uchun ham o'quvchilar birinchi navbatda uzlashtirib olishlari zarur bo'lgan grammatik xodisalar tanlab olinishi zarur. Tanlab olingan grammatik xodisalar grammatik minimumni tashkil qiladi.

Metodikada grammatik minimumni ikki guruxga ajratish qabul qilingan. Birinchi guruxga nutq faoliyatini tinglab tushunish va o'qish turlariga xos bo'lgan grammatik xodisalar kiradi, ularni retseptiv grammatik minimum deyiladi. Ikkinchi guruxga nutq faoliyatining gapirish va ezish turlariga xos bo'lgan grammatik xodisalar kiradi, ularni produktiv grammatik minimum deyiladi.

Grammatik minimum tanlash a) tanlash ob'ekti, b) tanlash manbai, v) nutq faoliyatining turlarini hisobga olish masalarini xal qilish bilan uzviy bogliq.

Grammatik shakl ma'no va tuzilma (struktura tanlash ob'ekti hisoblanadi, masalan Er liest (lessen), Er lauft (laufen). misollari fe'lning hozirgi zamon uchinchi shaxs birlik shaklini ifodalaydi. Biroq yuqoridagi ikkala shakl ham bir ma'noni anglatadi. Tanlash ob'ekti sifatida fakat bir komponentli struktura xizmat kilmay, Balki kun komponentli strukturalar ham xizmat qiladi, masalan, Ein neues Gedicht, ein neuer Text; Er will (darf) im Garten spielen. Tanlash ob'ekti sifida og'zaki nutq uchun til soxiblarining og'zaki nutqi, badiiy asar kaxramonlarining nutqlari xizmat qiladi. Bundan tashkari og'zaki badiiy uslub ham kiradi.

Ezma nutq uchun tanlash manbai sifatida kitobiy uslub, ezma manbalar xizmat qiladi.

SHuni aytish kerakki, og'zaki va ezma nutq uchun tanlangan minimumlardagi grammatik xodisalarning kupchiligi bir biriga mos keladi.

Grammatik minimum ma'lum printsiplar asosida tanlanadi. Grammatik minimumning strukturasiga muvofiq tanlash printsiplari ham retseptiv, ham produktiv minimum uchun aloxida belgialanadi.

Grammatik xodisaning nutq faoliyatini mazkur turida keng tarkalganligi tanlashning umumiy printsiipi hisoblanadi. Retseptiv minimum uchun maxsus printsiip grammatik formaning kup ma'noligidir. Produktiv minimum uchun esa quyidagi maxsus printsiplar tavsiya etiladi; a) shaklning namunaviyligi, b) karshi assotsiatsiyaning yo'qligi, v) sinonimlarning bulmasligi.

SHaklning namunaviyligi deganda, uning etalon (andaza) xizmatini bajara olishi nazarda tutiladi. Bu lugat minimumini taxlil qilish orkali aniklanadi. Masalan, fe'lning Presens shaklini o'rgatish uchun bu zamonning yasalish shakllaridan quyidagilar tanlab olinadi; a) negizidagi e unlisi i ga uzgaradigan

kuchli fe'llar; nehmen, du nummist, or nimmt, b) negizi t yoki d ga tugaydigan kuchsiz fe'llar; arbeiten, melden, senden.

Bunday fe'llar xozirgi zamonda tuslanganda fe'l uzagi bilan shaxsga kushimchalari o'rtasida e orttiriladi. Fe'ning boshqa shakllari lugat minimumida fakat bir necha so'zni tashkil kilganligi uchun grammatik minimumga kirmay koladi va ayrim so'zlar sifatida urganiladi.

Karshi assotsiatsiyaning yo'qligi printsiptini grammatik xodisalarning morfologik xilma-xilligiga nisbatan qo'llash kerak. U grammatik shakl bilan produktiv grammatik minumim doirasidagi so'zlarning konkret guruxi o'rtasida yanada yakinrok aloqa urnatish imkonini beradi. Masalan, sredniy roddagi otlarning kupligi besh usul bilan yasaladi. 1. -er, das Buch - die Buecher, 2. -s, das Werk _ die Werke, 3. -en, das Ohr - die Ohren, 4. - das Fenster - die Fenster, 5. -s, das Kino-die Kinos.

Bu so'z guruxlari bilan ishlaganda har bir so'z guruxiga oid mashqlar bajarilgandan keyin ikkinchisiga utiladi. SHuning uchun produktiv grammatik minimumga aloxida farqlovchi belgilarga ega bo'lgan so'zlarga taaloqli morfologik qoidalarni kiritish mumkin. Aksincha bir biridan ajratib turuvchi belgisi yo'q bo'lgan so'zlarni o'quvchilar edlab olishlari kerak. masalan, das Heft va das Buch so'zlarining bir biridan ajratib turuvchi belgisi yo'q, ikkala so'z ham bir butunli, lyokin ularning kupligi shakli turli kushimchalar yordamida yasaladi.

Das Heft - die Hefte, das Buch - die Bucher.

Sredniy roddagi kup buginli otlarning kuplik shakli e kushimchasi yordamida yasaladi, das Flugzeug - die Flugzeuge, Institut - Institute. Bu qoidani produktiv minimumga kiritish tavsiya etiladi.

Sinonimlarni chikarib tashlash printsipti produktiv minumimga grammatik sinonimlar katoridan fakat birini kiritishni nazarda tutadi. Grammatik sinonimlardan birini tanlab olishda ulardan kaysi birining nutqda keng tarkalganligi asos qilib olinadi. Ich habe in die Schule zu gehen. Ich muv in die Schule gehen. YUqoridagi har ikkala sintaktik shakl ham bir xil ma'noni anglatadi, ya'ni gaplar "Men maktabga borishim kerak" deb tarjima qilinadi.

Nutqda keng tarkalganligi uchun produktiv minimumga ularning ikkinchisi kiritiladi.

Grammatik minimum bilan o'quvchilarni tanishtirish masalasi ushbu minimumni metodik jixatdan kandy tipologiya (turkumga ajratish) qilishga boglik. Grammatik minimumni metodik jixatdan turkumga ajratish kiyinchiliklarni oldindan hisobga olish va bu kiyinchiliklarni bartaraf qilish imkonini beradi. V.S.Tsetlin fikriga kura grammatik materialni uzlashtirish jaraenidagi kiyinchiliklar quyidagilarga boglik. 1) Grammatik xodisaning harakteriga, morfologik shakllarni turli-tumanligiga, fonetik-grammatik jixatdan shakllanishiga, grammatik konstru'qtsiyalarning soni va xususiyatiga, grammatik xodisaning strukturasiga va boshqalarga; 2) uxshash xodisalarning urganilaetgan tilda mavjudligiga (omonimlar, kup xossalik, kup ma'noлик). Bu urindagi keyinchalik ichki interferentsiya bilan boglik. 3) chet tilidagi grammatik xodisalarning ona tili xodisalari bilan yasalish va ma'nosi o'rtasidagi farq va uxshashlikka; Bu tillar o'rtasidagi interferentsiyani keltirib chikaradi. Ikkinchi va uchinchi xoldagi

kiyinchilik nisbiy kiyinchilik hisoblanadi. 4) Grammatik xodisalarni nutqda ishlatilishi va tanib olishda fikriy operatsiyalarning murakkabligiga, soni va xususiyatiga, yuqorida keltirilgan dalillar nutq faoliyatining turlarida grammatik materialni uzlashtirishga turlicha ta'sir qiladi.

Uzbek maktablari uchun yuqoridagi dalillarning uchinchisini hisobga olish muximdir. Uzbek tilining turk tillari guruxiga ingliz, nemis, frantsuz tillarining xind-evropa tillari oilasiga mansubligi til xodisalari o'rtasidagi farqning kattaligiga sabab bo'ladi. Bu esa tillar o'rtasidagi interferentsiyani yanada kuchaytiradi.

CHet tilini o'rganishga ona tilining salbiy ta'siri ayniksa produktiv ko'nikma va namunalarning shakllanishi va rivojlanishida yakkol nomoen bo'ladi. Ona tilining salbiy ta'siri, birinchidan, ona tilidagi chet tiliga xos bulmagan grammatik xodisalarni urganilaetgan tilga kuchirishda (masalan, so'z tartibi, kelishik, artikl, predloglarning qo'llanishi), ikkinchidan, ona tilida uxshashi bulmagan xodisalardan cheklanishda ifodalanadi.

Ona tili va chet til grammatik xodisalarining ma'nosini va kulanilishini takkoslash asosida quyidagi grammatik xodisalarni farqlash mumkin.

1. Ma'no va qo'llanishi jixatdan ikkala tilda ham mos keladigan grammatik xodisalar masalan, sifat darajalari.

2. Ma'no, xajm va qo'llanishi jixatdan ona va chet tillarida mos kelmaydigan grammatik xodisalar, masalan, so'z tartibi, fe'lning xozirgi zamonda tuslanishi, otlarning turlanishi va boshqalar.

3. Fakat chet tilga xos bo'lgan grammatik xodisalar, masalan, artikl', predlog, grammatik rod.

4. Fakat ona tiliga xos bo'lgan grammatik xodisalar.

Uzbek o'quvchilariga uchinchi guruxga oid grammatik xodisalarni tushuntirishda rus tili yordamga keladi. Rus tili ham xind - evropa tillari oilasiga kirganligi uchun kupchilik grammatik xodisalar rus, ingliz, nemis, frantsuz tillariga uxshashdir masalan, grammatik rod predloglar. Bunday xodisalar rus tiliga tayangan xolda tushuncha berish ijobiy natija beradi.

CHet tildagi grammatik materialni turt xil usul bilan takdim etish mumkin. Bu usullar quyidagilar:

1. Induktiv usul.
2. Deduktiv usul.
3. Leksik yo'l bilan.
4. Modellar yordamida.

Induktiv usulni boshqacha qilib misoldan qoidaga utish deyish mumkin. Masalan, o'qituvchi darak gaplarda so'z tartibini tushuntirish uchun doskaga bir necha gapni ezadi. Ich wohne in Namangan. Karl liest ein interessantes Buch. Der schuler geht in die Schule.

O'qituvchi o'quvchilar ishtirokida gaplarning egasi va kesimini topadi va ostiga chizadi. Sungra o'quvchilarga gapning egasi va kesimining nechanchi urinda turibdi? Gapning ikkinchi darajali bulagi-chi ? degan savollarni beradi. Savollarga javob olgandan sung o'qituvchi gaplardagi so'z tarkibini uzgartiradi. In Namangan wohne ich. Ein interessantes Buch liest Karl. In die schuler geht der Schuler. Cungra o'qituvchi o'quvchilarga quyidagi savollar bilan murojat qiladi.

Gap bulaklaridan kaysilarining urni uzgardi? Ushbu gaplarda ega nechanchi urinda turibdi? kesim-chi? ikkinchi daraja- chi bulakchi? Kaysi gap bulagining urni uzgartirilmadi?

Ushbu savollarga konikarli javob olingandan sung o`qituvchi o`quvchilar bilan hamkorlikda quyidagi qoidani keltirib chikaradi. Nemis tilidagi darak gaplarda tugri va teskari so`z tartiblari mavjud. Agar gapda ega kesimdan avval tursa bunday gaplar tugri so`z tartibli, agar ega kesimdan keyin tursa teskari so`z tartibli darak gap deyiladi. Har ikki xolatda ham kesim ikkinchi urinda turadi.

Deduktiv usulga muvofiq avval grammatik qoida baen qilinadi va ushbu roidalar asosida misollar keltiriladi. Masalan, fe`llarning xozirgi zamon shakli fe`l uzagiga shaxs-son kushimchalarining kushilishi bilan yasaladi. ich mach-e, du mach-st, er mach-t; wir mach-en, ihr mach-t, sie mach-en.

Leksik usul bilan tilda kam uchraydigan grammatik xodisalar tushuntiriladi. Bu usulga kura o`quvchilar konkret grammatik xodisalar bilan tanishtiriladi va bu xodisaning tarjimasi, ma`nosi va qo`llanilishi kursatiladi. Masalan, es gibt iborasi "bor" degan ma`noni ifodalaydi. Ushbu ibora bilan qo`llanilgan otlar akkuzativ kelishigida turadi. In der Klasse gibt es einen Tisch, ein Tafel.

Modellar yordamida grammatik xodisani tushuntirish metodikada keng tarkalgan usuldir. Model deganda I.V.Raxmanov urganilaetgan tilning fonetik, leksik va grammatik normalari talablariga javob beradigan shartli ishoralar bilan ifodalangan va muomilaning potentsial, abstrakt, eng kichik birligini nazarda tutadi. SHunday qilib, model deganda til birliklarining shartli ishoralari yordamida ifodalanishini tushunish mumkin.

Sintaktik model asosiga ma`lum jumla strukturasi andoza bo`ladi. Sintaktik model ega va kesim munosabatining shartli ravishda ifodalangan ishoralari hisoblanadi. Masalan, S-Pv; S-Pn; S-Pv-O. Modellarida S-egani, Pv - fe`l-kesimni, O - tuldiruvchini ifodalaydi.

Metodikada model va namuna tushunchalari farqlanadi. Afgar model jumlaning shartli ishoralar bilan abstrakt xolda ifodalasa, namuna ushbu model asosida kurilgan jumla strukturaning strukturasi ifodalaydi. Grammatik namuna deganda ma`lum sintaktik va morfologik xususiyatga ega bo`lgan bir turdagi jumlar tushuniladi. Ta`lim jaraenida modellar astrakt belgilar sifatida emas, balki konkret jumlar tarzida tushuntiriladi. S-Pn, S-P-O, SPA quyidagi jumalarni ifodalaydi. Pater ist grov. Ich lese ein Buch. Er spielt im Garten.

Ta`lim jaraenida modellardan qoidalarsiz foydalanish jumalarni mexanik ravishda edlab olishga olib keladi. Modellar va namunalar grammatik kodalar bilan uygunlashgan xolda foydalanilgandagina ta`lim jaraenida ijobiy natijaga erishiladi.

Grammatik materialning takdimoti quyidagi boskichlarni uz ichiga oladi: a) yangi grammatik materialni tushuntirish, b) tushunganlikni nazorat qilish, v) tanish va ifodalashga oid dastlabki mashqlarni bajarish.

YAngi grammatik materialni tushuntirish jaraenida uning quyidagi uch tomoniga e`tibor berish lozim. 1) Grammatik shakl (forma), 2) grammatik ma`no, 3) grammatik xodisaning qo`llanishi. Quyidagi grammatik shakl bir ma`noni - fe`lning xozirgi zamon uchinchi shaxs ma`nosini ifodalaydi. Er sieht. Er schlaft. Er lauft, Er arbeitet. Er nimmt. Aksincha bir xil grammatik shakl ikki xil ma`noni ham

ifodalashi mumkin. Masalan -en kushimchasi fe`lning noanik shaklini - gehen, fahren, otning kuplik shaklini - die Karte - die Karten, die Uhr - die Uhren ifodalaydi.

Grammatik xodisani nutqda qo`llanishiga ham aloxida e`tibor berish lozim. Masalan, nemis tilida "bormok" ma`nosini bir necha fe`l orkali ifodalanadi. Gehen-pieda bormok, fahren-transport vositasi bilan bormok, reiten-ot minib bormok, fliegen samolyot bilan uchib bormok. Grammatik xodisani tushuntirishda bu xodisalarning shakli, ma`nosi va qo`llanishini baen qilish zarur.

CHet tili grammatik xodisasi bilan ona tili grammatik xodisasi o`rtasidagi farqqa aloxida e`tibor berish kerak. Masalan, Das ist eine Klasse, jumlasini uzbek tilga "Bu sinf" deb tarjima qilinadi. Nemis tilida gap har doim kesim bilan tuziladi. Ushbu gapda kesim vazifasini sein yordamchi fe`li bajaradi. Nemis tilidagi Ich habe einen Kugelschreiber jumlasini uzbek tiliga "Mening sharikli ruchkam bor", deb tarjima qilinadi. Bu gap haben fe`li aloxida olinganda "ega bulmok" deb tarjima qilinadi. YUqoridagi jumalarni so`zma-so`z tarjima qilish anglashilmovchilikka olib keladi.

Tushuntirilgan grammatik xodisani o`quvchilar tomonidan uzlashtirilganligini nazorat qilish ham muxim ahamiyatga ega. Nazorat o`quvchilarga savollar berish va ulardan grammatik qoidalarga misollar keltirishni so`rash yo`li bilan amalga oshiriladi. O`quvchilarning grammatik materialni tushunganliklarini nazorat qilingandan sung dastlabki mashqlar bajariladi. Bu mashqlar yangi grammatik xodisani tanib olish va takrorlash orkali esda saklab kolishni taminlaydi. Psixologlarning fikricha grammatik materialni tushuntirilgandan keyin muddat utmasdan takrorlash materialni 75 foiz eslab kolishni, ma`lum muddat utgandan keyin takrorlash esa materialni 30-35 foiz eslab kolishni ta`minlaydi. SHunga kura har kandy takdimot mashq bilan tuldirilishi lozim.

Ma`lumki chet til grammatikasini egallash o`quvchida ma`lum grammatik ko`nikmalarni shakllantirish va malakalarni rivojlantirishni kuzda tutadi. Ko`nikmalarni shakllantirish va malakalarni rivojlantirish maqsadga yunaltirilgan mashqlarni muntazam bajarish yo`li bilan amalga oshiriladi. Grammatik shakl o`quvchi tomonidan kup marta takrorlangan takdirdagina qisman avtomatizm darajasida egallanadi. Masalan, o`quvchi menda biror narsa bor deya olishi uchun Ich habe degan iborani bilishi va har rodga oid shakllarni kup marta takrorlashi lozim. Bu maqsadda urniga kuyish mashqlaridan foydalanish yaxshi samara beradi. Bu mashqlarda nutq harakati mexanik ravish- da bo`ladi. Masalan, Ich schreibe einen Brief, einen Aufsatz. Ich schreibe ein Diktat. Ich schreibe eine Bekanntmachung.

Grammatik xodisalarning shaklini uzgartirishga oid mashqlar ham grammatik ko`nikmalarni shakllantirishda muxim rol` uynaydi. Bunday mashqlarga fe`l zamonlarini uzlashtirish, darak gaplarni surok gapga, tasdik gaplarni inkor gaplarga aylantirish, gaplarni tugallash va kengaytirish mashqlari kiradi. Bunday mashqlar katoriga savol-javob mashqlarini ham kiritish mumkin. Savol-javob mashqlarining situativ va xaetiy bo`lishi o`quvchilarda qiziqish va faollikni oshiradi. Masalan, modal fe`llarni mustaxkamlash uchun quyidagicha

savol-mashqlaridan foydalanish mumkin. Heute läuft im Filmhaus ein Film. Wollen Sie ins Kino gehen? Ja, wir wollen ins Kino gehen. Ich habe gestern ein interessantes Buch gekauft. Wollen Sie dieses Buch lesen. Ja ich will es lesen.

Produktiv grammatik ko`nikmalarni shakllantirishda asosiy kiyinchiliklar aytiladigan jumlaning maqsadi, kommunikativ yunalganligi, tanlangan so`zlar va so`z ma`nolarining bir-biriga muvofiq keltirishda nomoen bo`ladi. Produktiv grammatik ko`nikmalarni shakllantirish va malakalarni rivojlantirish bir necha boskichdan iborat. Bu boskichlar ko`nikma va malakalarning nutq psixologiyasida baen qilingan shakllanish va rivojlanish konuniyatlariga asoslanadi. Har kanday malakalarni egallash avvalo faoliyatni oddiy harakatlarga ajratish va ularni egallash, oddiy harakatlarni birlashtirish, murakkab faoliyatni bajarishga kirishish va malakalarni rivojlantirish boskichlaridan iborat.

Umumiy metodika avtorlari produktiv grammatik kunimalarni shakllantirish va malakalarni rivojlantirish jaraenida quyidagi boskichlarni farqlash zarurligini ta`kidlaydilar. 1. Tayergarlik boskichi. Bu boskichning vazifasi grammatik xodisalar va ularga oid nutq harakatlari bilan tanishtirishdan iborat.

Masalan:

1. Haben yordamchi fe`lining ishlatilishi bilan tanishtirish.
2. elementar boskich. Bu boskichda ayrim nutq harkatlarini uzlashtirish yuz beradi. Otlar haben yordamchi fe`li bilan qo`llanilganda ularning rodlariga karab artikllar turli shaklda bo`ladi. Masalan, Ich habe ein buch. Ich habe eine Zeitung. Ich habe einen Bleistift.

3. Oddiy harkatlarni qo`shish boskichi. Bu boskich bir kator nutq harakatlarini mustaxkamlashga harakat qilinadi. Agar ikkinchi boskichda ma`lum rodlarga oid otlar aloxida mashq kilinsa, bu boskichda turli rodlarga oid otlar shaxslarda takrorlanadi.

4. Sistemaga solish boskichi. Bu boskida avval uzlashtirilgan nutq harakatlari umumlashtiriladi. Bunday grammatik ko`nikmalar nutq faoliyatida nutq mashqlari orkali malakalar darajasiga kutariladi.

Retseptiv grammatik ko`nikma va malakalar tinglovchi va o`quvchiga so`z shaklini yoki chet til tekstidagi so`zlarning uzaro bog`lanish munosabatlarini anglab olishni taminlaydi. Gapda so`zlarning uzaro bog`lanishi maxsus axborot ishoralari va grammatik kursatkichlar yordamida sodir bo`ladi. Bunday ishora va kursatkichlar tinglovchi va kitobxon uchun muxim ahamiyatga ega. Masalan, Ich brauche noch ein Buch zum Geschenk jumlasidagi quyidagi kursatkichlar so`zlarni bog`lash uchun xizmat qiladi. ----- e ein ---- zum ----, jumladan e - kushimchasi fe`ning xozirgi zamon, birinchi shaxs birlik shaklini, ein noanik artikli uzidan keyin ot birlik shaklida kelishini, zum predlogi uzidan keyingi otning Dativ kelishigida, birlik shaklida ekanligini ifodalaydi. Nutqni og`zaki yoki ezma ravishda idrok qilish jarayonida nutq ishoralarini qabul qilish va anglab etish odatda bir laxzada va avtomatik tarzda sodir bo`ladi.

Retseptiv grammatik ko`nikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirishdan ko`zlangan maqsad axborotni qabul qilish va tushunishga xizmat qiladigan barcha ishora va kursatkichlarni tanitishi va farq qilishga o`rgatishdan iboratdir.

O`qishni o`rgatishda grammatik shakl asosiy rolni uynaydi. Grammatik shaklni farqlay olmay turib ezma nutqni idrok qilish va uning mazmuniga tushunish mumkin emas. Kitobxon jumalarning mazmunini ularning grammatik tuzilishiga karab uzlashtiradi. Grammatik xodisalarning birlamchi ishorasi sifatida ularning shakli nomoen bo`ladi.

O`quvchi matnni o`qib tushuna olishi uchun grammatik xodisalarning shakllarini so`zlarning va jumalarning tashki belgisi sifatida avtomatik ravishda taniy oladigan bo`lishi lozim. SHuning uchun o`qituvchi eng avval o`quvchilarni tekstda shu grammatik belgilarni kurishni, qismlarga ajratishni va ularni muayyan ma`no bilan bog`lashni o`rgatishi kerak. Biroq bu grammatik belgilarni hammasi ham tekstni tushunish uchun bir xil ahamiyatga ega emas. Ma`lum grammatik belgilarni bilish adabiyotni o`qish uchun zarur. Ayrim grammatik xodisalar teksti shu kadar kam uchraydiki, ularni o`quvchilarga o`rgatishga xojat yo`q.

O`qishni o`rgatish jaraenida grammatik xodisalarga e`tiborni karatish quyidagicha amalga oshiriladi. 1. Grammatik xodisaning belgilari o`quvchilarga tushuntiriladi. 2. Tushuntirilgan grammatik xodisani ma`nosi haqida tushuncha beriladi. 3. Mazkur grammatik xodisaning anonim xodisalardan farqi kursatiladi.

Retseptiv grammatik ko`nikmalarni shakllantirishda kumakchi so`zlarni bo`lishi katta ahamiyatga ega.

Bunday so`zlarga artikllar, predloglar, boglovchilar, yuklamalar kiradi. Retseptiv grammatik materialga oid qoidalarni izohlash hamma vaqt kompleksli, qo`llanishi kerak bo`lgan leksika bilan bog`langan bo`lishi lozim. Masalan, Partitsip I fe`lning noanik shakliga d kushimchasini qo`shish bilan yasaladi. Agar partitsip I gapda otdan oldin kelsa aniklovchi, keyin kelsa ravish xoli yoki kesim vazifasini bajaradi. Masalan, Die singenden Studenten gingen vorbei. Die Studenten gingen singend vorbei.

Retseptiv grammatikani tushuntirishda ularning morfologik xususiyatlari (suffikslar, kumakchi f`llar, predloglar, so`z birikmalari) ni sintaktik xususiyatlari (tuzilish belgilari, gapdagi vazifasi, urni) bilan birga kushib olib borish zarur.

Grammatik bilimlarni ko`nikma va malaka darajasiga etkazish o`quvchidan kuplab mashq bajarishni taqazo qiladi. Grammatik ko`nikma va malakalarini shakllantirish va rivojlantirishga oid mashqlar ikki guruxga a) tayyorlov va b) nutq mashqlariga bo`linadi.

Tayerlov mashqlariga asosan grammatik shakllar ustida ishlash mashqlari kiradi. Masalan, so`z turkumlariga oid mashqlar. - Fe`llarni tegishli zamonga kuyib gaplarni kuchiring; - Gaplarni mos kelgan fe`llar bilan tuldiring; - Gaplarni surok shaklida kuchirib ezing; - Namunaga karab gap tuzing; - Ikki sodda gapdan kushma gap tuzing; - Rasmlarga karab savollarga javob bering; - Kursatilgan namuna asosida savollarga javob bering; - Kuchirma gaplarni uzlashtirma gaplarga aylantiring; - Gaplarni majxul darajada ezing ;

Nutq mashqlariga nutq faoliyatini turlarida bajarilgan mashqlar kiradi. Bunday mashqlar nutq malakalarini rivojlantirish uchun xizmat qiladi. - Rasmdagi situatsiyani utgan zamonda tasvirlang. - Tekstni tinglang va kaxramonlarni xulkini baholang;

LEKSIK MATERIAL USTIDA ISHLASH

O`rta maktablarda chet tilni o`rgatishdan ko`zlangan amaliy maqsad o`quvchilarni shu tilda o`quvchilarni shu tilda muomalaga o`rgatishdir. CHet tilda muomala kila olish uchun o`quvchilar so`z boyliklarini egallashlari zarur. Tildagi so`z boyliklarini egallamay turib va tinglab tushunish na gapirish mumkin. Tilni lugat tarkibini egallash o`quvchilarning dunyokarashini kengaytiradi, ularning filologiyaga oid bilimdonligini oshiradi.

Ma`lum tilning lugat tarkibiga kiruvchi so`zlar leksika deyiladi. Leksika tilning doimo rivojlanuvchi elementi hisoblanadi. Ayrim eskirgan so`zlar lugat tarkibidan chikib, yangi so`zlar kushilib turganligi uchun ham har kanday tilning so`z boyligini anik hisobga olish juda murakkab.

Nemis tilida «SHpraxpflge» jurnalini hisobiga kura 300 000 – 400 000 so`z boyligi mavjud. Kishi uzi qo`llaydigan so`zlarga karaganda turt marta kup mikdordagi so`zlarni biladi. Katta yoshdagi ilmi kishilar ona tillarida 6000 dan 10 000 gacha so`z biladilar. Kundalik xayotda, suxbatlarda, xabarlarda kishilar qo`llaydigan leksika evropa tillarida 1500 dan 2500 gacha bo`lgan so`z boyligini tashkil qiladi. Bundan xulosa qilib aytish mumkin, kishilar uz ona tillarida ham chegaralangan mikdordagi leksikadan foydalanadilar.

Til o`rganishga sarflanadigan vaqt kat`iy chegaralangan o`rta maktab sharoitida esa o`quvchilar uzlashtirib olishlari zarur bo`lgan leksika tanlab olishi kerak. Tanlab olingan leksik birliklarni o`quvchilar birinchi navbatda uzlashtirib olishlari lozim. Bu so`z boyligi metodika leksik minimum deb yuritiladi. Leksik minimum tanlash uzok tarixga ega.

Bu soxada birinchi birinchi XVII asrning buyuk chex pedagogi YA.A.Kameniskiy ish olib bordi. U lotin tilini o`rgatish uchun 8000 leksik birlik tanladi. Lyokin bu minimumning xajmi juda katta bo`lib, uning tarkibiga xatto ona tilida ishlatish zarurati bulmagan maxsus atamalar ham kiritilgan edi.

XIX asr metodislari ham leksik minimum tanlash masalalariga uz xissalarini kushdilar. Masalan nemis olimi Karl Mager leksik minimum tanlashda quyidagi printsiplarga asoslanadi: a) avval asl ma`nodagi so`zlar, sungra kuchma ma`noli so`zlar: b) avval tub so`zlar, sungra yasama so`zlar: v) avval konkret so`zlar, sungra abstrakt so`zlar.

Tanlash jarayonida yuqoridagi printsiplarga asoslanish sun`iylikka olib keldi. CHunki shunday yasama va abstrakt so`zlar borki, ular tub va konkret so`zlarga nisbatan kup qo`llanadi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlariga kelib chet tili ta`limiga sarflanadigan vaqtning maksimal kiskartirilishi va o`quvchilarga eng zarur bo`lgan bilim va malakalarni berish zarur degan fikrning olga surish munosabati bilan bir kator lugat minimumlari tuzildi. Bu lugat minimumlari tuzishda so`zning kontekstda kup uchrashi (chastotnost`) asosiy printsipt qilib olindi. Kening, Torpdayk, Morgan kabi metodistlar turli stillarga mansub tekstlarni tanlab olib ulardagi so`zlarni hisoblab chikdilar va eng kup qo`llanilgan so`zlarni lugat minimumga kiritdilar.

Ingliz metodisti Geral`d Pal`mer esa quyidagi printsiplarga asoslanib lugat tuzdi.

1. Soʻzlar birinchi maʼnosiga kura lugatga kiritiladi.
2. Kup soʻz yasash kobilyatiga ega boʻlgan uzak soʻzlar tanlab olinadi.
3. Boshqa soʻzlar bilan munosabatga oson kirishadigan soʻzlar.
4. Kup uchraydigan soʻzlar.

Kurinib turibdiki Palʼmer lugatida yuqoridagi metodistlar asoslangan printsiplarning oxirgi urindan joy olgan.

Lugat minimumi tuzishdagi metodist Ogdenning tutgan yoʻli ham kizikarli. U turli tushunchalarni anglatadigan 850 ta ingliz soʻzini tanlaydi, masalan, usimlik, xayvonlar, narsalar nomlari. Lugat minimumga boshqa soʻzlar yordamida ifodalash mumkin boʻlgan barcha atamalar kiritilmagan. Ushbu lugat mustamlaka xalklar uchun muljallangan. Ogdenning fikricha mustamlaka xalklar ingliz tilida erkin gapirishlari shart emas, ular inglizlarni xizmat doirasida tushunsalar va uz fikrlarini tushuntirolsalar kifoya. Bundan muomalani Ogden fikricha 850 leksik minimum taʼminlaydi.

Leksik minimum tanlash masalalari bilan professor K.A.Ganshina va I.A.Gruzinskayalar shugillandilar.

1948 yilda prof. I.Vraxmanov raxbarligida ishlagan pedagogika fanlar Akademiyasiga karashli taʼlim metodlari instituti xodimlari tomonidan ilmiy asoslangan lugat minimum yaratildi. Lugat minimum oʻrta maktablar uchun muljallangan boʻlib ingliz, frantsuz va nemis tillarida tuzildi. Avvalgi mavjud boʻlgan lugat-minimumlardan farqli ushbu minimumda soʻzlar aktiv produktiv va passiv retseptiv minimumlarga ajratildi. Lugatga 4500 maʼnoga ega boʻlgan 3000 soʻz kiritildi. Lugat mualliflarining fikricha ushbu soʻzlar oʻrtacha soʻqeyinlikdagi orginal adabiyotni oʻqish uchun kifoya. Ushbu ruyxatdan 1000 ta soʻzni (taxminan 1400 maʼno) oʻquvchilar produktiv yoʻl bilan uzlashtirib olishlari lozim, yaʼni oʻquvchilar ushbu soʻzlar yordamida uz fikrlarini bayon kila olsinlar. 1955 yilda ikkinchi lugat minimum tuzildi. Lugat mualliflari I.D.Salitra va I.I.Bogdanova aktiv qoʻllanishga oid soʻzlarni tupladilar. Ular birinchi chop etilgan lugatni taxminan 40% kiskartirdilar. Tanlash asosiga soʻzlarning ijobiy va salbiy maʼnosini aniqlash mezoni kuyildi va lugatga ijobiy maʼnoli soʻzlar kiritildi. 2600 soʻz aktiv qoʻllanish uchun muljallandi.

1960 yilda uchinchi lugat minimum «Nemis tilining kup qoʻllanadigan soʻzlar lugati» nomi bilan (ingliz va frantsuz tillari uchun ham) chop etildi. Bu lugatning minimum 1948 yildagi lugatning qayta ishlanishi natijasida vujudga keldi va lugatga 3000 sum kiritildi. Bu soʻzlardan 1000 tasi aktiv uzlashtirishga muljallandi. Ushbu lugat avvalgi nashridan quyidagilar bilan farq qiladi. Lugatdagi soʻzlar kamaytirildi. Lugatda fakat yaxlit soʻzlar bulmay, balki soʻz birikmalari ham berildi.

Ushbu lugat-minimumi tuzishda quyidagi printsiplar asoslandi.

1. Boshqa soʻzlar bilan bogʻlana olish printsiipi.
2. Stilistik jixatdan cheklanmaslik printsiipi.
3. Semantik printsiip.
4. Soʻz mashq printsiipi.
5. Kup maʼnolilik printsiipi.
6. Nutqda kup qoʻllanish printsiipi.

Mualliflar 1-3 printsiplarni asosiy, kolganlarini esa kushimcha printsiplar deb hisoblaydilar. Lugat tarkibiga kiritilishi kerak bo'lgan so'zlar bog'lana olish (birikish), stilistik va semantik printsiplarning talablariga javob berishi kerak deb hisoblanadi.

Ushbu printsiplarni kiskacha tavsiflaymiz:

1. Boshqa so'zlar bilan bog'lana olishi yoki birikish printsipti. So'zlarning boshqa so'zlar bilan birikishi yoki birikish kobilyati ushbu printsiplarning asosini tashkil qiladi. Agar nemis tilidagi scho'n va schmittreif so'zlarni boshqa so'zlar bilan bog'lana olish yoki birikish kobilyatiga kura solishtirilsa schmittreif so'zining boshqa so'zlar bilan bog'lanish imkoniyati cheklangan. SHunga kura lugat-minimumga scho'n so'zi kiritilgan.

2. Stilistik cheklanmagan printsiptiga kura lugat minimumga stilistik jixatdan neytral bo'lgan va yozma va og'zaki nutqda ham qo'llaniladigan shuningdek teritorial jixatdan cheklanmagan so'zlar kiritilishi lozim.

Masalan: nemis tilida yuz tushunchasini ifodalovchi so'zlardan Gesicht, Fratze va Antlitr lugat minimumga fakat Gesicht kiritiladi.

3. Semantik printsiptiga kura lugat minimumga o'rta maktab programmasida berilgan tematika asosida o'quvchilarga chet tilidagi tekstini o'qish va suxbat olib borish jarayonida kup uchraydigan eng muxim tushunchalarni aks ettiruvchi so'zlar tanlab olinadi.

Masalan, Nagel, Bolzen so'zlaridan lugat minimumga Nagel so'zi kiritilgan.

4. So'z yasash printsipti. Ushbu printsiptiga kura lugat minimumga birinchi navbatda eng kup so'z yasash qobiliyatiga ega bo'lgan so'zlar kiritilgan.

5. Kup ma'nolilik printsiptiga kura lugat-minimumga eng kup ma'noga ega bo'lgan so'zlar kiritilgan. Masalan, Zug so'zi

- 1) tortish,
- 2) harakat,
- 3) poezd,
- 4) yuz ifodasi.

Nutqda qo'llanish printsipti. Ushbu printsiplarning so'zlarning tekstdagi qo'llanish soniga asoslanadi. SHunga kura leksik minimumga o'rta maktablar uchun muljallangan tekstlarda kup uchraydigan so'zlar kiritiladi.

O'rta maktablar uchun tanlangan leksik minimum uch gruppaga bo'linadi.

a) aktiv minimum (produktiv minimum):

b) passiv minimum (retsentiv minimum):

v) potentsial minimum.

Aktiv minimumga o'quvchi uz fikrini og'zaki yoki yozma ravishda bayon qilishda qo'llaydigan so'z boyligi kiritiladi. Ushbu leksik boyligni o'quvchilar produktiv ravishda uzlashtirib olishlari lozim. YA'ni o'quvchilar ushbu so'zlarni a) ifodali o'qiy olishi; b) tugri talaffuz kila olishi; v) ma'nosini darxol tushuna olishi; g) boshqa so'zlar bilan biriktira olishi talab qilinadi. Fakat shundagina o'quvchi ushbu so'zni uzlashtirib oldi deb hisoblash mumkin. Aktiv minimum o'quvchilar so'z boyligining asosini tashkil qiladi.

Passiv minimum deganda og'zaki yoki yozma axborotni qabul qilish uchun xizmat qiladigan so'z boyligi tushuniladi. Bu so'z boyligi o'quvchilarning aktiv

soʻz boyligini tuldiradi. Va retseptiv yoʻl bilan uzlashtirib olinadi. Aktiv va passiv minimum oʻrtasidagi chegara turgan emas. Kishining aktiv minimumga kiruvchi soʻzlar gapirish va yozish jarayonlarida qoʻllanilmasligi passiv minimumga aylanishi yoki aksincha passiv minimumdagi soʻz boyligi mashq yordamida aktiv minimum katoriga kushilishi mumkin. Amalda birinchi xolat osonroq sodir boʻladi, yaʼni aktiv leksik minimum passiv minimumga tezrok aylanadi.

Ona tilidagi aktiv va passiv soʻz boyligining xajmi va tarkibi maʼlumoti, madaniy darajasi, kasbi, qiziqish doirasiga bogʻlik. CHet tilida esa minimular xajmi tilni oʻrganishdan koʻzlangan maqsad va tilni egallash darajasiga bogʻlik. Masalan, oʻrta maktab, chet tilini choʻqur urganadigan sinflar, chet chet tili mutaxassisi bulmagan oliy oʻquv yurtlari, chet tili mutaxassislik sifatida urganiladigan oliy oʻquv-yurtlarida va boshqa oʻquv yurtlarida leksik minimumning xajmi va tarkibi turlichadir. Takomillashtirilgan programma talabiga kura oʻrta maktab oʻquvchilari 850 leksik birlikni produktiv, 1000 leksik birlikni esa retseptiv ravishda uzlashtirib olishlari lozim.

Xozirgi kunda oʻrta maktab chet tili dasturlarida nutq faoliyatining ogʻzaki va oʻqish turlari uchun muljallangan lugat minimum soni turlicha boʻlishligi lozimligi taʼkidlanadi. I.V.Raxmanov ogʻzaki nutq uchun 800-1000, oʻqish uchun esa 2000-3000 leksik birlikni tavsiya qiladi.

Metodik adabiyotda aktiv va passiv minimumdan tashkari potentsial minimum deganda oʻquvchi xali uz tajribasida uchratmagan, lyokin tanlash yoki oʻqish jarayonida taniy oladigan soʻzlar tushuniladi. Bunday soʻzlarga birinchi navbatda ona tilida va rus tilida uzagi bir xil boʻlgan chet tilidagi soʻzlar kiradi. Masalan, atom fakulʼteti, dekan, literatura va boshqalar. Buday soʻzlar tilda taxminan 25% ni tashkil qiladi. Oʻrta maktablar uchun potentsial minimum tanlanmaydi., balki oʻquvchilarda bunday soʻzlarni tushunishga asos tayyorlanadi. Har bir oʻquvchining potentsial minimumi bir-biridan farq qiladi. Potentsial minimumni xajmi oʻquvchini tilni bilish darajasi topkirligi dunyo karashiga bogʻlik.

CHet tili oʻqitish metodikasida leksik minimum tanlash birligi masalasi ham muomiladir. Tanlash birligi haqida turlicha fikrlarning mavjudligi fikrimizga dalil bula oladi. Tornday tanlash birligi qilib grafik soʻzni. G.Palʼmer «Ergon»ni (maʼnoga ega boʻlgan soʻz va soʻz bulaklari), I.D.Salitra oʻquv leksik birlikni, 1947 yilda nashr etilgan lugat minimum avtorlari soʻz tushunchani olganlar. Umumiy metodika mualliflarining fikriga kura tanlash birligi sifatida soʻz maʼnoni olish maqsadga muvofiqdir. Bu nazariy jixatdan kulaylik tugdiradi.

Tanlab olingan lugat minimumi oʻquvchilar tomonidan bir xilda uzlashtirib bulmaydi. Bir soʻzni oʻquvchi oson, ikkinchisini esa kiyin eslab koladi. U uzining talaffuzi oʻquvchida kiyinchilik tugdiradi, ikkinchisini esa oʻquvchi oson talaffuz qiladi. SHuning uchun ham soʻzlarni metodik jixatdan turlarga va guruxlarga ajratish taʼlim jarayoni uchun katta ahamiyatga ega. Avvalo tipologiyalash va guruxlash tushunchalarini fikrlash zarur. Guruxlash deganda soʻzlarni biror belgisiga kura (tematik, tuzilish va b.) birlashtirish tushuniladi. Tipologiya esa soʻzlarni uzlashtirishda paydo boʻladigan kiyinchiliklarni keltirib chikarishi mumkin.

1. Ayrim soʻzlarga xos boʻlgan kiyinchiliklar.

So`zning uzun yoki kiskaligi, konkret yoki abstrakt so`zlar.

2. CHet tili va ona tilio`rtasidagi fikrlar, ma`no va qo`llanishning, mos kelmasligi.

3. CHet tili so`zlari o`rtasidagi fikrlar:

Amonim va omograflar.

Garchi metodistlarning leksikaning metodik tipologiyasi haqidagi fikri bir xil bulmasa ham, aktiv va passiv so`z boyligini uzlashtirishda tugiladigan kiyinchiliklar bir-biridan farq qilishi lozimligi barcha olimlar tomonidan e`tirof etiladi.

Aktiv lugatni uzlashtirib olish jarayonida quyidagi dalillar kiyinchilik tugdiradi. So`zning mustakil va yordamchi ma`noda qo`llanishi, so`zning erkin va erkin bulmagan xolda qo`llanilishi, so`zlarning talaffuz va ma`no jixatdan uxshashligi, gramatik formalar yasash usulining chet tili va ona tilida mos kelmasligi, chet tili va ona tili so`zlarining ma`no jixatdan uxshashligi, ammo shaklan bir-biridan farq qilishi.

Passiv leksikani uzlashtirishga quyidagi kiyinchiliklar xosdir; so`zlarning bir buginligi kup ma`noligi, bir so`zning asosiy va yordamchi ma`noda, tugri va kuchma ma`noda qo`llanilishi, chet tildagi so`zlarning talaffuz jixatdan uxshashligi, chet til so`zlarining onatilidagi so`zlarga, ma`no jixatdan farq kilsa ham shaklan uxshashligi va bu leksik materialni tushuntirishda yuqorida keltirilgan dalillarni hisobga olish zarur.

Ma`lumki nutqning psixologik mexanizmlari uzining shakllanishi va rivojlanish psixologik mexanizmlari uzining shakllanishi va rivojlanish konuniyatlariga ega. Leksik materialni tushuntirish jarayonida o`qituvchi bunday konuniyatlarni hisobga olishi lozim.

Nutq faoliyatida so`z ikki vazifanibajaradi, birinchidan tovushlardan iborat butunlik, ikkinchidan, so`z butunlikni bir bulagi, ya`ni gap bulagi hisoblanadi. So`z ikkinchi vazifasi orkali aloqa jarayonini ta`minlaydi. SHunga kura ta`lim jarayonida so`z avvalo o`quvchiga jumla tarkibida berilishi lozim. Sungra gapdan ajratib olinib aloxida tushuntirilishi mumkin..

Tushuntirish jarayonida hisobga olishi zarur bo`lgan yana bir psixologik konuniyat shundan iboratki, idrok va tanishish jarayonida kanchalik kup sezgi turlari ishtirok etsa, so`z xotirada shunchalik mustaxkam urnashib oladi. Tanishish jarayonida eshitish, motor, kurish idroki ishtirok etishi kerak, ya`ni o`quvchilar so`zni tinglashlari, takrorlarshlari, o`qishlari va yozishlari kerak.

Yangi so`zni o`quvchilarga matnni o`qishdan avval yoki o`qish jarayonida tushuntirish mumkin. Tushuntirish so`zning ma`nosini ochish, fonetik, morfologik, orfografik shaklini va nutqda qo`llash normalarini uz ichiga oladi.

So`z ma`nosini ochishning turli, usullari bor. Bular quyidagilar: predmetli (tashki) kurgazmalilik, til va nutq (ichki) kurgazmaliligi, ona tili va chet tilida izohlash, tarjima.

Predmetni kurgazmalilik chet tilidagi so`zning ma`nosini predmet, harakat, rasm yordamida ochishni nazarda tutadi. Bu usul so`z ma`nosi ona tilining yordamisiz ochish imkonini beradi. SHuni unutmashlik kerakki, bu usul bilan fakat kursatish mumkin bo`lgan konkret predmetlarni so`zlarning ma`nosini ochish

maqsadga muvofiqdir. Abstrak, kup ma'noli sinonim so'zlarning ma'nosini yuqoridagi usul bilan ochish ba'zi tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin.

Til kurgazmaliligi orkali so'zlarning ma'nosi chet tilida ochiladi. Bu urinda kontekst, leksik birliklarni so'z yasashga va etimologiyaga oid taxlil, ta'rif, kiyoslash, internatsional uzaklarga tayanish kabi usullardan foydalaniladi.

Nutq kurgazmaliligi esa so'z ma'nosini ma'lum situatsiya va kontekst yordamida ochishdan iboratdir.

Izohlash deganda chet tili so'zi ifodalayotgan tushunchani chet tili yoki ona tilida kiskacha sharxlash nazarda tutiladi. Bu usul odatda chet tilidagi so'z ma'nosi ona tilidagi so'z ma'nosidan farq kilganda yoki tillardan mavjud bulmaganda qo'llanadi. Realialarning ma'nosini ochishda bu usul yaxshi samara beradi.

Tarjima –bu ma'noni boshqa til vositalari bilan qayta ifodalashdir. Bu usul eng anik, tejamkor hisoblanadi.

YUqorida sanab utilgan semantizatsiya usullari universal harakterga ega emas. Agar konkret so'zning ma'nosini ochishda ushbu usullar kombinatsiyasidan maqsadga muvofiq foydalanilsa bu ta'limning samaradorligini belgilaydi.

Aytib utilgandek har bir so'z fonetik, morfologik va orfografik shaklga ega. Fonetik, morfologik, orfografik taxlil, talaffuzi kiyin tovush va tovush birikmalarini ajratish kup kirrali takrorlash, uxshashlari bilan kiyoslash, tovushlarni so'zga yigish, urguni tugri kuyish va urnini belgilash, talaffuzi va yozilishini avtomatizm darajasiga so'z shakli ustida ishlashni tashkil qiladi. so'zning shakli bilan ishlashdan tashkari ushbu so'z anglatgan ma'no ustida ish olib borish zarur. CHet tili va ona tili so'zlari ma'nosining bir-biriga mos kelish yoki kelmasligiga kura lingvistik adabiyotlarda so'zlar turt guruxga bo'linadi.

- 1) Ikki tilda ham ma'nosi mos keladigan so'zlar;
- 2) Asosiy ma'nosi va ayrim yordamchi ma'nolari mos keladigan so'zlar;
- 3) Asosiy ma'nosi mos keladigan so'zlar;
- 4) Asosiy ma'nosi mos keladigan lyokin yordamchi ma'nosi mos keladigan so'zlar.

Ushbu ob'ektiv farq chet tilidagi so'z ma'nosini tushunishda xalakit berishi yoki yordam berishi mumkin. Masalan birinchi guruxgakiruvchi so'zlar kolganlariga karaganda osonrok uzlashtiradi.

So'zlarning nutqida qo'llanishini o'rgatish bevosita ushbu so'z anglatgan ma'no bilan boglikdir.

So'zni uzlashtirib olish har doim retseptiv faoliyatdan boshlanib, retseptiv-produktiv, produktiv sungra esa so'zni mustakil qo'llash bilan yakunlanadi.

Ma'lumki so'z xakikiy ma'nosini kontekstda anglatadi. SHuning uchun ham yangi so'z ma'lum kontekstda tushuntirilishi va mustaxkamlanishi kerak. So'zning turli kontekstda tushuntirilishi uning ma'nosini qo'llanilishini va boshqa so'zlar bilan birikish imkoniyatlarini yaxshirok uzlashtirishni ta'minlaydi. So'zlarni yaxlit xolda, kontekstdan tashkarida o'rgatish uning tezda esdan chikishiga sabab bo'ladi.

Biroq ta'lim jarayonida so'zlarni kontekstdan ajratib tushuntirishning ahamiyati bor. So'z yakka xolda leksik, grammatik jixatdan taxlil qilinadi. So'zning asosiy ma'nosini o'quvchi kontekstsiz uzlashtirib oladi, kontestda esa

uning boshqa ma`nolarini urganadi. shuning uchun so`z bilan ham yakka xolda, ham kontekstda ishlash maqsadga muvofiqdir.

Ta`limning boshlangich bosqichida aktiv so`z boyligi bilan ishlanadi. Aktiv so`z boyligi til o`rganish uchun asos hisoblanadi. Aktiv minimum nutq faoliyatining gapirish va yozish turlari uchun xizmat qiladi. So`zdan gapirish jarayonida foydalana olish uchun so`zning ma`nosini tanlashni, jummalarni fonetik va grammatik jihatdan tuzishni, avtomatizm darajasiga kurishni ta`minlaydigan darajada mashq qilish zarur. CHunki og`zaki mulokat so`zlarni nutqda tez qo`llay olish malakasini talab qiladi.

YOzish jarayonida esa o`quvchi tuxtash, uylash, eslash, tuzatish imkoniyatlariga ega.

Leksik minimumni gapirish jarayonida qo`llash o`quvchidan chet tili so`zini boshqa so`zlar bilan biriktirishni talab qiladi. Biroq chet tilidagi so`zlarning birikishi ona tilidagidan farq qiladi. SHuning uchun ham o`quvchilarga chet tili so`zining birikish xususiyatlarini tushuntirish lozim. Masalan, «heben» fe`li uzidan keyin kelgan otning akkuzativ kelishigidagi turishini talab qiladi, uzbek tili xususiyatidavn kelib chikib menga kitob kerak jumlasini «ich brauche eim Buch» emas balki «Mir brauche eim Buch» deb notugri tarjima qiladi.

Aktiv leksik minimum bilan ishlash usullari passiv minimum bilan ishlash usullaridan farq qiladi. Passiv minimum tinglab tushunish va o`qish uchun xizmat qiladi. Passiv minimumni uzlashtirish aktiv minimumni uzlashtirish jarayonida bir vaqtning uzida amalga oshiriladi. Tinglab tushunish va o`qish jarayonida so`zlarning ma`nolari ularning talaffuzi va orfografik shakllari bilan indentifikayiyalanadi. Bu jarayon muvaffakiyatli utishi uchun o`quvchilar xotirasida so`zlarning talaffuz va orfografik obrazlarini xosil qilish lozim.

Passiv minimum uchun material sifatida chop etilgan yoki ovozli matn xizmat qiladi. Passiv minimum shunday uzlashtirishi kerakki, o`qish yoki tinglash jarayonida o`quvchi materialni avtomatik ravishda idrok kilaolsin. Passiv minimum uchun muljallangan so`z o`quvchilar uchun fakat bir ma`noda emas, balki boshqa ma`nolari bilan tushuntirilishi lozim. Biroq bu so`zlarning boshqa so`zlar bilan birikish xususiyatlari haqida uzok tuxtalish zarurati yo`q. O`quvchi o`qish va tinglash jarayonida tayyor birikmalarga rupara keladi. SHuning uchun ham fakat o`quvchi ma`nosini mustakil tushunishga kiynaladigan so`z birikmalarini tushuntirish maqsadga muvofiqdir.

O`quvchilarning passiv so`z boyligini orttirish va ularda so`z ma`nosini anglash kobilyatini rivojlantirish so`zning shakl va mazmunini lisoniy taxlil qilishni talab qiladi. Lingvistik taxlil quyidagilarni uz ichiga oladi: so`zni kurish-tinglash birligi sifatida bir butun idrok qilish: so`zni tarkibiy qismlarga ajratish: ajratilgan qismlarni ma`nosini ochish: so`z qismlarini bir butunlikka birlashtirish va so`zning ma`nosini ochish. Masalan, «der Arbeiter» ot bo`lib – ishchi degan ma`noni anglatadi – er suffiksi esa kasb otni yasaydi.

O`quvchilar leksik material bilan tanishganlaridan sung ular bu materialni mashqlar yordamida mustaxkamlaydilar. Har bir so`z og`zaki nutq va o`qish jarayonida retseptiv va produktiv ravishda mashq kilinishi zarur.

Mashqlarni tuzishda quyidagilarga aloxida e'tibor berish lozim: leksik birliklarni tanlash, kiyinchiliklarni metodik jixatdan tiplarga ajratish, ta'lim maqsadiga kura taksimlash, uzok muddatli va kiska muddatli xotira, kurash, eshitish va motor sezgilarining xususiyatlarini hisobga olgan xolda leksikani uzlashtirish boskichlarini belgilash.

Mashqlar quyidagi ketma ketlikda tuziladi. So`z bilan tanishtirish, birlamchi mustaxkamlash, trenirovka va so`zni nutqda mustakil qo'llash.

Leksik mashqlarni uch guruxga bo`lish mumkin:

- 1) Retseptiv mashqlar:
- 2) Produktiv mashqlar:
- 3) Retseptiv - produktiv mashqlar:
 1. Retseptiv mashqlar:

1. Leksik birliklarni tinglab tushunish jarayonida idrok qilish:

So`zni aloxida va gapda 2-3 marta tinglash va uning tovush tarkibini tanish.

- So`zning tovush tarkibini taxlil qilish.
- O`qituvchi nomini atagan predmetlarni kursatish.
- O`qituvchi nomini atagan harakatlarni kursatish.
- Nomi atalgan predmetlarning sxema shaklida rasmini tuzish.
- So`zlarning kandy mavzuga mansubligini aniqlash.
- Jumladagi so`zlarni sonini aniqlash.
- Ikki jumlada qo`llanilgan sinonimlarni ma`nosini tushuntirish.
- So`zlarni jumalarni tinglab tarjima qilish.
- So`zlarni ma`lum belgisiga kura guruxlarga bo`lish (fonetik, grammatik, so`z yasash, alifbo, tematik va b.)

II. So`z ma`nosini kontekstga karab belgilash.

B. Leksik birliklarni o`qish jarayonida idrok qilish.

1. so`zlarni alifbo bo`yicha tartibga solish.
2. So`zlarni harf tarkibini taxlil qilish.
3. So`zda tushirib koldirilgan harflarni tuldirish.
4. Kushma so`zlarni tarkibini qismlarga ajratish.
5. So`zni kaysi so`z turkumiga kirishini aniqlash.
6. Teksdan bir xil uzakli so`zlarni aniqlash.
7. Elementlariga kura (affikslar) so`z ma`nosini aniqlash.
8. So`zlarni ma`lum belgisigak kura guruxlarga ajratish (so`z turkumlari, so`z yasash elementlari, sinonimlar, antonimlar, uzak, tovushlar).
9. Ma`lum so`zlardan kursatilgan mavzuga oidini tanlab olish.
10. Gapdagi yangi so`zlarni ostiga chizish.

II Produktiv mashqlar

1. predmetlarning nomlarini atash.
2. Ma`lum mavzuga oid so`zlarni doskaga yozish.
3. Ma`lum so`zlar bilan namunaga karab gaplar tuzish.
4. Predmetning kaerda turganligi, uning rangini, shaklini, xajmini atash.
5. Rasmni berilgan tayanch iboralar yordamida tasvirlash.

6. Berilgan ob`ektни tasvirlash (komnata, bino, yil fasllar kishining tashki kurinishi va boshqalar).
7. Vaziyatni tasvirlash.
8. Berilgan mavzuga hikoyacha tuzish.
9. Berilgan tayanch iboralardan foydalanib hikoya tuzish.
10. Berilgan mavzuda insho yozish.

III. Retseptiv – produktiv mashqlar:

1. o`qituvchi yoki diktorga karab aloxida so`zlarni, so`z birikmalarini jumllarini takrorlash (bir o`quvchi yoki xor bo`lib).
2. Berilgan uzak yoki affikslar asosida so`zlar yasash.
3. Gapda qo`llanilgan yangi so`zning antonimini atash.
4. So`zlarni aytib turilgan yozib olish.
5. Ma`lum so`z bilan birikishi mumkin bo`lgan so`zlarni atash.
6. Gap bulaklarini berilganlari bilan almashtirish.
7. Gaplarni kengaytirish.
8. Tekstdan yangi so`zlarni yozib olish.
9. Osti chizilgan so`zlarga savol kuyish.
10. Tinglangan hikoyaga reja tuzish.

TINGLAB TUSHUNISHNI O`RGATISH

Ma`lumki og`zaki nutq tinglab tushunish (audirovaniye) va gapirish (so`zlash) jarayonidan iborat. 1960 yillargacha o`rta maktablarda nutqni tinglab tushunishni aloxida o`rgatilmagan edi. O`qituvchilar o`quvchilarga chet tilda gapirishni o`rgatilsa ular chet tilidagi nutqni tinglab tushunaveradilar degan fikrda edilar. Amalda esa o`rta maktab bitiruvchilari chet tilidagi nutqni tinglab tushunishga kiynalar yoki butunlay tushunmas edilar. SHuning uchun ham 1960 yildan boshlab barcha metodist, psixolog va lingvistlar o`quvchilarga tinglab tushunishni maxsus o`rgatish kerak degan xulosaga keldilar.

Ma`lumki tinglab tushunish nutq faoliyatining retseptiv-axborot qabul qilish turiga kiradi. Nutq faoliyatining ushbu turisiz til vositasida muomala sodir bulmaydi. Bundan tashkari ma`lum tilni o`rgatish jarayoni o`quvchilarga til materialini auditiv usul bilan takdim qilishni taqazo qiladi. Bu bilan o`quvchilar ongida til birliklarining (bugin, so`z, so`z birikmalari, jumla) tovush timsollari shakllantiriladi. Bu jarayonda tinglab tushunish til materialini esda saklash uchun vosita bo`lib xizmat qiladi.

Tinglab tushunish nutq faoliyatining turi sifatida uz ob`ekti, predmeti va maxsuliga ega (Zimnyaya I.A.).

Boshqa kishining nutqi tinglab tushunishning ob`ekti bo`lib xizmat qiladi. Ushbu nutqning mazmuni tinglab tushunishning predmetini tashkil qiladi. Tinglash jarayonida xosil bo`lgan tinglovchining fikr muloxazalari tinglab tushunishning maxsuli bo`lib hisoblanadi. Tinglovchi nutqning mazmunini tushunishi yoki tushunmasligi mumkin. Bu tinglab tushunish faoliyatining natijasidir.

Tinglab tushunish nutq faoliyatining o`qish va gapirish turlari bilan yakindan aloqada. SHu jixatdan nutq faoliyati turlarining uxshashlik va fikrlovchi xususiyatlari mavjud. Bular quyidagilar bo`lishi mumkin.

Tinglab tushunish va o`qish axborot qabul qilishga karatilganligi uchun ham nutq faoliyatining retseptiv turlariga kiradi. Nutq faoliyatining bu turi uchun oldindan bilish (faraz qilish) umumiy mexanizm hisoblanadi.

SHunga karamasdan tinglab tushunish va o`qish faoliyat sifatida kup jixatlari bilan bir-biridan farq qiladi. O`qish jarayonida asosiy analizator sifatida kurish, tinglab tushunishda esa eshitish sezgilari xizmat qiladi. Birinchi xolatda vizual, ikkinchi xolatda esa akustik signallar qabul qilinadi. Akustik signallarni qabul qilish vizual signallarni qabul qilishga nisbatan murakkabrok, bunga sabab akustik signallarning takrorlanmasligidir. Kitobxon xoxlasa tuxtashi, kaytib o`qishi, lugatga murojat qilishi mumkin. Nutq materiali sifatida tinglab tushunish uchun og`zaki nutq, o`qish uchun esa yozma nutq xizmat qiladi. Tinglovchi uchun urgu, intonatsiya, pauza, takrorlash, ritorik savollar, kitobxon uchun esa, tinish belgilari, sarlovxalar, sxema, tablitsa, rasmlar tayanch bo`lib xizmat qiladi.

Endi tinglab tushunishning gapirishga bo`lgan munosabatini kurib chikaylik.

Tinglab tushunish va gapirish bir-biri bilan uzviy boglik. Lyokin ularni farqlab turuvchi xususiyatlar ham mavjud. Tinglab tushunish jarayonida bosh rolni eshitish analizatori, motor va kurish analizatorlari esa yordamchi vazifani bajaradi. Gapirish jarayonida esa asosiy vazifani motor analizatorlar bajaradi. SHu jixatdan tinglab tushunish retseptsiya, gapirish esa reprodo`qtsiya bilan boglik.

Nutqni tinglab tushunish har xil vaziyatda utishi mumkin.

Masalan, suxbatdosh bilan bevosita muloqotda, o`quv mashgulotlarida, teatrd, radio eshitishda, telefon orkali suxbatlashganda va xokazo.

O`rta maktab oldida ancha oddiy bevosita muomala jarayonida o`qituvchining o`quvchiga yoki sinfga karatilgan yoki magnit lentasiga yozib olingan maishiy turmush mavzusidagi nutqini tushunish ko`nikmasini shakllantirish vazifasi turadi.

Agar o`quvchi axborotni eshitib, uning umumiy mazmunini hamda ayrim muxim detallarini bilib olsa, u tekstni tushunib oldi deb hisoblash mumkin. Har bir so`zni, so`z birikmasini va gapni tushunish shart qilib kuyilmaydi. Tinglab tushunish uchun kerak bo`lgan til materiali minimumi o`quvchi qo`llay oladigan til materiali minimumi mikdoriga tugri keladi. SHunday qilib, o`rta maktabda tinglab tushunishni o`rgatish uchun muljallangan mavzular va til materiali kat`iy chegaralangandir.

Jumladan, IV-V- sinflarda o`quvchilar og`zaki ishlangan material asosida tuzilgan hikoyalarni tushuna oladigan bo`lishlari talab qilinadi. V-sinfdan boshlab o`quvchilarga tinglab tushunish uchun ayrim notanish so`zlari bo`lgan tekstlar beriladi. O`quvchilar tinglashi kerak bo`lgan tekstlarning xajmi sinfdan-sinfga 0,5-1 minutga orttirib boriladi.

VI sinf o`quvchilari o`qituvchining magnit lentasiga yozib olingan o`rtacha tezlikdagi nutqini tinglab tushuna oladigan bo`lishlari kerak. Bu nutq IY-VI sinf materiali asosida kurilishi va 1 foiz notanish so`zni kamrab olgan tekstlardan iborat bo`lishi lozim. Axborotning xajmi 1,5 minutga muljallangan bo`lishi kuzda tutiladi.

VII sinf o`quvchilari o`qituvchining o`rtacha tezlikda yozib olingan IV-VII sinf materiali asosida tuzilgan, 2 foiz notanish so`zi bo`lgan nutqini tinglab tushuna oladigan bo`lishlari kerak. Nutqning davomiyligi 2 minutga muljallanadi.

VIII-IX sinflarda o`quvchilar IV-VIII sinflar dasturi talabi asosida tuzilgan axborotni tinglab tushuna oladigan bo`lishlari talab qilinadi.

O`quv dasturi talablarini jiddiy o`rganish shuni kursatadiki, bu talablar kiyomiga etkazib ishlanmagan. Dastur talablarida juda kup mavxumliklar mavjud. Bu mavxumliklar oydinlashtirishi zarur. CHet til o`qituvchilari esa ushbu talablarga ijodiy yondoshishlari kerak.

O`quv dasturi talablarini muvaffakiyatli amalga oshirish uchun o`rta maktab o`qituvchilari tinglab tushunishning psixologik mexanizmlari va ularning xususiyatlari haqida mo`qammal ma`lumotga ega bo`lishlari lozim.

Tinglab tushunish uchun quyidagi psixologik mexanizmlar xizmat qiladi: nutqni tinglash qobiliyati, diqqat, uzok muddatli va kiska muddatli xotira, oldindan faraz qilish va fikrlash (mushoxada qilish, faxmiga etish, tushunib etish). Ushbu mexanizmlarni kiskacha kurib chikaylik.

Nutqni tinglash qobiliyati quyidagi komponentlardan iborat:

- a) fonematik tinglash qobiliyati,
- b) fonetik tinglash qobiliyati,
- v) intonatsion tinglash qobiliyati.

Fonematik tinglash qobiliyati fonemalarning fonologik (ma`no ajratuvchi) xususiyatlarini fikrlash uchun xizmat qiladi. Natijada tinglovchi soat so`zini satt so`zidan [a] unlisining chuziklik yoki kiskalik belgisi orkali fikrlaydi.

Fonetik tinglash qobiliyati esa nutq tovushlarining fonetik (ma`no ajratmaydigan) xususiyatlarini farqlash uchun xizmat qiladi. Nutq tovushlarining fonetik xususiyatlarini farqlay olmaslik va natijada ifodalay olmaslik aktsentni keltirib chikaradi.

Intonatsion tinglash qobiliyati jumlaning intonatsion strukturasi farqlash uchun xizmat qiladi.

Nutqni tinglash qobiliyati har bir tilni o`rganishda aloxida shakllantiriladi va rivojlantiriladi. O`quvchining o`rganayotgan tiliga xos bo`lgan tinglash qobiliyatini shakllantirish uning ona tili xususiyatlariga boglik.

Tinglab tushunish jarayonida diqqat muxim urin tutadi. O`quvchilar nutqni ona tilida tinglagan paytda ularning diqqati asosan nutqning mazmuniga karatilgan bo`ladi. CHet tildagi nutqni tinglab tushunish esa o`quvchilardan diqqatni nutq mazmuni va shakliga karatishlarini takozo qiladi. O`quvchilarni tinglab tushunishga o`rgatish pirovard natijada ularda nutqning mazmun va shaklini bab-barobar idrok qilish ko`nikma va malakalarini shakllanishi va rivojlanishida uz ifodasini topadi. Bunday ko`nikma va malakalar maxsus mashqlar yordamida shakllantiriladi va rivojlantiriladi. SHakl va mazmunni bab-barobar idrok qilish asta-syokin, boskichma-boskich amalga oshiriladi. O`quvchilar avval shaklga e`tibor beriladigan tayyorlov mashqlarini bajaradilar. Asta-syokin mazmunga e`tibor orttirib boriladi, ya`ni o`quvchilar nutq mashqlarini bajaradilar.

Nutqni tinglab tushunish chegaralangan vaqt sharoitida sodir bo`ladi. Vaqtning kiskaligi va nutqni qabul qilishning qaytarilmasligi nutqni idrok qilishni

va tushunishni kiyinlashtiradi. Bu esa dikkatni, mushoxada qilishni va tinglashga asoslagan xotiraning faol ishlashini talab qiladi..

Tinglab tushunish mexanizmlarining eng muximlaridan yana biri bo'lgan xotira ikki turdan iborat: a) uzok muddatli, b) kiska muddatli (operativ) xotira. Uzok muddatli xotirada kishining barcha soxaga oid bilimlari saklanadi. Tinglab tushunish jarayonida fonema va so'zlarni tanib olish, jumla tuzilishi va ma'nosini tushunish uzok muddatli xotiraga boglik. Agar tinglovchini uzok muddatli xotirasida til haqida va tinglayotgan axborot soxasida kancha kup tajriba va bilim saklagan bo'lsa u nutqning mazmunini shuncha tularok va cho'qurrok tushunadi.

Kiska muddatli xotira tinglovchining avvalgi tajribasiga bevosita boglik emas. U bevosita muomala jarayonida idrok ob'ekti sifatida ketma-ket sodir bo'lgan akustik signallarni esda saklash uchun xizmat qiladi.

Signallarning ketma-ketligi analiz va sintez jarayonini murakkablashtiradi. So'zni tanib olish uchun tinglovchi so'zdagi tovushlar ketma-ketligini eslab kolishi kerak. Bu vazifani kiska muddatli xotira bajaradi, ya'ni operativ xotirada endigina qabul qilingan nutq birliklari, so'zlar, jumla, bir necha jumla, bir butun xabar, axborotni tinglovchi tushunib etgunicha saklanadi.

Tinglab tushunishni o'rgatish jarayonida kiska muddatli xotira zimmasiga ortikcha «yuk» kuyish tushunish jarayoniga salbiy ta'sir kursatadi. Kiska muddatli xotiraning xajmi ingliz psixologi Dj.Miller tomonidan 7 ± 2 birlik deb aniklangan. SHunga muvofiq tinglab tushunishga o'rgatish jarayonida kiska muddatli xotirani rivojlantirishga muljallangan mashqlar xajmi 9 nutq birligidan oshmasligi kerak. Agar o'quvchilarning ona tili va chet tildagi kiska muddatli xotiralarining rivojlanish darajasini kiyoslansa ularning chet tildagi kiska muddatli xotirasi kam rivojlanganligi kuzatiladi. Kiska muddatli xotiraning chet tilda etarlicha rivojlanmaganligi tinglab tushunish jarayonida jummalarni va okibatda tekst mazmunini tushunmaslikka olib keladi. O'quvchilarning uzok muddatli va kiska muddatli xotirasi maxsus mashqlar yordamida rivojlantiriladi.

Tinglab tushunish jarayonida oldindan faraz qilish mexanizmining faoliyati ham juda katta rol' uynaydi. Oldindan faraz qilish kup jixatdan tinglovchining filologik tajribasiga boglik. Bunday tajriba til materiallarini kup marta tinglash jarayonida orttiriladi. Tinglovchi nutq materialining shakli, hamda mazmunini faraz qilishi mumkin. U so'zning bir qismini, so'zni, so'z birikmasini, jumlaning bir qismini, xabarning yakunini, butun bir xabarni oldindan faraz qilishi mumkin. Oldindan faraz qilish mexanizmining faoliyati nutqni tushunish tulikligi va butunligini ta'minlaydi.

Ushbu mexanizmning rivojlanganligi chet tildagi nutqni tinglab tushunishni osonlashtiradi va nutqni bir vaqtni uzida tushunishni ta'minlaydi. Oldindan faraz qilish mexanizmi quyidagi mashqlar yordamida rivojlantiriladi: birliklarini tugallash, tekstning boshlangich qismini tinglash va gap nima haqida ketishini aniqlash, tekstning sarlovasini eshitish va gap nima haqida ekanligini aniqlash va boshqalar.

CHet tildagi nutqni tinglab tushunish jarayoni tinglangan nutq birliklarini tanishdangina iborat bulmay, balki tinglovchi eshitgan jummalarni miyasida qayta ishlashi ham kerak. Tinglash jarayonida idrok qilingan signallar qayta kodlanishi,

ya'ni eshitilgan so'zlar-tinglovchining uz so'zlari bilan almashish jarayonidan utishi zarur.

Bu idrok qilingan materialni mushoxada qilishdan iboratdir. N.I.Jinkin fikricha, bir til birligini ikkinchisi bilan almashtirish ekvivalentli almashtirishni tashkil qiladi.

CHet tildagi nutqni tinglab tushunish jarayonida bu psixik jarayon chet tildagi so'z va shu so'zning tinglovchi ongidagi timsoli o'rtasida bevosita aloqaning yo'qligi sababli syokin utadi. O'quvchilarda chet tildagi nutqni tinglab tushunish jarayonida mushoxada qilish mexanizmi ham etarli darajada rivojlanmagan. Ushbu mexanizmni rivojlantirish uchun ma'lum mashqlarni bajarish maqsadga muvofiqdir.

Masalan, tinglangan materialni kiskacha bayon qilish, tinglangan jumla yoki tekstni kiskartirish, tinglangan tekstning mazmunini bir-necha jumla bilan ifodalash va boshqalar.

Tinglab tushunish jarayonining muvaffakiyatli utishi uchun tinglovchi ma'lum kiyinchiliklarni bartaraf qilishi lozim. Bu kiyinchiliklar quyidagilar.

1. Tinglovchining individual-yosh xususiyatlari bilan boglik bo'lgan kiyinchiliklar.

2. Tinglab tushunish sharoitlari bilan boglik bo'lgan kiyinchiliklar.

3. Lingvistik kiyinchiliklar.

Tinglovchining individual yosh xususiyatlari bilan boglik bo'lgan kiyinchiliklarga quyidagilar kiradi: Tinglovchining nutqni tinglash qobiliyati /fonematik va intonatsion/ ning rivojlanish darajasi; xotirasining rivojlanish darajasi; diqqatining tinglayotgan ob'ektga tuplay olish qobiliyati; oldindan faraz kila olish; mushoxada qilish; ona tilidagi nutqni tinglash ko'nikma ko'nikma va malakalarini chet tiliga kuchira olish; tinglayotgan matn mazmuniga tezda kira olish; tinglovchining biror axborotni bilib olishga bo'lgan extiyoji; bilib olishga intilish; tinglovchi kuygan maqsad va boshqalar.

O'qituvchi tinglab tushunish jarayonini tashkil qilishda albatta yuqoridagi dalillarni hisobga olishi va o'quvchilar bilimi va yoshiga mos bo'lgan audiotekstlardan foydalanishi zarur. SHuning uchun ham o'quvchilarni tinglab tushunishga tayyorlash jarayonida yuqoridagi xususiyatlarni shakllantirish va rivojlantirishga oid mashqlar bajarilishi lozim. Bunday mashqlar dastlab o'quvchi uchun tanish va uning bilim darajasiga mos bo'lgan sodda til materiallari asosida bajariladi. Masalan, fonematik tinglash qobiliyatini rivojlantirish uchun quyidagi mashqlarni bajarishdan boshlash maqsadga muvofiq: quyidagi juft so'zlarni tinglang, agar ular bir xil bo'lsa daftaringizga «+» ikki xil bo'lsa «-» belgilarini kuying.

Tinglab tushunish sharoiti bilan boglik bo'lgan kiyinchiliklar quyidagilar:

Axborotdagi nutq tezligi, iboratning takrorlanish soni, axborot eshittirishdagi tayanchlar va boshqalar.

Ma'lumki nutq tez yoki syokin bo'lishi mumkin. Odatda tinglovchi uchun chet elliklar tez gapiradiganga uxshab tuyuladi. Bunga sabab tinglovchi eshitayotgan nutqni ichki nutqida takrorlashga ulgurmaydi. Natijada tinglayotgan kishi uchun nutq tushunarsiz va tez bo'lib tuyuladi. Nutq tezligi deganda ma'lum

vaqt birligidagi, soʻz, bugin va pauzalar nazarda tutiladi. Biroq nutq tezligi kup jixatdan temaga, gapiruvchining individual xususiyatlariga, kayfiyati va boshqalarga boglik.

SHunga karamasdan ingliz, nemis va frantsuz tillaridagi nutqning oʻrtacha tezligi taxminan bir minutda 250 bugin deb hisoblanadi. Taʼlim jarayonida nutq birligini buginlar bilan emas, balki soʻzlar bilan belgilash maqsadga muvofiqdir. Lyokin chet til oʻqituvchilari soʻzlarning uzun-kiskaligini eʼtiborga olgan xolda turli tillarda har minutda talaffuz qilinadigan soʻzlar soni bir-biriga mos kelmasligini hisobga olishlari lozim.

B.A.Benediktov utkazgan tadkikotlarga muvofiq rus, frantsuz, nemis va ingliz tillarida minutiga talaffuz qilinadigan soʻz va buginlar soni quyidagilar.

Nutq tezligi darajasi	Rus tili		Frantsuz tili		Nemis tili		Ingliz tili	
	soʻz	bugin	soʻz	bugin	soʻz	bugin	soʻz	bugin
kuyi tezlik	80	182	119	191	90	162	117	173
oʻrtacha tezlik	100	228	148	238	113	205	146	216
yuqori tezlik	124	283	184	295	140	252	181	268

Oʻquvchilar tinglab tushunishga oʻrgatishni kaysi tezlik bilan boshlash kerak degan savolga metodistlar turiga javob beradilar. Ayrim metodistlarning fikricha, boshlangich taʼlim kuyi tezlik bilan boshlanib, sungra tezlik orttirib borilishi kerak. Boshqalari esa nutq tezligi boshlangich taʼlimdan boshlab oʻrtacha boʻlishi va har minutda 200-250 buginni tashkil qilish maqsadga muvofiq. Nutq tezligini soʻzlarni shoshmasdan talaffuz qilish yoki pauzalarni uzaytirish yoʻli bilan pasaytirish mumkin. Bunday pauzalar tinglovchiga oldindan faraz qilish imkoniyatini orttiradi, ichki nutqda takrorlab ulgurish uchun sharoit yaratadi, nutq mazmunini mushoxada qilishga sharoitni yaxshilaydi.

Maʼlumki kishilarning nutq tezligi bir-biridan farq qiladi. SHuning uchun ham oʻquvchilarni fakat oʻqituvchi nutqini tinglashga emas balki boshqa kishilar nutqini ham tinglashga oʻrgatish zarur. Bu urinda ketma-ketlik oʻqituvchi nutqi, uning magnitofonga yozib olingan nutqi va uzgalar nutqi tarzida boʻlish maqsadga muvofiqdir.

Har bir tinglovchi uchun nutqning tezligi uning ona tilisidagi nutq tezligiga mos boʻlgandagina optimal boʻladi. SHuni hisobga olish zarurki, oʻquvchini ona tilisidagi nutq tezligidan ortik boʻlgan chet tildagi nutq tezligiga oʻrgatish real emas.

Oʻquvchilarni tinglab tushunishga oʻrgatish uchun muljallangan auditekstning xajmi kancha boʻlishi va necha marta eshittirilishi kerak degan savol ham muximdir.

Auditekstning xajmi birinchi navbatda taʼlim boskichiga, materialning murakkabligiga, axborot manbalariga va mashqning bajarilish urniga boglik.

Audiotekst tanlashda quyidagi talablarga amal qilish zarur:

1. Tekstlar goyaviy tarbiyaviy kimmatga ega boʻlishi;
2. Oʻquvchilarning yoshiga, ularning ona tili va chet tildagi nutq tajribasiga mos tushishi;

3. O`quvchida qiziqish uygotadigan masalani yoritishi;
4. Anik, sodda va mantikan tugri kurulishi;
5. Nutqning turli shakllarini (monolog, dialog va monolog-dialog) kamrab olishi;
6. Birinchi shaxs tilidan yozilmasligi (ta`limning boshlangich boskichida kiyinchilik tugdiradi);
7. Kushimcha axborot elementlari (kirish so`zlar, takrorlashlar, sinonimlar, boglovchi so`zlar va boshqalar) kup bulmasligi kerak.

O`quvchilar dikkatining ma`lum ob`ektga karatilish vaqti cheklangan.

SHuni hisobga olgan xolda fonolaboratoriyalardagi tinglash mashgulotlari 15 minutdan oshmasligi maqsadga muvofiqdir.

Fonomaterialni necha marta eshittirish kerak degan savolga javob berish ham muximdir.

Psixolingvistik tadkikotlar natijasiga kura fonogrammani eshittirish soni tinglab tushunishga sezilarli ta`sir kursatadi, masalan axborotni takroriy eshittirish tushunishi 16, 5 % ga yaxshilaydi, uchinchi marta eshittirish esa ikkinchisiga karaganda 12, 7 % ga oshiradi, keyingi eshittirishlar tushunishga sezilarli ta`sir kursatmaydi.

Axborotni eshittirish soni mashqni bajarish urni va o`quvchilarning tilni egallash darajasiga boglik. O`quvchilar fonokabinetlarda axborotni mustakil tinglaganlarida uch martagacha eshittirishlari yaxshi natija beradi, biroq har safar mashq talabi uzgarib turishi zarur. Masalan, axborotni tinglang va vokea nima haqidaligini aniklang: axborotni ting va vokea sodir bulayotgan joyni aniklang; axborotni tinglang va vokeaning zamonini aniklang. Tekstdagi tilga oid ma`lum kiyinchiliklar bo`lganda yoki eshitgan axborotni qayta hikoya qilib berish talab qilinganda axborotni ikki marta eshittirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Tinglab tushunish jarayonidagi tayanchlarni shartli ravishda a) auditiv va b) vizual turlarga bo`lish mumkin.

Auditiv tayanch vazifasini nutq intonatsiyasi, ritm, pauza, jumladagi mantik urgusi, kirish so`zlar, takrorlash, ritorik savollar, nutqiy shtamplar bajaradi.

Vizual tayanchlar sifatida so`zlovchini kurinishi, imo-ishoratlari, yuz ifodasi, tekstdagi so`zlarning ostiga chizish, maxsus harflar, rang, sxema, rasmlar, sarlavxalar va boshqalar xizmat qiladi.

Tinglash jarayonida auditiv tayanchlarga vizual tayanchlarning kushilishi matn mazmunini tushunishni osonlashtiradi, xotiraning "yukini" engillashtiradi. Ushbu tayanchlar matn mazmunini qayta hikoya qilib berishda axborotning tulaligini ta`minlash uchun xizmat qiladi.

Tinglovchi so`zlovchini kurib turishi yoki kurmasligi mumkin. Birinchi xolatni bevosita, ikkinchi xolatni esa masofali tinglab tushunish deyiladi. Birinchi xolat ikkinchisiga karaganda tinglovchi uchun birmuncha kulay hisoblanadi. Masofali tinglab tushunishga magnitafon, radio eshittirishni tinglash kiradi. YUqoridagilarni hisobga olgan xolda o`quvchilarni tinglab tushunishga o`rgatish so`zlovchini kurib turgan xolatdan boshlanishi maqsadga muvofiqdir.

Tinglovchi fakat psixologik kiyinchiliklarga duch kelmay, balki lingvistik kiyinchiliklarga ham uchraydi. Lingvistik kiyinchiliklar urganilayotgan tilga karab

turli xil bo`ladi. Masalan, nemis tilida kushma so`zlarning kupligi va so`zlarning uzunligi kiyinchilik tugdiradi, ingliz tilida umumiy uzakka ega bo`lgan so`zlarni tinglab tushunish kiyin hisoblanadi.

Biroq barcha tillarda tinglab tushunish uchun kiyinchilik tugdiradigan umumiy xolatni ham kuzatish mumkin. Umumiylik quyidagicha: 1. So`z uzunligi: kiska so`zlar uzun so`zlarga nisbatan kiyinrok tinglab tushuniladi. Chunki kushma so`zlarni tinglab tushunish jarayonida tinglovchi faraz qilish imkoniyatiga kuproq ega. Tinglovchi tinglab tushunish uchun optimal bo`lgan so`zlar 3-5 buginli so`zlar hisoblanadi.

Jumla uzunligi: Tinglovchi tushunishi uchun kulay bo`lgan jumlar soni 7 ± 2 bo`lishi maqsadga muvofiq.

Abstrakt va konkret ma`noga ega bo`lgan so`zlar: Garchi konkret so`zlar eslab kolish uchun kulay bo`lsa ham tinglab tushunish uchun bunday so`zlar bir-biridan katta farq kilmaydi.

Kup ma`noli so`zlarni tinglab tushunish kiyinchilik tugdiradi.

So`z turkumlari: Nutqda eng kup qo`llaniladigan so`z turkumlariga fe`l va predloglar kiradi. Predlog va boglovchilar kup ma`noli bo`lganligi uchun ham tinglab tushunishda jiddiy kiyinchilik tugdiradi.

Lingvistik kiyinchiliklar fonetikaga, leksikaga, grammatikaga va stilistikaga oid bo`lishi mumkin.

Ta`limning dastlabki boskichida nutqni tinglab tushunish uchun asosiy bo`lib fonetik kiyinchiliklar hisoblanadi. O`quvchilarda tinglash qobiliyatining shakllanmaganligi tovushlarni notugri eshitishga, chet til tovushlarini ona tili tovushlari bilan, hamda chet til tovushlarini bir-biri bilan chalkashtirishga olib keladi. O`quvchilar urguning urnini almashtirib qo`yadilar, jumalarning oxangini farqlay olmaydilar.

Leksik kiyinchiliklar so`zlarning ma`nosini tushunish bilan boglikdir. Bunday kiyinchiliklarga 1) konkret leksik birlik bilan boglik bo`lgan kiyinchiliklar, 2) organilayotgan tildagi so`zlar interferentsiyasi bilan boglik bo`lgan kiyinchiliklar, 3) organilayotgan til va tinglovchining ona tili o`rtasidagi interferentsiyani keltirib chikaradigan kiyinchiliklar kiradi. So`zlarning ma`nosini bilmaslik ham tekstning mazmunini tushunmaslikka sabab bo`ladi.

Grammatik kiyinchiliklar morfologiyaga va sintaksisga oid bo`lishi mumkin. CHet tildagi nutqni tinglab tushunishni kiyinlashtiradigan sabablardan biri ushbu tildagi grammatik shaklga uxshash shaklning o`quvchilar ona tilida mavjud emasligidir. Grammatik omonimiya ham tinglab tushunish jarayonida kiyinchilik tugdiradi.

Tinglab tushunishning lingvistik kiyinchiliklari asosan o`quvchilar ona tiliga, organilayotgan til xodisalarining xususiyatlariga boglik. O`qituvchi tinglab tushunish uchun material tanlayotganda lingvistik kiyinchilik tugdiradigan til xodisalarini bilishi va tayyorlov mashqlari yordamida bunday kiyinchiliklarni bartaraf qilishi lozim.

Tinglab tushunish jarayonining natijasi tinglovchining matn mazmunini tushunganligi yoki tushunmaganligi hisoblanadi. Ta`lim jarayonida tinglovchining tushunish darajasini aniqlash ham muxim ahamiyatga ega. Bu bilan o`qituvchi

o`quvchilarning tinglab tushunishga oid ko`nikma va malakalarini shakllanganlik darajasini belgilash imkoniyatiga ega bo`ladi. Tinglab tushunish jarayonida tushunish darajasini A.R.Luriya quyidagicha belgilaydi: so`zlarni tushunish, jumalarni tushunish, murakkab sintaktik butunlikni tushunish va tekstning mazmunini tushunish.

Ta`limning boshlangich boskichida tinglovchi aloxida so`zlarni va kiyin bulmagan jumalarni farqlaydi. So`zlarni tushunish o`quvchining aktiv, passiv va potentsial so`z boyligiga boglik.

Jumalarni tushunish asosan jumlaning sintaktik xususiyatiga boglik. Sodda gaplarni tushunish tinglovchida katta kiyinchilik tugdirmaydi. Asosiy kiyinchilikni kushma gaplarning mantikiy-grammatik strukturasi tushunish tugdiradi.

Murakkab sintaktik butunlik-abzatsni tushunish axborotni qismlarga bo`lish, jumalarni uzaro bog`lanish vositalarini aniqlash bilan boglik. Bundan tashkari tinglovchi ushbu butunlikning ma`nosini anglashi, fikrning boshlangich va tugallanish no`qtalarini aniqlashi zarur.

Tekstning mazmunini tushunish jumalar o`rtasidagi bog`lanishni, tekstning mantikiy tuzilishini, uslub va janrini aniqlash bilan boglik.

“Metodika ...” avtorlari tushunish jarayonining quyidagi boskichlari mavjud ekanligini ta`kidlaydilar:

1. YUzaki tushunish;
2. Umumiy tushunish;
3. Tulik tushunish;
4. Tankidiy tushunish.

Tushunishning tulikligi va tugriligini aniqlashga oid mashqlar 2-4 boskichlarga xos bo`lishi lozim. O`quvchilarning tekstning mazmunini umumiy tushunganligini savol-javob orkali aniqlash mumkin.

Tinglovchining mazmuni tushunganligi yozma javobli testlar orkali aniklanadi. Bundan tashkari savollarga javob berish, tekstning mazmunini ona tilida chet tilida so`zlab berish va tekstga kengaytirilgan reja tuzish orkali ham matn mazmunini tushunish tinglovchining matnga bergan bahosi, matn haqidagi mustakil fikri bilan belgilanadi.

Tinglab tushunishga maxsus mashqlar tizimi yordamida o`rgatiladi.

Ma`lumki mashqlar tizimi uzaro boglik bo`lgan nutq harakatlaridan iborat bo`lishi va nutq faoliyatining turlarida ko`nikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirish uchun xizmat qilishi lozim.

Bunday mashqlar ikki guruxdan iborat bo`lishi mumkin:

1) Tayyorlov (tilga oid) mashqlari, 2) nutq mashqlari. YUqoridagi mashqlar guruxi uz navbatida a) tinglab tushunishning lingvistik kiyinchiliklarini bartaraf qilishga karatilgan va b) tinglab tushunishning psixologik kiyinchiliklarini bartaraf qilishga karatilgan bo`lishi mumkin.

Tayyorlov mashqlarini bajarishdan matnni tinglashgacha bo`lgan lingvistik va psixologik kiyinchiliklarni bartaraf qilish kuzda tutiladi.

Lingvistik kiyinchiliklarni bartaraf qilishga karatilgan tayyorlov mashqlari tinglovchida quyidagi ko`nikmalarni shakllantiradi.

1) nutqiy axborotdan notanish til xodisalarini ajratish, ularni farqlash va tushunish;

2) tovush namunalari ma`no bilan bog`lash;

3) so`zlarning ma`nosini aniqlash;

4) turli leksik birliklar va grammatik tuzilmalarning kontekstga oid ma`nosini aniqlash;

5) sinonim va antonim xodisalarini tanib olish va anglab etish.

Psixologik kiyinchiliklarni bartaraf qilishga karatilgan tayyorlov mashqlari quyidagi ko`nikmalarni shakllantirish uchun xizmat qiladi:

1) oldindan bilish (faraz qilish), 2) kiska muddatli va so`z-mantik xotirasining xajmini kengaytirish, 3) ekvivalentli almashtirish mexanizmini shakllantirish, 4) nutqni tinglash qobiliyatni shakllantirish, 5) tinglanganni ichki nutqda takrorlash.

Nutqqa oid mashqlar tabiiy nutqni tinglash vaziyatiga yaqinlashgan sharoitda og`zaki axborotni tinglash malakalarini rivojlantirish uchun xizmat qiladi. Bunday mashqlar tinglovchini a) axborotning muxim qismini aniqlashga, b) tekstning mazmunini tushunishda faraz qilishga, v) tekstning mazmunini muomala vaziyati bilan bog`lashga, g) og`zaki axborotni mantikiy qismlarga bo`lish va ularning asosiy ma`nosini aniqlashga, d) axborotning asosiy qismini yozib olishga o`rgatadi.

Nutqni tinglab tushunishga o`rgatuvchi tayyorlov va nutqqa oid mashqlarni kiyosiy karakteristikasi quyidagicha:

Mashqlarning xususiyatlari	tayyorlov mashqlari	nutqqa oid mashqlar
fikriy faoliyatning yunalishi idrokning tezlik karakteristikasi	asosan shaklga karatiladi talaffuz va pauzalar hisobiga nutq tezligi asosan shaklga oid (so`zlar reja realiyalar) axborot mazmuni va tuzilishi (jumladan katta bulaklar)	asosiy mazmunga karatiladi o`rtacha tezlik pasaytiriladi idrok tayanchlari asosan mazmunga (rasm, fil`m, sarlavxalar) so`z, sintagma, jumla ma`no jixatdan ma`noli bulaklar bog`langan axborot:

a) sodda kompozitsiyali bir xil ma`noli axborot

b) murakkab kompozitsiyali turli ma`noga ega bo`lgan axborot.

Idrok sharoiti

a) formal tayanchlar tabiiy sharoit

a) dialog, hisobiga

b) eshittirish monolog va dialog bilan soniga kura,

v) fakat bir monolog kushilgan topshirikni bajarish axborot,

b) bevosita va hisobiga osonlashtirilgan- masofali nutqdan

foydalanish

v) umumiy topshiriklarni bajarish

Quyida tayyorlov mashqlaridan namunalar keltiramiz:

I. Tinglash qobiliyatini rivojlantiruvchi mashqlar:
1. Quyidagi juft soʻzlarni tinglang va takrorlang.
2. Soʻzlarni tinglang va ularni yozuvda belgilang.
3. Soʻzlarni tinglang va kofiyadosh soʻzlarni rakamlar bilan belgilang.
4. Jummalarni tinglang. Agar jumlar bir-biridan farq kilsa “-” belgisini, farq kilmasa “+” belgisini kuying.

II. Faraz qilishga oʻrgatuvchi mashqlar:

1. Quyidagi sifatlarni (feʼllarni) tinglang, u bilan eng kup qoʻllanadigan otlarni ayting.

2. Soʻzlarni tinglang, ular kaysi soʻzlardan yasalganini aniklang.

3. Jumlani tinglang va uni tugal xolda takrorlang.

III. Kiska muddatli va soʻz mantik xotirasini rivojlantirishga oid mashqlar:

1. Soʻzlarni tinglang bir mavzuga oid soʻzlarni eslab koling va takrorlang.

2. Sodda gaplarni tinglang va ulardan bogʻlangan kushma gap tuzing.

3. Soʻzlarni tinglang va ularni takrorlang (soʻzlar soni kiska muddatli xotira xajmidan (7 ± 2) ortik).

4. Jumlani tinglang va unga maʼno jixatdan bogʻlangan yana bir jumla kushing.

I. Dialogik nutqni tinglab tushunishga oʻrgatuvchi mashqlar:

1. Dialogni tinglang va ikkinchi suxbatdosh sifatida dialogni davom ettiring.

2. Dialogni tinglang va shunga uxshash dialog tuzing.

3. Dialogni tinglang va suxbatdoshlarning nutqini takrorlang.

II. Monologik nutqni tinglab tushunishga oʻrgatuvchi mashqlar:

1. Tekstni tinglang va savollarga javob bering.

2. Filʼmni tomosha kiling, uning asosiy mazmunini soʻzlang.

3. Axborotni maʼno bulaklariga buling va ularga sarlavxa kuying.

4. Tekstni tinglang. Quyidagi rejadani foydalanib matn mazmunini lunda bayon kiling. a) axborot mavzusi, b) katnashuvchi shaxslar, v) mazmunini kiska bayoni, g) asosiy goya, d) axborotga baho.

GAPIRISH VA GAPLASHISHNI OʻRGATISH

Odatda kishilar oʻrtasidagi ogʻzaki muomala gapirish (soʻzlash) va gaplashish (soʻzlashish) orkali amalga oshiriladi. Uzbek tilining izohli lugatida gapirish tushunchasi soʻzlashga, gaplashish tushunchasi esa soʻzlashishga sinonim sifatida izohlangan. Bu matnda yuqoridagi soʻzlarni sinonim atamalar sifatida qoʻllash lozim topildi.

Maʼlumki gapirish va gaplashish tushunchalari bir-biridan farq qiladi. Gapirish bir shaxsning ikkinchi shaxs yoki shaxslar uchun fikr, muloxaza bayon qilishi, soʻzlashi, uzga kishilarning bilim, koʻnikma va malakalariga taʼsir oʻtkazishi, biror dalilni isbotlashi, asoslashi, unga ishontirishi, xis-xayajonni ifodalashi yoki maʼlumot olish niyatida soʻrashidir.

Gapirish murakkab akliy faoliyat bo`lib, u nutqni tinglash qobiliyati, xotira, oldindan faraz qilish, diqqat kabi psixologik mexanizmlar faoliyatiga tayanadi.

Gapirish murakkabligi jixatidan turli darajada, masalan, xis-xayajonni ifodalovchi so`zdan tortib predmetning nomini atash, savolga javob qaytarish va ma`lum mavzu, reja asosida fikrni og`zaki bayon qilishgacha bo`lishi mumkin. Gapirish jarayonining natijasi bo`lib nutq xizmat qiladi.

Nutq gapirish jarayonida fikrning tulaligi, nutqiy muomalaning sodir bo`lish xususiyatiga kura bir necha turga bo`linadi. Psixologiyada nutqning quyidagi turlari farqlanadi:

Gapiruvchining til vositalarini mazmun va nutq xolati (situatsiya) bilan ongli ravishda bog`lay olgan nutqi. Gapiruvchi uz tashabbusi bilan fikrini shakllantiradi, ushbu fikrni ifodalash uchun mustakil ravishda til vositalarini va ifoda usullarini tanlaydi. Bunday nutqni Avstraliyalik psixolog Fridrix Kaynts, spontan – uz-uzidan (tashkari ta`sirsiz, ichki sabablar tufayli) kuyilib keladigan deb ataydi. Javob nutq. (Savol javob qaytarish).

Taklidiy nutq. Avval tinglangan yoki o`qilgan materialni esga, olish va takrorlash.

Yodlab olingan parchalarni takrorlash nutqi. Bunday nutq xolat bilan bog`lanmaganligi bilan harakterlanadi.

Gaplashish ikki yoki undan ortik kishilarning muomala qilishlari, biror narsa, masala yoki vokelik haqida muzokara, munozara olib borishlari, kelishishlari yoki kelishmasliklaridir. Demak gaplashish tushunchasi ikkinchi suxbatdoshning va uning javob qaytarish jarayonining mavjudligi bilan gapirish tushunchasidan farq qiladi.

Gapirish avval belgilangan reja asosida fikrni bayon qilish imkonini beradi. Gaplashishda esa nima haqida gapirishni oldindan bilib bulmaydi. Gaplashishning gapirishga karaganda murakkabligi shundaki suxbatdoshning fikrini tinglab tushunish va uz fikrini ifodalashga tugri keladi. Gapirishda esa fakat fikrni ifodalash maxorati talab etiladi. Gapirish va gaplashish nutqining tuzilishida ham muxim farq bor. Gaplashish jarayonida kuprok savollar muxim urin tutadi. Gapirishda esa savollar kam uchraydi. Gaplashishning yana bir murakkab tomoni, so`zlovchilar fakat savollargagina javob berib kolmay, uz navbatida nutqni davom ettirish uchun imkon va sabab topishlari kerak. Aks xolda suxbat tuxtab kolishi mumkin.

Metodik adabiyotlarda monolog nutq urnida yakka nutq, dialog nutq urnida juft nutq atamalari qo`llanilmokda (J.Jalolov).

Ushbu matnda «monolog nutq» urnida «gapirish nutqi», «dialog nutq» urnida esa «gaplashish nutqi» atamasidan foydalanildi.

Gapirish va gaplashishni o`rgatish masalalarini tavsiflashdan avval nutq kanday shakllanadi degan savolga javob berishga harakat kilaylik. Nutqning shakllanish masalasi haqida psixologlar turli fikr bildiradilar.

Masalan, F.Kaynts nutqning shakllanishi turt boskichdan iborat deb hisoblaydi. (F.Kaynts , 1954)

1. Nutqiy muljal. Biror narsa, vokea-xodisa haqida axborot berishga undovchi, kuzgovchi, sabab va shu sabab tufayli paydo bo`lgan ichki kechinma.

2. Ichki kechinmani ifodalash haqida qaror qabul qilish. Bu boskichda gapiruvchi ichki kechinmani ifodalashga fikran tayyorgarlik kuradi.

3. Ichki kechinmani ifodalash uchun til vositalari va ifoda usullarini tanlash.

4. Talaffuz qilish. Bu boskichda gapiruvchi jummalarni ushbu til qoidalari asosida tuzadi, fonetik, leksik, grammatik va talaffuz normalariga amal kilgan xolda og`zaki ifodalaydi.

A.A.Leont`ev esa nutq shakllanishi uch boskichdan iborat deb o`qdiradi. (Leont`ev, 1974) 1) nutqiy harakatni fikran rejalashtirish: 2) nutq harakatini amalga oshirish: 3) nutqni kiyoslash va nazorat qilish.

I.A.Zimnyaya fikriga kura gapirishning faoliyat sifatida sodir bo`lish tarkibi quyidagi uch boskichni uz ichiga oladi. (I.A.Zimnyaya, 1978)

1. Undovchi yoki uygotuvchi; 2) shakllantiruvchi va 3) amalga oshirish boskichlaridir.

Nutqning shakllanishiga kelganda esa I.A.Zimnyaya 4 boskichni kuzatish mumkinligini ta`kidlaydi: 1) Undovchi boskich; 2) Nutq mazmunini tasavvur qilish boskichi; 3) Ichki kechinmani ifodalashni fikran rejalash; 4) Tashki ijro va tinglash nazorati.

Psixologlarning nutq shakllanishi haqidagi fikrlarini o`rganish quyidagicha xulosa chikarish imkonini beradi.

Gapirishga nutqqa undovchi sabab, motiv ta`sir qiladi. Bu gapiruvchining muomala qilishga bo`lgan extiyojidan yuzaga keladi. Muomala qilishga undovchi sabablarni I.A.Zimnyaya uch guruxga bo`ladi.

1. Ma`naviy bilim olishga, dunyokarashni kengaytirishga undovchi motivlar.

2. Axlokiy motivlar.

3. Xissiyotli va guzallik motivlari.

Gapirishga o`rgatishning muvaffakiyatli bo`lishi ana shu motivlar kuchiga, muntazamligiga va barqarorligiga boglik.

Nutq shakllanishining ikkinchi boskichi analitik-sitetik boskichdir. Bu boskichda ichki kechinmada ifodalash uchun reja tuziladi. Ushbu rejani ifodalash uchun so`zlar tanlanadi va bu so`zlardan shu tilning konuniyatlariga muvofiq keladigan jumlar tuziladi. Tuzilgan reja turli tayanchlar va undovchilar yordamida kuchaytirilishi mumkin.

Nutq shakllanishining oxirgi boskichi bo`lib fonatsiya yoki nutqni tashki shakllantirish yoki talaffuz qilish xizmat qiladi.

CHet tilda nutq shakllanishi ona tiliga nisbatan murakkabrok sharoitda utadi. Ta`limning boshlangich boskichida nutq shakllanishining birinchi va ikkinchi boskichi ona tilida utadi, ya`ni o`quvchi ichki xissiyotini avval ona tilida rejalashtiradi uni ifodalash uchun ona tilida vosita va usul tanlaydi, sungra esa ularni chet tilga fikran tarjima qiladi.

YUqoridagi boskichlarning konuniyatlari chet tillarni o`rgatish jarayonida hisobga olinishi kerak. Biroq amalda ushbu konuniyatlar har doim ham hisobga olinavermaydi. Masalan, o`quvchida gapirishga istak uygotmay turib yoki

o`quvchini til vositalari va ifoda usullari bilan kurollantirmay turib undan ma`lum mavzuda axborot berishni talab kilamiz. Bu esa ko`zlangan natijani bermaydi.

Gapirishni o`rgatish tabiiy nutq sodir bo`ladigan sharoit bilan uzviy boglik. Til vositasidagi muomala tabiiy sharoitda quyidagicha sodir bo`ladi.

1. Muomala qilishga bo`lgan zarurat va xoxish bo`lishi, ichki tuyguni ifodalashga karatilgan rejaning shakllanishi. Agar gapiruvchida yuqoridagilar shakllanmasa muomala jarayoni sodir bulmaydi.

2. Gapirishga oid ko`nikma va malakalarning shakllanganligi va rivojlanish darajasi. Til materiallari va ifoda usullarini bilish.

3. Nutqni shakllantirish va ifodalash usullarini bilish.

4. Muomala vaziyatini hisobga olish.

Metodika fani oldida nutq shakllanishi va muomalaning sodir bo`lish konuniyatlarini hisobga olish yuzasidan quyidagi muammolar mavjud:

1. Ta`lim berish uchun o`quvchilarda bilim olishga bo`lgan xoxish, extiyojni paydo qilish.

2. Ta`limni vaziyatga moslashtirish.

3. Ta`lim ko`nikma va malakalarini shakllantirishga ijobiy ta`sir qiladigan vositalarni topish, va qo`llash.

4. Gapirishga oid bo`lgan ko`nikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirish.

5. Interferentsiya doirasini belgilash.

YUqorida masalalarni xal qilish kup jixatdan gapirish va gaplashishning nutq faoliyati boshqa turlari bilan munosabatlarini belgilash va o`rganish masalalari bilan boglik.

Ma`lumki, nutq faoliyati turlari bir-biri bilan uzviy boglik. Gapirish nutq faoliyatining produktiv turi sifatida tinglab tushunish, o`qish va yozish turlari bilan yakin aloqada. Ulardan birining rivojlanishi ikkinchisi uchun ijobiy ta`sir qiladi, chunki nutq faoliyatining barcha turlari uchun umumiy bo`lgan ko`nikma va malakalar mavjud. Quyidagilar shular katoriga kiradi:

1. Signallarni ma`no bilan bog`lash: tinglab tushunish va gapirish jarayonida akustik signallar, o`qish va yozish jarayonida esa grafik signallar ma`no bilan bog`lanadi.

2. E`tiborni, dikkatni tuplash va taksimlash:

3. Ichki nutq va oldindan faraz qilish malakalarini takomillashtirish va nuikni tushunish uchun jumlani tulik takrorlamaslikka erishish.

4. Matnning asosiy ma`noni ifodalovchi qismlarini ajrata olish.

5. Nutq qismlarini kiska muddatli xotirada saklab kolish.

6. Nutq mazmunini sintez kila olish va bir qarorga kelish.

7. Nutqning ekstralingvistik elementlarini nutq vaziyatiga bog`lay olish.

8. Kontekstga kira olish.

Endi nutq faoliyatining aloxida turlari uchun umumiy bo`lgan ko`nikma va malakalarni kurib chikaylik.

Gapirish va tinglab tushunish nutq faoliyatining og`zaki turiga mansub bo`lganligi uchun ham umumiy xususiyatlarga ega. Bular ichki nutq va faraz qilish faoliyati bilan boglik

Tinglab tushunish va gapirishni o'rgatish jarayonida nutq faoliyati turlarining umumiy xususiyatlarini hisobga olish metodik jihatdan muximdir. N.I.Jinkin ta'kidlaganidek, nutqni tinglab tushunishni o'rganish uchun gapirish lozim. Tushunish gapirish jarayonida, gapirish esa tushunish jarayonida shakllanadi.

Gapirish va tinglab tushunish jarayonida ichki nutq faol ishtirok etadi. Agar tinglovchi nutqni ichki nutqi yordamida takrorlamasa uni tushunmaydi. Gapiruvchi talaffuz qiladigan ichki nutqida takrorlaydi, xuddi xayolidan utkazadi.

Gapirish va tinglab tushunish nutq faoliyatining o'qish va yozish turlari bilan uzviy bog'lik. YOzuv og'zaki nutq asosida paydo bo'lgan. YOzuv og'zaki nutqni kogozga tushirish imkonini beradi. O'qish og'zaki nutqdan yozuvga utish vositasi bo'lib xizmat qiladi. O'qish va yozishni o'rganish nutqni tinglash qobiliyati va artikulyatsiyani rivojlantirish bilan bog'lik.

Nutq faoliyati turlarining kiskacha kiyosiy tavsifi shuni kursatadi.

1. Nutq faoliyati turlari bir-biri bilan uzviy bog'lik.
2. Nutq faoliyatining barcha turlari uchun umumiy va har bir turning uziga xos bo'lgan xususiyatlar mavjud. SHunga kura umumiy va xususiy malakalar ham ta'lim jarayonida e'tibordan chetda kolmasligi zarur.
3. Umumiy ko'nikma va malakalar nutq faoliyatining barcha turlarida maxsus mashqlar yordamida rivojlantirilishi mumkin.
4. Og'zaki va yozma nutq umumiy va xususiy konuniyatlarini hisobga olgan xolda ta'lim jarayonini okilona tashkil qilish zarur.
5. Nutq faoliyati turlariga xos bo'lgan ko'nikma va malakalar bir turdan ikkinchi turga uz-uzidan kuchib utmaydi, balki ta'lim jarayonining xususiyatlarini hisobga olgan xolda mashqlar bajarish orkali amalga oshiriladi.

Gapirish va gaplashishga o'rgatishni tashkil qilish ta'limning maqsadi va mazmunidan kelib chikadi.

Dastur talablarini o'rganish o'quvchilarning og'zaki nutqiga kuyilgan talablar mo'qammal emas, balki bu talablarni yanada konkretlash va takomillashtirish lozim degan xulosa chikarishga asos bo'ladi. Umumiy tarzda o'quv dasturi o'rta maktab o'quvchilari xorijiy tilni kelajakda mustakil urgana olishlari uchun poydevor yasashi lozim deb belgilaydi. O'quvchilarni xorijiy tillardan birida muomala qilishga o'rgatish o'quv dasturi amaliy maqsad hisoblanadi. Ma'lumki ta'limning umum ta'limning, tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi maqsadlari chet tillarini amaliy o'rganish jarayonida ruyobga chikariladi. Gapirish va gaplashishga o'rgatish jarayonida bir kator umumta'lim maqsadlar amalga oshiriladi. Jumladan o'quvchilarning dunyokarashi kengaytiriladi. O'quvchilar til va tillar haqida ma'lumot oladilar, turli soxadagi bilimlarni egallaydilar, tili urganilayotgan mamlakatning tarixi, jugrofiyasi, adabiyoti, san'ati, madaniyati, urf-odatlarini, fan va texnika yangiliklari bilan tanishadilar.

Barcha o'quv predmetlari katori chet tili predmeti ham ma'lum tarbiyaviy ahamiyatga ega. SHuning uchun ham gapirish va gaplashishga o'rgatish jarayonida urganiladigan o'quv materiallari o'quvchilarda ijobiy xislatlarni shakllantirishga xizmat qiladigan bo'lishi kerak.

O`quvchilarning gapirish va gaplashish malakalarining rivojlanishi jarayonida ularning tafakkuri, fikrlash, diqqat, oldindan faraz qilishga oid malakalari, rivojlantiriladi. Gapirishga va gaplashishga o`rgatish jarayonida o`quvchilarning mustakil ishlash, ijodiy faollik, guzallikka intilish, dustlik, xurmat, kitobni sevish kabi xislatlari ham rivojlantirib boriladi.

CHet tilida gapirish va gaplashishga o`rgatish kup jixatdan ta`limning mazmuni masalasi bilan boglik. Ta`limning mazmuni masalasi metodika fanida baxslidir. Bu xakdagi adabiyotlar urganilsa ta`limning mazmuniga oid tarkibiy qismining uchdan etti komponentgacha belgilanganligini kuzatish mumkin. Biz J.J.Jalolov fikriga kushilgan xolda ta`limning mazmuni quyidagi tarkibiy qismdan iborat deb hisoblaymiz.

1. Nutq mavzui va xolati.
2. Nutq malakalari.
3. Til materialli.

Gapirish uchun nutq mavzui belgilanadi. O`rta maktablarda chet til ta`limi quyidagi mavzular asosida amalga oshiriladi:

I. Maktab va oila.

A) O`quvchi va uning atrof muhiti.

B) Sinfidan va maktabdan tashkari ishlar.

II. Bizning Vatanimiz. III. Tili urganilayotgan mamlakat.

YUqoridagi mavzularga ta`lim jarayonida aniklik kiritiladi.

Gaplashish uchun muomala vaziyati, sharoiti va xolati zarur. Nutq xolatlari cheksiz bo`lganligi uchun uni tanlash va ruyxatini tuzish murakkab ishdir. O`rta maktab sharoitida nutq vaziyatini yaratish muxim hisoblanadi.

Gapirish va gaplashishni o`rgatish mazmunining ikkinchi tarkibiy qismi sifatida malakalar xizmat qiladi. Malaka deganda qisman avtomatlashgan ko`nikma nazarda tutiladi. Gapirishga oid malakalar so`zlovchi faoliyati bilan boglik bo`lib fikrni bayon qilish uchun so`zlarni tanlash, ushbu so`zlarni urganilayotgan tilning grammatik qoidalari asosida bir-biri bilan bog`lash, jumalalar tuzish, ularni talaffuz qilish, mantikan bog`lash, fikrni ketma-ket bayon qilish, nutq xolatiga moslash va boshqalar bilan uzviy boglik.

Gaplashish malakalari esa gapirishga nisbatan murakkabrokdir. CHunki gaplashish jarayonida suxbatdosh gox gapiruvchi, gox tinglovchi vazifasini bajaradi. SHuning uchun ham suxbatdosh yuqoridagi gapirish malakalarini egallashdan tashkari tinglovchiga xos bo`lgan malakalarni ham egallashi lozim. Bunday malakalar nutqni tashkil kilgan tovush, so`z, so`z birikmalari va jumalarni anglash, so`zlarning va jumalarning ma`nosini tushunib etguncha ularni kiska muddatli xotirada saklab kolish, nutqning mazmunini tushunish, suxbatdoshning fikriga javob qaytarish kabi malakalarni egallash lozim. Bundan tashkari suxbatdosh nutq xolatini, suxbatdoshning individual xususiyatlarini, kayfiyatini va boshqalarni hisobga olish malakalariga ega bo`lishi kerak.

CHet tilda gapira va gaplasha oladigan bo`lish ma`lum til bilmini (leksik, fonetik, grammatik) egallashni talab etadi.

Gapirish umumiy ma`noda uz bilim va tajribasini namoyish qilishdir. Gapirish nutqini egallash uchun til materialini bilish, shu materiallar asosida nutq

harakatini ijro etish, mavzuni bilish lozim. Bundan tashkari gapiruvchi fikrni bayon kila olishi uchun ekstralingvistik ifoda vositalari: urgu, melodiya va oxangni jumlagi va nutq xolatiga moslay olishi talab etiladi. Gapiruvchi soʻzlar jarayonida tasdiklash, iltimos, taklif, rozilik, rad etishning turli shakllari xis-xayajon, taxmin, tasodif, ishontirish, kelishmaslik va boshqalarni ifodalashga oʻrganishi kerak. Gapirish maʼruza, suxbat, soʻrash, murojaat, tushuntirish va boshqa shaklda utishi mumkin. Bu urinda maʼnoni kuchaytirishning turli vositalaridan foydalaniladi. Masalan, takrorlash, ritorik savollar, undalma, fikrni yoki ritmni boʻlish, kirish soʻzlar, jumlagi va boshqalar shular jumlasiga kiradi.

V.V.Vinogradov gapirish nutqining quyidagi turlari mavjud deb hisoblaydi:

1. Ishontirib gapirish;
2. Lirik gapirish;
3. Dramatik gapirish;
4. Axborot beruvchi gapirish.

Gapirishning har bir turida ham til materialini axborot xajmi xususiyati kabilarni gapiruvchining uzi tanlaydi. Gapiruvchi uchun eng murakkab xodisa nutq obʼektini aniqlash va fikrning bayoniy mantikini belgilash hisoblanadi. Boshqa bir gurux mualliflar gapirish nutqining quyidagi turlari mavjudligini taʼkidlaydilar:

1. Uslub jixatidan neytral gapirish. Bunday nutq uzga kishiga karatilmaydi, gapiruvchining eʼtibori nutqning mazmuni va fikrning mantikan ketma-ket bayon kilinishiga karatiladi.

2. Ogʻzaki muomala jarayonidagi gapirish, yaʼni suxbatdoshga karatilgan nutq. Bu nutq orkali gapiruvchi suxbatdoshni uziga tortish vazifasini qoʻyadi. SHuning uchun ham bunday nutqda undalma, taklif, umumlashtiruvchi jumlagi, ichki gaplashish va boshqalar kuprok qoʻllaniladi.

Maktab sharoitida nutq uslubi soddaligi bilan ajralib turadi va xis-xayajonni ifodalovchi vositalar, kirish undov soʻzlar. Kuchma maʼnoli va uslub jixatdan tushunish kiyin boʻlgan soʻzlar meʼyori bilan qoʻllaniladi. Oʻquvchilardan talab qilnadigan ogʻzaki nutq intonatsion jixatdan ham bir muncha cheklangandir. Oʻquvchilarning ogʻzaki nutq meʼyoridan chetga chikishiga yoʻl kuyilmaydi.

Oʻrta maktab bitiruvchilari uzlari haqida, uzlarini kiziktirgan mashgulotlardan tortib to oʻqigan kitoblari, kurgan filʼmlari, atrof muhit va vokelik haqida, uz ona yurtlari va tili urganilayotgan mamlakatning tarixi, geografiyasi, xalklari, tili, urf-odatlari, adabiyoti, sanʼati, atokli kishilari va boshqalar haqida soʻzlab bera oladigan boʻlishlari kerak. Bunday natijaga erishish uchun taʼlim jarayonida bir necha boskichni bosib utish lozim. Bunday boskichlarni shartli ravishda uchga boʻlish mumkin. Birinchi boskichda berilgan mavzu yuzasidan fikrni ifodalash koʻnikmasini shakllantiriladi.

Bu boskichda gap bulaklari ustida ham ish olib boriladi. Fikr kulami bir soddaga gapdan oshmasligi kerak. Har kanday jumla, agar u mavzuga bogliq va kurulish jixatidan ushbu til talabiga javob beradigan boʻlsa, tugri hisoblanadi. Ikkinchi boskich aytilgan jumlagiarning mantikiy bogʻlanishi bilan bogliq nutq harakatlarini uz ichiga oladi. Jumlagi soni asta-syokin orttirib boriladi. Jumlagi mantik jixatdan bir-birini tuldirishi, aniqlashi va izohlashi talab etiladi. Aytilayotgan jumlagi modeli ham bir-biridan farq qilishi lozim. Uchinchi boskich

yangi mantiqiy vazifalar va muloxazalar xajmini oshirib borishi bilan belgilanadi. Bu bosqichda o'quvchilar biror dalilning tugriligini isbotlashi, mustakil muloxaza yuritishi kerak. O'quvchilar ma'lum muomala shartini bajara oladigan bo'lishlari kerak. Masalan, yangi o'quvchini sinfingiz bilan tanishtiring. Distingizning fikri tugri ekanligini isbotlang. Ushbu fikrga kushilasizmi yoki kushilmaysizmi? Nima uchun? O'quvchiga beriladigan muomala topshirigi asta-syokin murakkablashtirib boriladi. Tili urganilayotgan mamlakatning shaharlaridan biri haqidagi matni o'qib, uz shaxringiz bilan kiyoslang. Bunday mashqlar yordamida biz o'quvchilarning ma'lum mavzu asosida mustakil fikr yuritishiga va uz fikrini bayon kila olishga o'rgatishimiz lozim. Gapirishga o'rgatishning pirovard maqsadi shundan iborat bo'lishi kerak.

Endi gaplashish nutqi haqida so'z yuritamiz.

Gaplashish nutqi suxbatdoshdan gapirish va tinglab tushunish malakalarini talab qiladi. SHuning uchun ham tinglab tushunish malakalarini talab qiladi. SHuning uchun ham gaplashish nutqiga o'rgatish gapirish va tinglab tushunish malakalarini ustirishni takozo qiladi. Kuppina metodik adabiyotlarda savol-javob mashqlarini bajarish gaplashish nutqiga o'rgatishning yagona bulmasa ham, asosiy yo'li deb karash kuzatiladi. Bu fikr bir tomonlamadir. CHunki muomala jarayonidan fikr almashish fakat savol-javobdangina iborat bulmay, balki murakkab va xilma-xildir. Masalan:

1. Salom – alik:

Guten Tag ! – Guten Tag !

2. Iltimos:

Herbert, gib mir bitte dein Buch.

Bitte.

3. Taklif:

Bitte, nehmen Sie Platz.

Danke schön.

4. Tashakkur:

Danke, ich bin sehr froh.

Nicht zu danken.

5. Ma'lumot:

Ich war gestern in der Stadt – Ach, so.

6. Kursatma:

Das sind Bücher und Hefte – Sind sie für uns?

7. Savol:

Ist dieses Buch intressant? – Ja, intressant.

8. Ma'qo'llash:

Ist Peter der beste Schüler? – Ja, Peter ist der beste Schüler in unserer Klasse.

SHubxa: - Ist das möglich?

9. Ma'qo'llash:

Mein Freund war gestern in der Stadt.

Xayron kolish: - Ist das möglich?

10. Ma'qo'llash:

Das stimmt. Ich habe ihn in der Stadt gesehen.

Inkor:- Es ist nicht möglich. Er war gestern mit mir.

11. Iltimos:

Ich bitte dich, mir zu helfen.

Rozilik:

Aber gern

12. Iltimos:

Komm bitte heute abend zu mir.

Rad etish:

Wess du, ich bin heute abend sehr beschäftigt. Ich kann zu dir nicht kommen.

YUqoridagi misollar gaplashish nutqiga xos bo`lgan barcha muomala shakllarini kamrab ololmasa ham, muomalaning xususiy xodisasi fakat savol-javob emasligini kursatadi. SHuning uchun ham gaplashish nutqiga o`rgatish fakat savol-javobga o`rgatishdangina iborat emas, balki, fikr almashishga o`rgatishdan iborat bo`lish lozim.

Gaplashish nutqida nutq birligi bo`lib lo`qma hisoblanadi. Lo`qma deganda tugallangan fikrni ifodalovchi jumla yoki jumlar yigindisi tushuniladi. Ba`zan lo`qma bir so`zga teng kelishi ham mumkin. Masalan,

Kannst du dein Buch mir geben. – Ja. Gern.

Gaplashish nutqida har doim ikki xil lo`qma mavjuddir. Ularni shartli ravishda 1) undovchi lo`qma; 2) javob lo`qma deb atash mumkin. Undovchi lo`qma turli xil axborotni ifodalashi mumkin. Masalan, vokelik haqida xabar berish, uzga kishining nutqini ifodalash, shaxs, narsa, xodisa, vokelikni tasvirlash; xursandchilik, xayrat, tashakkur, mamnuniyat, minnatdorlik, afsuslanish, norozilik bildirish: hamda shaxsiy fikr, munosabat, taxmin, imkoniyat, zaruriyat, ishonch, umid va boshqalarni ifodalash.

Bundan tashkari undovchi lo`qma orkali suxbatdosh turli savollar, iltimos, xoxish, isbot, talab yordamida axborot berish turli harakatga undash yoki aksincha nimanidir qilishni ta`kiklashi mumkin.

Javob lo`qma orkali suxbatdosh istagan harakatni bajarishga tayyor yoki tayyor emasligini, rozi yoki rozi emasligini, ifodalaydi, hamda suxbatdoshning fikrini tuldiradi, aniklaydi, izohlaydi, ma`qo`llaydi, tugrilaydi, rad etadi. Javob lo`qma suxbatdoshdan fikrni, savolni, iltimosni, maslaxatni, talabni va boshqalarni takrorlashni, tushuntirishni, tuldirishni, aniqlashni, izohlashni, iltimos qilish, so`rashni ifodalash mumkin. SHunday qilib gaplashish turli lo`qmalar yigindisidan iboratdir.

Og`zaki muomala jarayonida muomala qoidalariga amal qilish ham suxbatning shirin, yokimli utishini ta`minlaydi. Bunday qoidalarga suxbatga kirish, boshlash, tashabbus kursatish, suxbatdoshga ma`kul keladigan fikrlarni ifodalash, uning uchun yokimli bo`lgan dalillarni keltirish, uni urinli ma`qo`llash va maktash va nixoyat muomalani yakunlash. Muomalaning ushbu qoidalarini bilish va unga amal qilish kishilar bilan tezrok kelishish, fikr almashish, suxbatdoshda yana baholashish, muomala qilish istagini tugdiradi. Bu urinda tili urganilayotgan mamlakat xalklariga xos bo`lgan muomala qoidalarini o`rganish va ulardan muomala jarayonida foydalanish muomalaning tabiiyligini ta`minlaydi. Aksincha

bunday qoidalarni bilmaslik muomala jarayonini sun`iylashtiradi. Masalan, nemis, ingliz, frantsuz millati vakillari bilan suxbatlashsangiz "yo`q» degan so`zni deyarli ishlatmaydilar.

Darsliklarimizda norozilik yoki kushilmaslikni ifodalovchi javob lo`qmalari «yo`q» so`zi bilan boshlanadi. Bu esa muomalaning kupol bo`lishiga olib ketadi. Masalan, ushbu undovchi lo`qmaga javob aksariyat darsliklarda quyidagicha ifodalanadi: Ist es kalt? – Nein, es ist nicht kalt.

Aksariyat nemislar ushbu savolga quyidagicha javob beradilar.

Wissen Sie, es ist heute nicht kalt.

Ich würde nicht sagen, es ist heute nicht kalt.

Bu o`quvchilarning ushbu til va millatga xos bo`lgan og`zaki nutq iboralari, koliplarini egallab olishlari zarur ekanligini kursatadi.

Gapirish va gaplashish nutqini egallash uchun ma`lum maqsadga karatilgan mashqlar tizimini bajarish talab etiladi. Bunday mashqlarni ikki guruxga bo`lish keng tarkalgan.

1. Tayyorlov mashqlari.

2. Nutq mashqlari.

Tayyorlov mashqlari gapirish uchun poydevor tayyorlaydi. Bunday mashqlar yordamida o`quvchi til materialini uzlashtiradi, uni nutqda ravon qo`llash malakalarini egallaydi.

Ularga: a) til materialining shaklini uzgartirmagan xolda va b) til materialining shaklini qisman uzgartirgan xolda (masalan urniga kuyish tablitsalari) takrorlash kabi mashqlar misol bula oladi.

1. Til materialining tuzilishini mantikan uzgartirish (gap bulaklarining urnini yoki shaklini almashtirish, gap bulaklarini boshqa gap bulaklari bilan almashtirish; gap bulaklarini sinonim yoki omonimlar bilan almashtirish va boshqalar).

2. Til materiallari shaklini a) namuna asosida; b) namunasiz qayta kurish.

3. Til materiallarini ikki xil tashkil etish mumkin: 1) maxsus tayyorlangan manbalar asosidagi mashqlar; 2) kuzatish va tayyor manbalar asosidagi mashqlar.

Maxsus tayyorlangan manbalar asosida mashqlarni uch guruxga bo`lish mumkin. Jumjalarning shaklini uzgartirish va mazmunini tuldirish:

1. shakliy belgilarga (asosiy so`zlar, reja, sarlovxa va boshqalar) tayanish;

2. axborot manbalariga (rasm, chizgi, kino va diafil`m, tekst va boshqalar) tayanish;

3. uzlashtirilgan mavzuga tayanish.

Kuzatish va tajriba asosidagi mashqlar ham ikki xil bo`ladi:

1. Axborot manbalariga tayangan xolda ona tilida hikoya qilish, rasmga, chizgiga karab ovozsiz fil`mni kurish orkali hikoya qilish va boshqalar;

2. O`quvchining xayotiy tajribasiga tayangan xolda (avval kurgan yoki o`qigan, uz fikr muloxazasi, xayol qilishi va boshqalar).

Quyida ushbu mashqlardan namunalar keltiramiz:

Maxsus tayyorlangan manbalar asosidagi mashq namunalari:

- ma`no jixatdan bog`langan jumalarni (jumla boshini, oxirini, shaxsini, zamonini) uzgartirib takrorlash;

- asosiy soʻzlar, reja, berilgan mavzu, ona tilida berilgan mazmun vaboshqalar asosida hikoya tuzish;
 - rasmlar, rasmlar tizimini tasvirlash;
 - sarlovxalarni chet tilda izohlash;
 - tinglangan hikoyaning (radio eshittirishi, maʼruza, xabar, axborot,) mavzusini aniqlash va kiskacha asoslash;
 - axborotdagi asosiy maʼnoni ifodalovchi jummalarni aniqlash va axborotga sarlovxa kuyish;
 - matnning mazmunini (matn mazmuniga yaqin qilib, umumlashtirib) hikoya qilish;
 - tinglangan xabarni yoki oʻqilgan matnni kiskartirish va bir necha jumla yordamida ifodalash;
 - tinglangan hikoyaga reja tuzish;
 - gapirish nutqiga oid matnning mazmunini bayon qilish.
- Gapirish nutqiga oʻrgatuvchi mashq namunalari:
- sarlovxa kuyish va uni asoslash;
 - urganilgan mavzuga oid bulmagan rasmni tasvirlash;
 - avval tinglangan yoki oʻqilgan matnga uxshash hikoya tuzish;
 - narsa, xodisa yoki vokelikka uz munosabatini bildirish;
 - vokea yoki xodisa katnashuvchilari, joyi yoki vaqtini tavsiflash;
 - tinglangan yoki oʻqilgan matn haqida uz fikrini bildirish;
 - kiskacha matn (eʼlon, xabar, axborot, tabrik bildirish va boshqalar) tuzish.
- Gaplashish nutqiga oʻrgatuvchi mashq namunalari:
- Savollarga (kiskacha, tula, kengaytirib) javob berish;
 - Nutq xolatiga monand savol berish;
 - Tinglangan yoki oʻqilgan gapirish nutqini gaplashish nutqiga aylantirish;
 - berilgan mavzuga oid suxbat matnni tuzish;
 - gapirish nutqiga oid matn asosida suxbatlashish;
 - gaplashishga oid matnning mazmunini uzgartirish.
- Gaplashish nutqiga oʻrgatuvchi mashq namunalari:
- savollarga atroflicha javob berish;
 - oʻrgatilayotgan tilga xos boʻlgan iboralardan foydalanib murakkab mavzu suxbat, oʻtkazish;
 - oldindan tayyorlanmasdan (tayanch yordamida yoki tayanchsiz) suxbatlashish;
 - savol-javob uyinlarini oʻtkazish;
 - berilgan mavzu yuzasidan munozara oʻtkazish.
- YUqorida keltirilgan mashqlar quyidagi talablarga javob berishi kerak:
1. Xajmi, til murakkabligi, sharti jixatdan oʻquvchilar kuchiga mos boʻlishi;
 2. Kiyinchiliklarning asta-syokin ortib borishi printsipiga amal qilishi;
 3. Maʼlum maqsadga karatilgan boʻlishi;
 4. Oʻquvchilarning til oʻrganishga boʻlgan qiziqishini orttirishi;
 5. Oʻquvchilar faoliyatini jadallashtirishi;
 6. Xayotiy va keng tarkalgan nutq xolatlari asosida tuzilishi;
 7. Oʻquvchilarning ijodiy faolligini oshirishi;

8. O`quvchilarning psixologik xususiyatlarini (dikkat, oldindan faraz qilish, xotira, fikrlash) rivojlantirish uchun xizmat qilishi kerak.

CHET TILDA O`QISHNI O`RGATISH

Kishi xayotida o`qish muxim ahamiyatga ega. O`qish orkali kitobxon uz bilimni oshiradi, dunyokarashini kengaytiradi, estetik zavk oladi. Xalklar o`rtasidagi munosabatlar tobora yaxshilanayotgan bir paytda chet tilida o`qishga bo`lgan extiyoj yanada ortib bormokda. Til muhiti bulmagan bizning sharoitimizda o`qish chet tildan amaliy foydalanishning eng muxim yo`llaridan biridir.

O`qish nutq faoliyatining turi sifatida yozma axborotni idrok qilish va tushunishga karatilgan murakkab jarayondir. SHuning uchun o`qish nutq faoliyatining retseptiv turi hisoblanadi. O`qish jarayonida kurish organi asosiy, motor sezgilari esa yordamchi vazifani bajaradi.

Ma`lumki, yozma bayon qilingan fikr ma`lum til qoidalariga asoslangan xolda grafik belgilarning ketma-ket joylashuvi asosida tuziladi. YOzma axborotni qabul qilish o`qish mexanizmlari yordamida amalga oshiriladi. O`qish jarayonida harflar, harf birikmalari, so`zlar, so`z birikmalari, jumlar, hamda yozma nutqning intonatsion komponentlarini idrok va talaffuz kila olish, grammatik belgilariga kura ushbu birliklar o`rtasidagi bog`lanishlarni urnatish va bir butun strukturaning mazmunini aniqlash, o`qish qoidalarini anik qo`llay olish, grafik belgilarning joylashuv ketma ketligini oldindan faraz kila olish, jumalarni sintagmalarga ajratish va ularni tugri oxang bilan talaffuz kila olish o`qish texnikasini tashkil qiladi. Kitobxon mazmunini tushuna oladigan darajaga kutarilishi lozim. Bu darajaga o`qish texnikasini shakllantirish va rivojlantirishga oid mashqlarni kuplab va muntazam bajarish orkali erishiladi. Natijada kitobxon dikkatini tekstning shakli va mazmuniga taksimlay oladigan bo`ladi.

O`rta maktablarda chet tilni o`rganish jarayonida o`qish ham til o`rganish vositasi, ham ta`limning maqsadi sifatida xizmat qilishi mumkin. O`qishga o`rgatish ta`limning maqsadi deb karalganda quyidagilar nazarda tutiladi. Har kandy mutaxassis uz soxasi bo`yicha chet tilidagi adabiyotni tanlay oladigan, uzi uchun zarur bo`lgan axborotni tushuna oladigan va uz soxasidagi yangiliklardan xabardor bulaoladigan darajada bo`lishi kerak. O`qishga o`rgatishdan ko`zlangan amaliy maqsaddan tashkari ta`lim va tarbiya berish maqsadlarini ham ta`kidlab utish maqsadga muvofiqdir.

O`qish orkali kishi uz dunyokarashini kengaytiradi, insoniyat yaratgan ma`naviy boyliklardan xabardor bo`ladi. Matnning tarbiyaviy ta`sirida o`quvchilarda harakter, madaniyat, axlok tarbiyalanadi, kishilar bilan muomala qilishga o`rgatiladi.

O`qish ta`limning vositasi sifatida til materialini uzlashtirish imkoniyatini kengaytiradi. O`qish jarayonida o`quvchi yangi so`zlarni eslab koladi va uz lugat boyligini kengaytiradi. Bundan tashkari o`qishga o`rgatishning og`zaki nutqqa o`rgatishda ham ahamiyati katta.

O`qish jarayonida gapirish uchun xizmat qiladigan barcha nutq organlari harakatda bo`ladi. SHu bilan birga o`qilgan tekstlarning mazmuni og`zaki nutqqa

o`rgatuvchi mashqlarning asosini tashkil qiladi. Masalan, savol-javob mashqlari, o`qiganni hikoya qilib berish, o`qilgan tekst yuzasidan suxbat va munozara o`tkazish va boshqalar.

Metodik adabiyotlarda o`qish turlariga aloxida e`tibor beriladi va quyidagi o`qish turlarining mavjud ekanligi ta`kidlanadi.

O`qish jarayonida tekstni taxlil qilish va kilmaslikka kura

a) sintetik, b) analitik o`qish;

ona tilining ishtirokiga kura: a) tarjimasiz, b) tarjima qilib o`qish;

kiyinchilikning bartaraf kilinishiga kura: a) avvaldan kiyinchiligi bartaraf qilingan, b) kiyinchiligi bartaraf kilinmagan o`qish;

Tayyorgarlikka kura: a) tayyorlangan b) tayyorlanmagan o`qish;

Urniga kura : a) sinfda, b) uyda o`qish.

O`qituvchi topshirigiga kura: ta`limiy o`qish.

Ishtirokchilar soniga kura: a) frontal, b) yakka xolda, v)juft bo`libo`qish.

Ovoz ishtirokiga kura : a) ovoz chikarib o`qish, b) ovoz chikarmay o`qish.

Tushunish darajasiga kura: ingliz metodisti M. Uest 1882 yilda o`qishning quyidagi turlari mavjud ekanligini ta`kidlagan:

1. Dikkat bilan o`qish.

2. O`rtacha o`qish (o`quvchining odatdagi ovoz chikarmay o`qishi) .

O`qishdan ko`zlangan maqsadga kura:

1. Tez o`qish, jadal o`qish.

2. Tanlab o`qish, (boshidan, o`rtasidan, oxiridan).

S.K.Folomkina o`qishdan ko`zlangan maqsadni hisobga olgan xolda o`qishning quyidagi turlari mavjud ekanligini ta`kidlaydi.

1. Tanishish uchun o`qish (oznakomitel`noe chitenie).

2. Izlanib o`qish (poiskovoe chtenie).

3. Kuz yugurtirib o`qish (prosmotrovoe chtenie).

4. Sinchiklab o`qish (izuchayushee chtenie).

O`qishning yuqoridagi turlarini o`rgatish o`qishdan ko`zlangan konkret maqsadlar bilan chambarchas boglik.

Tanishish uchun o`qish. O`qishning bu turi orkali kitobxon makola yoki kitobning umumiy mazmuni bilan tanishadi. O`qish jarayoni tez utadi. Kitobxon matnning asosiy mazmunini tushunsa, muallif olga surgan asosiy goyani anglab etsa kifoya. Tekstdagi asosiy dalillarning tushunganlik tulikligi 75-100 foyizni tashkil qiladi. Tekstdagi asosiy ma`lumotni tulik, ikkinchi darajali ma`lumotni esa tugri, buzilmagan xolda tushunish kuzda tutiladi. Odatda kitobxon tekstdagi ma`lumotning 70-75 foyizini tushunsa etarli hisoblanadi. Tanishish uchun o`qish kishining uzi uchun ma`lumot olishga karatilgan o`qishi hisoblanadi.

O`quvchi matndagi ma`lumotlarni eslab kolishga uzini tayyorlamaydi, agar eslab kolsa ixtiyorsiz ravishda eslab koladi. SHuning uchun ham matndagi ayrim ikkinchi darajali ma`lumotlar o`quvchi uchun tushunarsiz kolishi mumkin. Tanishish uchun o`qish kishi xayotida kup uchraydi. SHuning uchun ham kupchilik mualliflar o`qishning bu turini odatdagi o`qish (L.M.SHvarts) erkin o`qish (T.R.Egorov) deb ataydilar.

Akademik L.M.SHchebra o`qishning bu turini har kanday ma`lumotli kishi egallashi kerakligini, ayniksa, ilmiy xodimlarga, muxandis, talaba va kimki chet tilidagi adabiyotlarni kuzatib borishi kerak bo`lsa, ushalar uchun zarur ekanligini ta`kidlaydi.

Izlanib o`qish. O`qishning bu turi matndan boshqa manbalardan ma`lum bo`lgan axborotni-ta`rif, qoida, sonlar, rakamlar va boshqalarni topish uchun zarur. Izlanish natijasida matn o`quvchi uchun zarur deb hisoblangan qismi sinchiklab o`qiladi.

O`quvchi matnni kuz yugurtirib o`qish jarayonida ma`lum joylarida tuxtaydi va shu qismini yana boshdan kuz yugurtirib o`qiydi. Ikkinchi marotaba kuz yugurtirib o`qish izlanib o`qishga aylanadi. Agar kuz yugurtirib o`qishdan ko`zlangan maqsad butun makola yoki kitob haqida umumiy ma`lumot olishga karatilgan bo`lsa, endi o`quvchi matnning bir qismi haqida ma`lumot olishga harakat qiladi. Matnning kup qismi o`qilmasligi ham mumkin. Agar o`quvchi uchun matnda bayon qilingan ma`lumot kerak bulmasa u o`qishni tuxtatadi. Agar o`quvchi matnning ma`lum qismini uzi uchun zarur deb hisoblasa, unda o`qish turi uzgaradi yoki o`quvchi keyinrok murojaat qilishi uchun matnga belgi qo`yadi. Izlanib o`qish kuprok lugatdan so`zlarni topishda yoki ma`lumotnomadan biror dalilni izlashda yorokin namoyon bo`ladi.

Kuz yugurtirib o`qish. Bu o`qish turining vazifasi kitob, jurnal, makola va boshqalar haqida umumiy ma`lumot olishdan iboratdir. O`qishning bu turidan o`quvchi uzi uchun kerakli ma`lumot bor yoki yo`qligini topilgan ma`lumot zarur yoki zarur emasligini aniqlash, avval o`qiganini esga olish, kerakli ma`lumotlarni kelajakdagi ishida foydalanish maqsadida tanlash niyatida foydalaniladi. Kuz yugurtirib o`qish manbaning kelajakdagi zarur yoki zarur emasligini aniqlashuchun zarur. SHuning uchun ham o`quvchi material sarlavxasini, aloxida abzatslarini, jumla yoki so`zlarni tanlab o`qish bilan kifoyalanishi mumkin.

Sinchiklab o`qish. O`qishning ushbu turi orkali matn mazmunini tula va anik tushunish kuzda tutiladi. Tushunishning tulikligi 100 % ni tashkil qiladi. O`quvchi matnning eng muxim va uzini kiziktirgan qismlarini tula tushunib olishga harakat qilishdan tashkari, matnni tankidiy no`qtai nazardan mushoxada qiladi. SHuning uchun ham o`quvchi matnning mazmunini tula va uzok vaqt eslab kolishga uzini tayyorlaydi. O`qishning bu turi syokin utadi. O`quvchi o`qish jarayonida tuxtaydi., matnning ma`lum qismlarini qayta o`qib chikadi, ichki nutqida tula takrorlaydi, kupincha tarjima qiladi, ba`zan ayrim ma`lumotlarni yozib oladi.

O`qish faoliyatining yuqorida kayd qilingan turlarida o`quvchining o`qish tezligi va tushunganlik darajasi bir-biridan farq qiladi.

Quyida o`quvchilarning o`qish tezligi va tushunish darajasiga kuyilgan talablarni kurib chikamiz.

Tanishish uchun o`qish: matndagi asosiy informatsiyani anik tushunishning tuliklik darajasi 70 % dan kam bulmasligi kerak.

Tezlik ingliz va frantsuz tili uchun 180-190 so`z / minut.

Nemis tili uchun 140-150 so`z / minut.

Odatda o`quvchilar o`qish texnikasining avtomatlashuvi darajasi o`qishning tanishish uchun o`qish turi bo`yicha belgilanadi.

Sinchiklab o`qish: tushunishning tuliklik darajasi 100 foiz. O`qish tezligiga ikkinchi darajali kursatkich sifatida karaladi., biroq tezlik 50-60 so`z/minutdan kam bulmasligi kerak.

Kuz yugurtirib o`qish: O`qishning bu turi kitobxondan til materialini etarli bilishni va o`qish maxoratini talab qiladi. SHuning uchun ham o`rta maktabda o`qishning bu turiga o`rgatish maqsadida matn mavzusini belgilash imkonini beradigan elementlarni o`qib tushunishni o`rgatish kifoya.

O`qishning bu turi uchun sarflanadigan vaqt har 1-1,5 saxifaga 1 minutni tashkil qilishi lozim.

O`qish jarayonida sodir bo`ladigan xolatlar ikki guruxga bo`linadi:

1. O`quvchi yozma manbadan axborot oladigan xolat.

2. Axborotni bir vaqtning uzida uzgalarga berishni talab qiladigan xolat.

Birinchi xolatda ovoz chikarmay (ichida) o`qish, ikkinchi xolat esa ovoz chikarish lozim.

O`rta maktablarda o`quvchilarga ovoz chikarmay o`qishni o`rgatish ta`limning maqsadi hisoblanadi. CHunki amalda chet tilda ovoz chikarib o`qish bilan ayrim kishilargina (o`qituvchi, diktor, aktyor va boshqalar) shugullanadi. Ovoz chikarib o`qish ovoz chikarmay o`qishni o`rgatishda muxim mashqlardan biri hisoblanadi. Ovoz chikarib o`qish o`quvchilarning uzok muddatli xotirasida nutq birliklarining kurish, eshitish, motor tasvirlarini shakllantiradi. Bundan tashkari ovoz chikarib o`qish tilning harf-tovush munosabati konuniyatlarini uzlashtirishga, so`zlarni jumalarga biriktirishga, jumalarni tugri ritm va intonatsiya bilan talaffuz qilishga, o`qish tezligini oshirishga, oldindan bilish qobiliyatini rivojlantirishga imkoniyat yaratadi. O`quvchi ovoz chikarib o`qiganda kurishga oid signallarni so`z, jumla, tekst darajasidagi tovush signallariga aylantiradi.

O`qish jarayonida axborotni eslab kolish ixtiyorsiz yoki ixtiyoriy bo`lishi mumkin. Ixtiyorsiz eslab kolish kitobxonning e`tibori asosan axborotning mazmuniga karatilgan tanishish uchun o`qish jarayonida sodir bo`ladi. O`quvchi matnning mazmunini va nutq namunalarini ham eslab koladi. SHuning uchun ham o`quvchilarning bilimlariga mos keladigan tekstlarni muntazam o`qib borishlari ularning so`z boyligini orttirish imkoniyatini yaratadi.

Ixtiyoriy eslab kolish o`qituvchining maxsus topshirigi yoki o`quvchilarning uz tashabbusi bilan e`tiborini ongli ravishda matnning ham mazmuni ham shakliga karatganida sodir bo`ladi.

Ta`lim jarayonida eslab kolishning har ikki shakligi tayanish lozim. O`quvchi ma`lum teksni o`qib tushuna olishi uchun u ma`lum xajmdagi leksik va grammatik materialni uzlashtirgan bo`lishi kerak. Bu materialning xajmini belgilashda o`qish turlardan biri bo`lgan tanishish uchun o`qish asos qilib olinadi, ya`ni o`quvchi tekstni o`qiganda xech kanday kushimcha manbaga murojat kilmaydigan bo`lishi kerak.

Lingvostatistik ma`lumotlarga kura agar o`quvchi 2000 leksik birlikni bilsa va matndagi so`zlarning 70-80 foizini tushunsa matni tanishish uchun o`qishi

mumkin. Chunki eng kup qo'llaniladigan 2000 leksik birlik matnning 70-90 foizini koplagan bo'ladi.

O'quvchilar o'qiganda tushunishlari kerak bo'lgan leksik minimumni S.K.Folomkina ikkiga bo'ladi.

a) real passiv lugat b) potentsial lugat.

Passiv lugat taxminan 1500 leksik birlik bo'lib bundan 1200 leksik birlik o'quvchining aktiv lugat minimumini tashkil qiladi.

P a s s i v lugat minimumga o'quvchi avval uzlashtirgan, kurish-tinglash-motor tasviri o'quvchining uzok muddatli xotirasida saklangan, o'quvchi o'qish jarayonida taniy oladigan leksik birliklar kiradi. O'qituvchining vazifasi o'quvchini ushbu so'zlarni darhol taniy olish darajasiga kutarishdan iborat.

P o t e n t s i a l lugat minimumga o'quvchi xali maxsus urganmagan, lyokin tekstda uchratsa lugatsiz tushuna oladigan so'zlar kiradi. Bu so'zlarni tushunishni so'zning uzagini tanish, (yasama va kushma so'zlar), so'zning negizini ona tilidagi so'z bilan uxshashligi, so'zning ma'nosini tekstga karab faraz qilish va boshqalar ta'minlaydi. O'qituvchining vazifasi o'quvchilarni tekstdagi notanish so'zlarning ma'nosini lugatsiz tushunishga, ularni so'zlarning ma'nosini faraz kila olishga o'rgatishdan iborat.

O'qishga o'rgatish matnlar asosida bo'lganligi uchun ham ta'limning muvaffakiyati matnlarning harakteriga boglik. Ta'lim jarayonida o'qish uchun muljallangan matnlarga ma'lum talablar kuyiladi. Bu talablar quyidagilardan iborat:

1. Tektlar o'quvchilarda dunyokarashni tarkib topishiga kumaklashishi, jamiyat axlok normalariga mos tushishi, ijtimoiy-siyosiy va tarbiyaviy kimmatga ega bo'lishi kerak.

2. Tekstlar bilim berishi, ya'ni tili urganilayotgan mamlakat, uning xalki hamda kishilik bilimlarining turli soxalari haqida axborot berishi kerak.

3. Tekstning mazmuni o'quvchi yoshiga, bilim darajasiga va qiziqishiga mos tushishi kerak.

O'qish jarayoni har doim uning biror turida amalga oshiriladi. Matn harakteri jixatdan o'qish turlaridan biriga muljallangan bo'lishi lozim. Matnning kaysi o'qish turiga mos kelishini belgilashda quyidagilarni:

a) matn mantikiy tuzilishi va axborotga boyligini;

b) uning til materialini jixatidan murakkablik darajasini;

v) matn mazmunini hisobga olish zarur.

Matnning mantikiy tuzilishi o'qish jarayonida o'qish turiga ta'sir qilib, xatto o'qish turini uzgartirib yuborishi ham mumkin.

Matndagi axborot zichligi, tekstdagi asosiy va ikkinchi darajali axborot xajmining bir-biriga monandligi ham o'qish turi uchun muximdir. Masalan, fakat asosiy axborotga ega bo'lgan, ikkinchi darajali axborot 25 foizdan kam bo'lgan matn sinchiklab o'qishga muljallansa, ikkinchi darajali axborot 25 foizdan ortik bo'lgan matnlar tanishish uchun o'qishga muljallangani maqsadga muvofiq.

Kuz yugurtirib o'qish uchun matnning mantikiy tuzilishi va axborot zichligi xal kiluvchi rol' uynamaydi.

Matnning til jixatidan murakkabligi matndagi leksik va grammatik materiallarga boglik. Leksik kiyinchiliklarni belgilashda o'quvchilar uchun matni

o`qish jarayonida notanish bo`lgan so`zlarni, yangi urganilgan leksik birliklarni (chunki o`quvchi ularni ancha syokinlik bilan taniydi) hisobga olish zarur.

Grammatikaga oid kiyinchiliklarni belgilashda kushma va sodda gaplarning uzaro munosabati, ona tilida mavjud bulmagan jumlar tuzilishi, omonim va yangi urganilgan grammatik materiallarni hisobga olish zarur.

Yangi so`zlarning soni va joylashishiga kura matnlar o`qishning turli turlari uchun tavsiya qilinadi.

a) agar matndagi yangi so`zlar asosiy axborot bilan boglik bo`lsa, unda matn tushunish usullarini rivojlantirish uchun muljallanadi. Matndagi notanish so`zlar soni saxifada (1-2 ta) unchalik kup bulmasa, bundan matnni tanishish uchun o`qishga o`rgatishda foydalanish mumkin: agar notanish so`zlar soni kup bo`lsa (1 saxifada 10-12 ta notanish so`z 4-5 foiz) bunday matnni sinchiklab o`qish lozim.

b) Agar matndagi yangi so`zlar ikkinchi darajali axborotni ifodalashga karatilgan bo`lsa, bunday matnlar umumiy mazmuni kamrab olish uchun o`qishga muljallanadi. Har bir saxifadan notanish so`z 10-12 tadan oshmasa bunday matnlar tanishish uchun o`qishga muljallanadi.

SHuni aytish kerakki, har saxifasida notanish bo`lgan so`zlar soni 5-7 leksik birlikdan oshmagan tekstlar o`qishning bu turi uchun eng kulay hisoblanadi.

O`qishga o`rgatish bir necha boskichdan iboratdir. Har bir boskich uz vazifasiga ega.

IV-V sinflarda o`quvchi kurish sezgisi yordamida idrok kilgan nutqiy signallarni tovush signallariga aylantirishni urganadi. Bu boskichda o`quvchilar asosan ovoz chikarib o`qishga urganadilar. Biroq IV sinfdan boshlab ovoz chikarmay o`qishni o`rgatila boshlaniladi. O`quvchilar tanishish uchun o`qishga urganadilar. Asosiy o`qish tezlugini oshirishga, kurish sezgisi orkali qabul qilingan signallarni idrok qilishni avtomatizmga etkazishga karatiladi.

VII sinfning oxiriga kelib har bir o`quvchining ovoz chikarmay o`qish tezligi uning ovoz chikarib o`qish tezligidan ortishi kerak. Bunga erishish uchun o`quvchilarni sintetik o`qishda mashq kildirish lozim. Bu boskichda o`quvchilar notanish so`zlarning ma`nosini lugatsiz va lugat yordamida aniqlashga urganib boradilar. Bundan tashkari o`quvchilar ta`lim elementlarini uz ichiga oluvchi tanish material asosida tuzilgan matnlarni sungra yangi material asosidagi matnni o`qiydilar.

VIII-IX sinflarda o`quvchilar kuz yugurtirib o`qish usullarini egallaydilar, shu bilan birga tanishish uchun va sinchiklab o`qishni o`rgatish boshlanadi.

Har bir boskichdan avval o`quvchilar o`qish turlariga oid vosita (til materiali) va usullari bilan mashq qiladilar va ushbu mashqlar katorini bajargandan keyingina o`qishning konkret turida faoliyatni boshlaydilar. Birinchi xolatda o`quvchilar o`qish ko`nikma va malakalarini shakllantiradilar, sungra ularda o`qish turlariga oid malakalar rivojlantiriladi.

O`qish jarayonida kitobxon xal qilishi zarur bo`lgan akliy topshiriklarni shartli ravishda uch guruxga bo`lish mumkin.

- 1) Grafik signallarni qabul qilish va ularni ma`no bilan bog`lash;
- 2) Matnda mavjud bo`lgan axborotni qabul qilish;
- 3) Qabul qilingan axborotni mushoxada qilish.

SHunga kura o`qish jarayonidagi malakalarni a) til materialini tushunishga oid va b) matn mazmunini tushunishga oid malakalarga ajratish mumkin. Malakalar bir xil turdagi topshirikni bir necha marta bajarish orkali rivojlantiriladi. Mashqdagi topshirik va til materiali uzgartirib turiladi. Mashqlarning murakkabligi bir necha yunalish bo`yicha amalga oshiriladi. Masalan, til materiali murakkablashtiriladi. (so`zlar – so`z birikmalari – jumlar – abzatslar va tugallangan matnlar), o`quvchi mashqda e`tibor berish lozim bo`lgan ob`ektning soni orttirib boriladi, mashqni bajarishga sarflanadigan vaqt esa kamaytirib boriladi.

O`rta maktabda o`quvchilar o`qishning barcha turlari uchun zarur bo`lgan asosiy ko`nikma va malakalarni egallaydilar.

Til materialini tushunishga oid ko`nikma va malakalar.

Bunday ko`nikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirish uchun tilga oid (tayyorlov) mashqlar xizmat qiladi. Tilga oid mashqlar o`qish texnikasini shakllantirish, o`qishning lingvistik va psixologik mexanizmlari faoliyatini ta`lim maqsadiga kura tashkil qilishga karatilgan. Bunday mashqlar yordamida o`quvchilar chet tili harflarini bir-biridan va ona tili harflaridan farqlashga, ularni tanib olishga, harflarning kandy tovushlarni ifodalashini va harflar joylashgan urniga kura kandy o`qilishini mashq qiladilar va mustaxkamlaydilar. Bundan tashkari til materialini esda saklash, oldindan bilib olish, til materialining kandy ma`no anglatishini fikran taxmin qilish qobiliyatlari rivojlantiriladi.

Ta`lim jarayonida o`qish turlariga o`rgatuvchi mashqlar ham aloxida urin tutadi.

Matn mazmunini tushunishni ta`minlovchi malakalar.

Bunday malakalar nutq mashqlari yordamida rivojlantiriladi. Nutq mashqlari o`quvchilarda tekstni tarbiyaviy qismlariga ajratish, undagi asosiy so`zlarni aniqlash, ma`no jixatdan bulaklarga bo`lish, ushbu bulaklar o`rtasidagi bog`lanishni aniqlash, ularni umumlashtirish, xulosalash, tekst mazmuniga munosabat bildirish, bayon qilingan fikrni taxlil qilish va baholash kabi malakalarni rivojlantiriladi.

YOZUV VA FIKRNI YOZMA BAYON QILISHNI O`RGATISH

Avvalo yozuv va yozma nutq tushunchalarini farqlab olish zarur.

YOzuv nima? degan savolga javob berishdan avval grafema, grafika, orfografiya, tinish belgilari kabi tushunchalarni aniklab olish maqsadga muvofiqdir.

G r a f e m a – deganda ma`lum shaklga ega bo`lgan harf, harf birikmalari, tinish belgilari tushuniladi.

G r a f i k a – grafemalarning ma`lum til uchun qabul qilingan qoidalar asosida qo`llash imkoniyatlarini o`rganuvchi soxadir.

O r f o g r a f i y a esa grafemalarning har bir konkret xolda qo`llash qoidalarini urganadi.

YO z u v – deganda konkret tilga xos bo`lgan yozma nutq vositalari grafemalarni taniy olish, ularni kogoza tushira olish, shu tilga xos bo`lgan grafikani va orfografiyani bilish tushuniladi.

YOzma nutq keng tushuncha hisoblanadi. YOzma nutq deganda asosan ikki ma`noni anglash mumkin. YOzma nutq jarayon sifatida fikrni yozma ravishda bayon qilish, ifodalash va shu jarayonning natijasi bo`lgan matn ma`nolarini ifodalaydi.

SHuning uchun ham yozma nutq tushunchasi adabiyotlarda turlicha talkin qilinadi. Masalan, matn fikrni yozma ravishda bayon qilish jarayonining natijasi bo`lganligi uchun yozma nutq deganda kupincha kitobiy uslub nazarda tutiladi. Ayrim xollarda yozuv va yozma nutq tushunchalari chegaralanmaydi. Bizningcha, yozma nutq deganda, kanday uslub vositalaridan foydalanishdan kat`iy nazar fikrni yozma ravishda ifodalash, bayon qilishni tushunish maqsadga muvofiqdir.

YOzma nutq har doim og`zaki nutq asosida shakllanadi va yozma nutqni egallash jarayonida og`zaki nutq vosita, asos vazifasini bajaradi.

Psixologik no`qtai nazardan fikrni yozma ravishda bayon qilish murakkab va kup kirrali jarayondir. Bu jarayonda kurish sezgilari asosida so`zlarning grafik timsollari shakllanadi. Fikrni yozma bayon kilaolish uchun alifbo harflarini yozuvda tugri ifodalash, tovush va tovush brikmalarini harf va harf birikmalari orkali ifodalash, so`z va so`z birikmalarining grafik timsollarini ma`no bilan bog`lay olish va kogozga tushura olish, tinish belgilarini qo`llay olish va nixoyat uz fikrini mantikan ketma-ket, ushbu til qoidalariga amal kilgan xolda kogozga tushira olish lozim.

YOzma nutq avval kishi ongida shakllanadi va akliy faoliyatga oid murakkab harakat va amaliyot takozo qiladi. YOzma rivishda bayon qilishga muljallangan fikr avval ichki nutqda rejaga solinadi.

Sungra leksik birlik tanlash, ularni grammatik jixatdan kurish va jumla xoliga keltirish, jumlalarni ma`no va shakl jixatdan bir-biri bilan bog`lash kabi akliy faoliyat bajariladi. Bu jarayon ichki nutqda takrorlash va uni kogozga tushurish bilan yakunlanadi.

Uz fikrini yozma bayon kilayotgan kishi uylash va qayta uylash uchun etarli vaqtga hamda kushimcha manbalardan foydalanish imkoniga ega.

Og`zaki nutqda esa bunday imkoniyatlar yo`q.

Fikrni og`zaki va yozma bayon qilish nutq faoliyatining produktiv turiga kiradi. Fikrni yozma ravishda bayon qilish uni kogozga tushirish jarayonining ortikchaligi bilan og`zaki nutqda farq qiladi. SHunga karamasdan og`zaki nutqni ustirishga muljallangan mashqlar yozma nutqni ustirish uchun ham xizmat qilishi mumkin. YOzma nutq uz navbatida og`zaki nutq malakalarini ustirish uchun vosita vazifasini bajaradi.

Fikrni yozma ravishda bayon qilish faoliyatning o`qish turi bilan uzviy boglik. Nutq faoliyatining ushbu turlari uchun matn asosiy manba hisoblanadi. SHuning uchun ham tovush-harf munosabatlariga oid mashqlar ham o`qish texnikasini ham yozish texnikasini tezrok egallab olishga yordam beradi. CHunki har bir tilning talaffuz va grafik tizimi bir-biri bilan uzviy boglik. YOzuv hamda o`qish texnikasini o`rgatish zaminida bir-biriga uxshash psixologik jarayonlar yotadi. YOzuvda ular so`z obrazini yaratish va tiklashga, o`qishda esa uni tanib olishga karatilgan.

Fikrni bayon qilish jarayonida quyidagi akliy operatsiyalar sodir bo`ladi.

1. Tovushni idrok etish (biror kishi nutqini yozib olishda) yoki tasavvur etish (uz fikrini bayon qilishda).

2. Ma'lum grafemalarni bir-biri bilan bog'lash.

3. Nutqiy kinesteziya, ya'ni yozish jarayonida fikrni ichki nutqda takrorlab turish.

O'qish jarayonida quyidagi operatsiyalar bajariladi:

1. Grafik belgilarni kurib idrok qilish.

2. Ularning shaklini tovushlar anglatgan mazmun bilan uzaro bog'lash.

3. Nutqiy kinesteziya, ya'ni ovoz chikarib yoki ovoz chikarmay talaffuz etish.

YUqoridagi operatsiyalarning umumiyliigi yozish va o'qish texnikasini o'rgatishda kuppina bir xil metodik usullarni qo'llash imkonini beradi. YOzayotgan vaqtda tinglash va artikulatsiya organlari ham kuchsizlangan darajada ishtirok etadi, bunga sabab barcha so'zlar ichki nutqda takrorlanadi.

YOzuv va yozma nutq o'qishga oid malakalarning rivojlanishi uchun vosita vazifasini bajaradi. YOzish jarayonida barcha sezgi organlari ishtirok etadi. SHuning uchun ham yozuv va fikrni yozma bayon qilishga oid bajarilgan mashqlar nutq faoliyatining boshqa turlari uchun ijobiy ta'sir qiladi. So'zlarni eslab kolish va esda saklash ularni yozib olinganda yaxshirok amalga oshirilishi tajribada, yaxshi sinovdan utgan.

Fikrni yozma ravishda bayon qilishga o'rgatishni yozuv texnikasini o'rgatishdan boshlash maqsadga muvofiqdir. YOzuv texnikasini o'rgatish jarayoni uch boskichdan iborat.

1. Grafika (belgilarni yozish va bir-biri bilan bog'lash).

2. Kalligrafiya (xusnixat).

3. Orfografiya.

Grafikani o'rgatish a) tovush-harf munosabatlarini, b) tovushlarning bajaradigan funktsiyalarini o'rgatish bilan uzviy boglik. Har bir tilning tovush-harf munosabatlari uziga xos konuniyatlarga amal qiladi.

Nemis tilidagi tovush-harf nisbatida quyidagi konuniyatlarini kuzatish mumkin.

1) Tovush va harf o'rtasidagi mikdoriy moslikning yo'qligi. Bir tovushga harf birikmalarining tugri kelishi.

2) Harflarning turli xil o'qilishi.

3) Sinonim harf belgilarining mavjudligi.

4) Ba'zi harflarning o'qilmaslik xollari.

Tovush va harf o'rtasidagi mikdoriy moslikning yo'qligi, yozuvga o'rgatishda katta kiyinchilik tugdiradi. O'quvchilarning ona tilidagi harflarning chet tilida butunlay boshqacha o'qilishi ham yozuv jarayonida xatoga olib keladi.

Tovush va harf munosabatlari yuzasidan vujudga keladigan kiyinchiliklar va xatolarni bartaraf qilishda mashqlar eng asosiy vositadir. Tovush va harf muvofiqligi turgan bo'lsa, ya'ni bir harfga bir tovush tugri kelsa va yozuv ona tili salbiy ta'sir kilmasa, bu bog'lanishni avtomatlashtirish ancha oson kechadi, o'quvchilarni bunday harflarni yozishga o'rgatish uchun yarim mexanik tipdagi bir necha mashqlarni bajarish bilan kifoyalanish mumkin.

Tovush – harf munosabatlarida kiyinchilik tugdiradigan harfni o`rgatishda tovush va harflarni taxlil qilish mashqlarini o`tkazish yaxshi samara beradi.

Masalan, harflar miqdori va tovushlar miqdorini aniqlash va kiyoslash..

YOzuvga o`rgatishning ikkinchi boskichi o`quvchilarni xusnixatga o`rgatishdir.. CHet til xusnixatiga o`rgatish boshlangich sinfda ona tili yozuviga o`rgatish jarayonida orttirilgan tajribaga asoslanadi. CHet til o`qituvchisi yozuv vaqtida tugri utirish kul, barmoklar va panjalar kanday xolatda bo`lishiga, daftar va boshqa narsalar xolatiga tuxtalib utirmaydi. CHunki o`quvchi bu qoidalarni ona tili darslarida egallab olgan bo`ladi.

Metodik adabiyotlarda harflarning yozilishini o`tkazishga doir quyidagi kursatmalar berilgan va shu kursatmalar asosida ish olib borish kulaydir.

1. YOzma harfni aloxida namoyish qilish.
2. Uning ayrim elementlarini namoyish qilish.
3. Kerak bo`lib kolganda o`rgatilayotgan harfni yoki uning elementini ona tili va avval urganiqlan harf elementi bilan solishtirish.
4. Mazkur harfni yozishda kulning yunalishini namoyish qilish.
5. Mazkur harfni uzidan oldin kelgan yoki keyin keluvchi harflar bilan bog`lash usullarini kursatish.

6. So`zlarning yozma ravishda (bosma emas) yozilishini namoyish qilish.

Harfni uzlashtirish sinfda va asosan uyda bajariladigan mashqlar yordamida amalga oshirilgani maqsadga muvofiq.

O`quvchilar grafemalarning yozilishini uzlashtirib olishlari jarayonida orfografiya (tugri yozuv) qoidalari bilan ham tanishtirib boriladi. CHunki o`quvchilar chet til orfografiyasini soxasida ham ma`lum bilim, ko`nikma va malakaga ega bo`lishlari kerak.

Ma`lumki nemis tili orfografiyasi morfologik printsip ustunligida ham morfologik ham fonetik printsipiga va qisman tarixiy printsipga asoslangan. **M o r f o l o g i k** printsip so`zning ma`noli qismi kanday talaffuz kilinishidan kat`iy nazar hamma vaqt bir xil yoziladi.

F o n e t i k printsipga kura so`zning yozilishi uning tovushlar soni va mazkur tilning grafika qoidalariga mos bo`ladi.

T a r i x i y printsip. So`zning yozilishi xozirgi morfologik va fonetik faktlarga tugri kelmaydi, balki so`zning tarixiy rivojlanishi bilan boglik bo`ladi. So`z kadimda kanday yozilgan bo`lsa shundayligicha koladi.

Fikrni yozma bayon qilishni o`rgatishda o`quvchilarning orfografik xatolari ustida ishlash ham muxim ahamiyatga ega. So`zning tovush sostavini buzadigan notugri yozuvlarni **o r f o g r a f i k** xato deb ataladi. Xatolarning oldini olish va bartaraf qilishda kurgazmali kurollardan foydalanish yaxshi samara beradi. Bularga individual orfografik kartochkalar, o`rganayotgan so`zlarni yozish uchun kesma alifbo, turli jadvallar, devorga ilinadigan kuchma orfografik lugat va boshqalar kiradi.

Jumla ustida ish olib borish bilan fikrni yozma bayon qilishga tayyorgarlik boshlanadi. Bunday ishlarga quyidagilar kirishi mumkin.

Turli jumalarni kuchirib yozish, ularni tinglab, o`qib yozib olish xotirada saklagan jumalarni yozish, ularning shaxsini, sonini, zamonini, maylini uzgartirish;

jumlalarni kengaytirish yoki kiskartirish, gap bulaklarining urnini almashtirish, namunaga karab gap tuzish, matnga tayangan xolda savollarga javob berish, matn mazmuniga savollar tuzish va boshqalar. Bunday mashqlar nutq namunalarining timsollarini o`quvchi ongida shakllanishini ta`minlaydi.

Bundan tashkari til materialini xotirada saklash, uzlashtirish hamda tinglangan yoki o`qilgan jummalarni kogozga tushirish malakalarini rivojlantirish uchun ham xizmat qiladi.

Ta`limning boshlangich boskichida og`zaki va yozma nutq malakalari bir-biriga boglik xolda rivojlanadi. Til materialini tushuntirish va mustaxkamlash avval og`zaki amalga oshiriladi, sungra tayyorlov va nutq mashqlari yordamida yozma ravishda mustaxkamlanadi.

Fikrni kogozga tushirish malakalarini rivojlantirish yozuvga o`rgatishning sunggi boskichi hisoblanadi. Bu boskichda keng tarkalgan ish bayon yozishdir. Bayon fikrni ifodalash usuliga kura: tasvirlash, tushuntirish, mushoxada qilish; psixologik tayanch harakteriga kura: kurish, eshitish, kurish-eshitish; tajriba asosida fikrni bayon qilish usuliga kura: mantikiy, tarixiy, makonli, sabab-okibat, obraz xis-xayajon turlariga bo`linadi. Bayon yozishni o`rgatish quyidagi tartibda olib borilgani maqsadga muvofiq. O`quvchilarga reja tuzish, konspekt yozish tartib qoidalari o`rgatiladi. Sungra o`qigan yoki tinglangan matnga munosabat bildirish, matn mazmunini tankidiy nigox asosida baholash va bayon qilish mashqlari utkaziladi. O`quvchilar annotatsiya (tekst mazmunini kiska bayon qilish), tekstlar asosida referat yozishga o`rgatiladi. SHundan keyingina o`quvchilar bayon yozishga kirishsalar kutilgan natijaga erishish mumkin.

O`quvchilar xayotiga yakin yozma ish turlaridan biri maktub yozdirishdir.

O`quvchilarga maktub yozdirish uchun dars jarayonida ularga maktub yozish qoidalarini o`rgatish zarur. Buning uchun o`quvchilarga urganilayotgan tilga xos bo`lgan salomlashish, murojaat, tashakkur, xayrlashish, maktubga xos bo`lgan iboralarni o`rgatish lozim.

Bundan tashkari maktub matnini. (oy, kun, joy, nomi, murojaat, xayirlashish iboralari, manzilgox) kogozga joylash qoidalarini o`rgatish ham zaruriy ishlardan hisoblanadi.

O`quvchilarni fikrini yozma bayon qilishga o`rgatish bilan bir katorda matnda tinish belgilarini tugri ishlatishga ham o`rgatish talab etiladi. CHunki chet tillarda qo`llaniladigan tinish belgilari ona tilidagi tinish belgilaridan farq qilishi mumkin. O`quvchilarga bugin kuchirish qoidalarini o`rgatish va mashqlar bajarish ham talab etiladi.

O`quvchilarning tugri yoza olishlarini tekshirish uchun tez-tez diktantlar utkazib turish kerak. Diktant yozishga ularni oldindan tayyorlab borish maqsadga muvofiqdir. Notanish materialdan diktant uchun foydalanmagan ma`kul. O`rta maktablarda diktantning quyidagi turlarini o`tkazish tavsiya etiladi.

1. Kuz xotirasi diktanti.

O`qituvchi matndagi bir jumalani o`qiydi, sungra ushbu gapni doskaga yozib, o`quvchilarga dikkat bilan kurib chikishni suraydi, sungra doskadagi gapni uchiradi. O`quvchilar ushbu gapni yoddan yozadilar. O`qituvchi gapni doskaga qayta yozadi. O`quvchilar yozganlarini tekshiradilar.

2. O'g'oxlantiruvchi diktant.

O'qituvchi bir jumlaning og'zaki aytadi, fonetik va grammatik jihatdan taxlil qilinadi. Sungra o'qituvchi o'quvchilardan daftarini tekshiradilar. Ushbu gap yana qayta tahlil qilinadi.

3. YO'ddan diktant.

O'quvchilar yodlagan matn yoki she'rlarini yoddan yozadilar. Bu diktant to'g'risida o'quvchilar oldindan bilmaydilar. Ammo o'qituvchi yodlashga bergandan keyin so'zlarning yozilishiga e'tibor berishni aytib qo'yadi.

4. Erkin diktant.

O'qituvchi tanish so'zlarga asosan tuzilgan matnning o'qiydi. Savollar berib o'quvchilarning tushunganliklarini tekshiradi. Yana o'qiydi. Sungra shu matnga yaqin mazmundagi hikoya yozishni buyuradi.

5. Eshitish diktanti.

Bu odatdagi diktant bo'lib, o'qituvchi tanish so'zlardan tuzilgan matnning gapma-gap aytib turadi. Bunday diktantga o'quvchilarni 1-2 hafta tayyorlash va matnda notanish so'zlar bulmasligi lozim.

6. Tarjima diktanti.

Uzbek tilida so'zlar aytib turiladi. O'quvchilar bu so'zlarning tarjimasini chet tilda yozib boradilar. Bunday diktant yordamida o'qituvchi urganilgan so'zlarni o'quvchilarning kandy uzlashtirib olganliklarini aniklab oladi.

5-sinflarda kuprok diktantlar utkazilgani maqsadga muvofiq.

5-sinfdan boshlab diktantlar bilan bir katorada grammatik va leksik materialni uzlashtirishni nazorat qilishga karatilgan yozma ishlar utkazib turish lozim.

Grammatikadan utkaziladigan yozma ishlarga quyidagi topshiriklarni kiritish mumkin:

1. Gaplardagi fe'llarning ma'nosiga karab tegishli zamonga kuyish.

2. Gapda bush kolgan joyga ma'nosiga kura artikllar, olmoshlar yoki predloglar kuyish.

3. Gaplardagi olmoshlarni tegishli kelishikda ishlatish.

4. Sifatlarni tegishli darajada ishlatish.

5. Darak gaplarni surok gaplarga va surok gaplarni darak gaplarga aylantirish.

6. Kuchirma gaplarni uzlashtirma gaplarga va uzlashtirma gaplarni kuchirma gaplarga aylantirish.

Leksikaga oid yozma ishlarda quyidagicha topshiriklarni bajarish mumkin.

1. Utilgan leksik material asosida tuzilgan gaplarni chet tildan ona tiliga va ona tilidan chet tiliga tarjima qilish.

2. Gapdagi bush kolgan joylarga ma'nosiga karab tegishli so'zlarni tanlab kuyish.

3. Berilgan tayanch iboralar asosida mavzuni yoritish.

4. Rasmni tasvirlash.

5. Matnning kiskartirish.

6. Annotatsiya yozish.

7. Matnning kengaytirish.

8. Refarat yozish.

9. Bayon yozish.

10. Insho yozish.

YOzma ishlarni o`tkazish, tekshirish va baholash, o`qituvchidan jiddiy e`tibor talab etadi. O`qituvchi yozma ishlarni o`tkazishga puxta tayyorgarlik kurishi kerak. YOzma ish materiali sinfda ishlangan va o`quvchilar uzlashtirib olgan bo`lishi lozim. YOzma ish uchun tayyorlangan topshiriklar ikki yoki undan ortik variantda bo`lishi talab etiladi. Bu o`quvchilarning bir-biridan kuchirishiga imkon bermaydi. O`quvchilar yozma ishni bajarish vaqtida yakkadan utkazilgani ma`kul. YOzma ish vaqtida o`qituvchi sinfda o`quvchilarni nazorat qilib turishi biroq topshiriklarning bajarilishini aytib bermasligi lozim.

YOzma ishni bajarib bo`lgan o`quvchi daftarni o`qituvchiga topshiradi va sinfda ishlab turish uchun kushimcha topshirik oladi.

YOzma ishlarni tekshirish paytida o`qituvchi xatolar ostiga kizil kalam bilan chizadi va daftar xoshiyasiga belgi qo`yadi yoki xato yozilgan so`zni chizib, ustiga tugri shaklini yoziladi. Takrorlangan xatolar haqida xoshiyaga belgi kuyilmaydi. Topshirikning bajarilishi va matndagi xatolar soni hamda xusnixatni hisobga olgan xolda kuyiladi.

YOzma ishning xajmiga karab, agar o`qituvchi yozma ishni tekshirib va baholab ulgurgan bo`lsa dars oxirida yoki navbatdagi darsda xatolar ustida ishlanadi. Sinfidagi kupchilik o`quvchilar yo`l kuygan xatolar sinfda taxlil qilinadi va kushimcha misollar yordamida qoidalar mustaxkamlanadi. Kushimcha ishlangan misollarni o`quvchilar sinf daftariga yozib oladilar.

Fikrni yozma ravishda bayon qilishni o`rgatishning kiyinchiligi bu jarayonning psixologik jixatdan murakkabligidadir, og`zaki nutq nutq organlarini harakatga keltiruvchi bog`lanishlar yordamida amalga ohsa, yozuvda kurish, eshitish, va boshqa nutq organlarini harakatga keltiruvchi motor-grafik bog`lanishlar ham yordamga keladi. YOzma nutqda fikr tula yoritilishi zarur. Agar so`zlovchi og`zaki nutqda kul harakati, imo-ishora, intonatsiya kabi bir kator yordamchi vositalardan foydalana olsa, fikrni yozma bayon qilish vaqtida bunday imkoniyatlar bulmaydi.

YUqoridagilarning hammasi yozma nutqning og`zaki nutqqa nisbatan murakkabligini kursatadi.

Matn tuzishdan avval nimani yozish kerakligini oldindan tasavvur qilish muximdir. SHuning uchun ham o`quvchilar mavzuni puxta uzlashtirib olishlari zarur.

Dasturdagi yozma nutqni rivojlantirishga muljallangan suxbat mavzulari bo`yicha olib boriladigan ishni taxminan quyidagi boskichlarga bo`lishi mumkin:

1. Boskich: Mazkur mavzu yuzasidan ishlangan modellar bo`yicha sinfda og`zaki ish olib borish.

2. Boskich: SHu modellarni uzlashtirish uchun uyga yozma topshirik berish. (Savollarga javob yozish).

3. Boskich: Berilgan mavzu yuzasidan sinfda og`zaki nutq mashqlari o`tkazish. (So`zlar ustida ishlash, gaplar tuzish, savollarga javob berish).

4. Boskich: YOzma nutqni rivojlantirish uchun uyga yozma topshirik berish. (Uz oilangiz haqida matn tuzing).

YOzma nutqka oid uyga berilgan vazifaning xususiyatini

- 1) o`quvchilarning tilni kay darajada bilishi va
- 2) ularning yoshiga karab belgilanishi.

Mashqlar o`quvchilarning bilim darajalariga mos bo`lishi va nixoyatda sodda ham, murakkab ham bulmasligi kerak.

Boshlangich sinf o`quvchilari uzlari uylab to`qishdan kura eshitganlarini ancha xavas bilan takrorlaydilar. Biroq ular matnning mazmunini uz so`zlari bilan aytib bera olmaydilar. SHuning uchun boshlangich sinf o`quvchilari kuprok taklid mashqlarini bajarishlari maqsadga muvofiq.

YUqori sinflarda esa o`quvchilar matnning mazmunini uz so`zlari bilan bayon qilish malakalarini ancha egallagan bo`ladilar.

YOzuv va fikrni yozma ravishda bayon qilish ko`nikma va malakalarini shakllantirish hamda rivojlantirish maqsadga yunaltirilgan mashqlarni bajarishni taqazo qiladi.

Barcha yozma mashqlarni ikki guruxga ajratish mumkin:

1. YOzuv mashqlari.
2. Fikrni yozma ravishda bayon qilish mashqlari.

YOzuv mashqlari harflar, so`zlar va so`z birikmalarining tugri yozilishi va tinish belgilarining ishlatilishini o`rgatadi.

M: - Mazkur tovushni kanday harf birikmasi orkali ifodalanishini kursating.

- Bir tovush turli harflar bilan ifoda qilinadigan so`zlarni matndan kuchirib yozing.

- Berilgan harfni namunaga karab bir necha kator yozing va x.k.

Fikrni yozma ravishda bayon qilishga oid mashqlarni ikki guruxga bo`lish maqsadga muvofiqdir.

1. Tayyorlov mashqlari.
2. Nutq mashqlari.

Tayyorlov mashqlariga matn ustida ishlaganda tanlab olingan ayrim modellarni uzlashtirish uchun qo`llanilgan ish turlari kiradi. Jumlani qayta tuzish, matni kiskartirish, matnga reja tuzish va shu kabi mashqlar. Matn mazmunini qayta bayon qilish tayyorlov mashqlari bo`lib xizmat qilishi mumkin.

Nutq mashqlariga:

1. Bayon yozish. 2. Insho yozish. 3. Maktub yozish. 4. Annotatsiya tuzish va boshqalar kiradi.

CHET TILI DARS I VA UNI REJALASHTIRISH

DARS

O`quv yurtlarida ilm, bilim, ma`lumot olish va berish maqsadida utkaziladigan mashgilot, sabok yoki dars deb yuritiladi. Dars o`rgatish va o`rganish jarayonidir. Dars maktabda o`quv ishilarini tashkil etishning asosiy shakli hisoblanadi. Dars bir xil tarkibdagi o`quvchilar bilan kat`iy jadval asosida ma`lum didaktik maqsadni amalga oshirish jarayonidir.

Ma`lumki darsda o`qituvchi va o`quvchi ishtirok etadi. O`qituvchi no`qtai

nazaridan esa dars o`qish, o`rganish jarayoni hisoblanadi. Aslida dars o`qish va o`rganishga o`rgatish jarayoni bo`lgani ma`kulrok. Bilimlarni egallash o`quvchilarning faolligi, o`qish, o`rganish faolligi asosidagina amalga oshiriladi. Dars jarayonida ta`limning psixologik va didaktik sharoitlariga asoslanish asosiy vazifa bo`lishi kerak.

Dars fakatgina o`qituvchining tashkiliy pedagogik harakati bulmay balki, ta`lim oluvchi va ta`lim beruvchining ikki tomonlama faoliyatidir.

SHuning uchun ham dars nazariyasini xal qilishda bir tomondan nutq faoliyati nazariyasining dalillarini hisobga olish zarur.

DARSNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

O`quvchining bilish faolligiga ta`sir qiladigai psixik xolat va jarayonlar darsning psixologik asosi hisoblanadi. Bunga birinchi navbatda diqqat, bilimlarni egallashga karatilgan ichki tayyorlik, ylapning bilish minnatdorligi, fikriy faolligi, irodaviy yz uzini majbur kila olish, ishdagi kat`yiligi va o`quvchining intilishlari kiradi. O`quvchning bilim olishga karatilgan ijobiy kayfiyati va uning urinishlari ham kup narsaga boglik.

DARSNING DIDAKTIK ASOSLARI

Darsning didaktik asoslari deganda o`quvchilar diqqat e`giborinn ta`limiy vosita va usullari bilan o`quv magerialiga jalb qilish o`quvchilarda bilish jarayoniga va fikrlash faolligiga kandy qilib ta`sir o`tkazish, o`quvchilar bilishga ichki tayyorlash, o`quvchini kiziktirish, iniltirish kabilarni kiritish mumkin.

CHET TILI DARSINING XUSUSIYATI

CHet tili darsining boshqa predmet darslaridan sifat jixatidan farq qilishi tamomila tabiydir, chunki chet tili predmeti uziga xos xususiyatga ega. Bu xususiyatlarni chet tilini o`quv predmeti taxlil qilish asosidagina aniqlash mumkin.

CHet darslarning maqsadi o`quvchilarni chet tilidan muomila sifatida foydalanishga o`rgatishdir.

CHet tili darslari bu xususiyati bilan boshqa predmetlardan, shu jumladan, asosiy vazifasi fikrni ifoda etishda qo`llaniladigan usullarni anglash va til tizimining ma`nosini tushunishdan iborat bo`lgan ona tili darslaridan ham farq qiladi.

DARS REJASI

Dars rejasini tuzishda kalendar – tematik rejaga asoslanadi.

Darsning plan konspektini tuzishda quyidagi omillarni hisobga olish zarur.

1. CHet tili darsida nutqiy ko`nikmalar shakllantiriladi va malakalar rivojlantiriladi.

2. Darsning mazmuni sifatida kat`iy ketma-ketlik asosida bajariladigan mashqlar kompleksi xizmat qiladi.

3. Dars jarayonida amaliy, umumta`lim, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarni muomala jarayonida amalga oshiriladi.

4. Darsni rejalash jarayonida o`quvchilarni yosh xususiyatlari hisobga olinadi.

5. Har bir darsning vazifasi boshqa darslarga bogʻlanagn xolda darslar katorida belgilanadi.

6. Til materiali kompleks ravishda takdim qilinadi.

Taʼlim birligi boʻlib nutq namunalari xizmat qiladi. Dastlabki, boskichda taʼlim birligi sifatida jumla yoki diologik birlik, keyingi boskichda esa mantikan va tematik bogʻlangan nutq naʼmunasi xizmat qiladi. (monolog yoki dialog)

7. nutq faoliyatining har bir turi uchun mashqlar kompleksi mavjud va darsda ulardan foydalaniladi.

8. nutqiy praktika (mashq) tabiiy muomala sharoitiga yaqinlashtiriladi, yani muomalaga yunaltiriladi, motivlashtiriladi va vaziyatga moslashtiriladi.

9. oʻqituvchi faoliyati oʻquvchida qiziqish uygotishi va ularni bilishga intilishini kuchaytirishga erishiladi.

10. har bir darsda takrorlash uchun materialdan foydalaniladi.

11. darsning samaradorligi oʻquvchilarning nutqiy faolligi bilan belgilanadi.

12. darsda oʻquvchilar bilim, koʻnikma va malakalarini muntazam kuzatib boriladi.

13. darsning mazmuni oʻquvchilarni uy vazifasini bajarishga tayyorlaydi.

14. dars chet tilida oʻquvchilar uchun tushunarli tarzda olib boriladi.

15. chet tili darsi darslar tizimining tarkibiy qismi hisoblanib, har bir darsda asosiy eʼtibor nutq faoliyatining turlarida maʼlum til materialini uzlashtirib olishga karatiladi.

DARSNING TIPLARI

Metodikada chet tili darslarini 2 tipga boʻlish qabul qilingan.

1-tip. Darsning birinchi tipida oʻquvchining faoliyati til materialidan foydalanishga oid koʻnikmalarini shakllantirish va malakalarini rivojlantirishga karatiladi. Bunday darslarda

a) yangi material bilan tanishtirish va qoʻllashga oʻrgatish.

b) YAngi materialni (nutq faoliyati turlarida) qoʻllashga oʻrgatish asosiy urinni egallaydi.

2-tip. Bunday darslarda oʻquvchilar nutq faoliyatini turlarida muomila qiladilar. Natijada nutq faoliyati turlaridan biri yoki nutq faoliyatining barcha turlari bir - biri bilan boglik xolda rivojlantiriladi.

Taʼlim jarayonida darsning ikkala tipi nutq faoliyatining xususiyati oʻquv materiali va taʼlim vositalarining xususiyatlarini hisobga olgan xolda almashtirib turish maqsadga muvofiq.

Darsni tashkil qilishda va oʻtkazishda tanikli ingliz metodisti M. UEST takidlaganidek asosiy eʼtibor:

a) oʻquvchilarning tildan foydalanish mashqlariga vaqtni kuprok ajratishga;

b) sinf ustidan nazorat saklashga;

c) oʻquvchilarda yuzaga keladigan charchokni kamaytirishga karatilishi lozim.

Ilmiy adabiyotlarda o`quvchilarni diqqatini bir ob`ektda tuplashning optimal muddati 15-20 minutdan iborat ekanligi va bu muddat tugagan chogda o`quvchilar diqqatini susayishi ta`kidlangan.

Tajriba o`quvchilarning ishga layokatli muddatining optimal davomiyligi ish turlarini uzgartirilib turganda 25-30 minutni tashkil qilishini kursatadi.

DARSNING MAQSADI

Har bir darsda o`quvchilarning bilimlarini uzlashtirishlariga va uz bilimlarini amalda qo`llay oladigan bo`lishlariga erishishi ularda ijodiy faoliyat ko`nikmasi xosil qilish va shaxs fazilatlarini tarbiyalab berish maqsadi kuyiladi. Har bir dars ta`limning umumiy maqsadi tuldiriladi, shu maqsad uchun xizmat qiladi.

Metodik adabiyotda chet tili darsining maqsadi ikki xil talkin kilinishini kuzatish mumkin.

1. Til materialini takdim etish.

2. Nutq ko`nikma va malakalarini shakllantirish va rivojlantirish.

Yuqoridagi ikki tomonni bir - biridan ajratish xatodir. Til materialini uzlashtirish o`quvchilarning og`zaki va yozma nutqini ustirish uchun asos bo`lib xizmat kilgandagina, dars, nutq faoliyati ko`nikmasi va malkalarini xosil qilish va rivojlantirishning boskichi sifatida ahamiyat kasb etadi.

TASHKILY DAVR

Har bir dars tashkiliy davrdan boshlanadi: Bu davrda o`quvchilar sinf xonasi, ta`lim vositalari darsga tayerlanadi. Ayniksa o`quvchini psixologik jixatdan darsga tayerlash muxim rol uynaydi. O`quvchilar avvalgi dars yoki tanaffusda bo`lgan biror vokea. xodisa e`tiborini ta`sirida bo`ladilar. SHuning uchun ham o`qituvchi o`quvchilarning e`tiborini. diqqatini. xaelini fikriy faollikini uz darsiga burishi lozim. O`quvchilarda darsga ichki tayergarlikni ta`minlash eng dolzarb vazifadir. Odatda bu davrda kuydagi usullar keng qo`lluniladi. jumladan:

1. O`qituvchi darsga kiradi, sinfni kuzdan kechiradi, boshqa ish bilan band bo`lgan o`quvchiyoki o`quvchilar tayer bulgunlariga kadar ularni kuzutgani xolda kutib turadi, sungra salomlashadi. Bu urinda o`qituvchi sinfnig tozaligi, doska, latta, bur kabi vositalarning darsga tayerligi, o`quvchilarning kiyimlari kurinishlari, bosh kiyimlarning echilganligi va boshqalarga konikkanidan sung salomlashsa va bu har darsda takrorlansa ushbu o`qituvchining darsiga talab darajasida tayergarlik kurishlari odat tusiga kirib koladi.

2. Ma`lum o`quvchining shaxsiga tegmagan xolda tanbex berish usuli bilan sinfni, xonani darsga tayerlash va jimlikni ta`minlash mumkin.

3. O`quvchilarni avvalgi ta`surotlaridan chalgitish, ulardan ichki faollikni ta`minlash maqsadida barcha o`quvchilar biladigan va ushbu darsga aloqasi bo`lgan vokeani eslatish mumkin.

4. O`quvchilar diqqat e`tiborini jalb qilish niyatida o`qituvchining uzi namuna kursatish kogozlarini turishi, stol oldiga kelib tkrishi, kitob daftarini stol ustiga kuyishi va o`quvchilardan ham ushbuni talab qilishi mumkin.

Bularning hammasi o`qituvchining muomila madaniyatiga, o`quvchilarga bo`lgan samimiy munosobatiga va uning pedagogik kollektivdagi obru e`tiboriga, kati yatiga, uzini tutishi va bir so`z bilan aytganda pedagogik maxoratiga boglik.

Darsni boshlashdan avval extietsizlik bilan qilingan har bir harakat yoki aytilgan soʻz oʻquvchilarni ranjitishi, darsdagi psixologik xolatini, vaziyatni buzishi va oʻquvchilar ruxiyatiga salbiy taʼsir kursatishi mumkin.

Xonada oʻquvchilar eʼtiborini tortadigan narsalarni oʻquvchilar eʼtiboridan chetda saklash lozim. SHuning uchun ham yangi darsga tegishli boʻlgan kurgazmali kurollar, tablitsalar va rasmlarni avvaldan ilib kuyish tavsiya kilinmaydi. SHu bilan birga darsdan avval turli tadbirlar haqida xabar berish yaramaydi.

Tashkiliy davr kup vaqt olmasligi lozim. Pedagogikada bu davr uchun bir necha sekunddan bir minutgacha vaqt beriladi. Buni taʼminlash uchun oʻqituvchi avvalgi darslarida bunga kuprok vaqt ajratish lozim. Toki sinfni darsga tayer xolda turishi oʻqituvchi va oʻquvchilar uchun ham odat tusiga kirib kolsin. «U domlamiz indamaydi», «domlamizga baribir», «tezrok bulinglar domla kelyapti», yana tanbex eshitamiz» degan jummalarni bir oʻquvchidan eshitish mumkin. Kaysi jumlani aytirish oʻqituvchining uziga boglik.. SHuni unutmashlik kerakki bilimdon. talabchan oʻqituvchini aksariyat oʻquvchilar xurmat qiladilar. Tashkiliy davr oʻquvchilar ham ruxiy ham jismoniy kuch kuvvat berishi lozim. Bu kupincha oʻqituvchining ovozi, salomlashishi, kayfiyati, uzini tutishi, tashki kurinishi, samimiyligi, yumorga boyligi bilan belgilanadi.

TIL MUHITINI YARATISH

CHet tili darslarida boshqa darslarga karaganda bir boskich ortikcha xolatni : komponentni kuzatish mumkin.

Darsni til muhitini yaratishdan boshlash shu komponetga taloʻqlidir. Til muhitini turli usullar bilan yaratish mumkin. Ulardan ayrimlarini keltiramiz.

- Gurux navbatchisining chet tilidagi axborotini tinglash : oʻquvchi, oy, kun, sinfnig darsga tayerligi, oʻquvchilarning darsda ishtiroki, ob - xavo haqida axborot beradi. Navbatchining axboroti darsdan darsga mazmunan boyishi shaklan esa murakkablashib borishi lozim.

- Oʻquvchilarni uzaro soʻzlashishi ham juda yaxshi natija beradi. Oʻqituvchi sinfga kirib darsni boshlagandan sung bir oʻquvchini doska oldiga chikaradi, u sinfga bir kator savollar beradi. Uning savollari tugagach oʻquvchilar uz joyida turib unga savollar beradilar. SHunday qilib 3-4 minut davom etadigan «oʻquvchi - sinf» va «sinf-oʻquvchi» soʻzlashishi til muhitini hamda darsda zarur boʻlgan ish sharoitini yaratadi. Agar bunday suxbatlar muntazam yangi mazmun bilan toʻldirib borilmasa va muntazam utkazilmasa yaxshi natija bermaydi.

- Darsning boshlanishi xilma-xil boʻlishi uchun, baʼzi oʻqituvchilar sinfga kirish bilanok oʻquvchilarga daftarini ochishni, chisloni ezishni va oʻqituvchi doskaga nima yozsa shuni kuchirib ezishni buyuradi. Oʻqituvchi doskaga oldingi darsdan urganilgan soʻzlar va iboralarni uz ichiga olgan bir necha gap ezadi. Ushbu material ogʻzaki ishlanadi.

- Boshqa oʻqituvchilar darsni oʻquvchilarga tula tushunarli material asosida tuzilgan hikoya bilan boshlaydilar. Bu asosan tinglash mashqlari boʻlib, uning materiali kanchalik kizikarli boʻlsa, oʻquvchilar uni shuncha qiziqish bilan eshitadilar.

- Kupchilik muallimlar talaffuz mashqlaridan bohlashni foydali deb hisoblaydilar. Bunday mashqlar bajarib o`quvchilar tovushlarini, tovush birikmalarini, va malakalarini nazorat qilish niyatida utilgan dars suraladi, o`quvchilar faoliyati bilanadi.

SO`RASH VA BAHOLASH

Utilgan darsni so`rash va baHolash onglilik, ketma-ketlik va boshqa bilimlarni uzlashtirishning mustaxkamligi printsiplariga asoslanadi. Ta`lim jarayonida, ayniksa chet tili darslarida agar o`quvchi utilgan darsni uzlashtirib olmagan bo`lsa, olga siljish mumkin emas. Olga siljish ikki yo`l bilan amalga oshiriladi.

Ulardan birinchisi:

1. Olga siljish uchun o`qituvchi o`rgatilgan materialni o`quvchilar tomonidan uzlashtirish sifatini tekshiradi va baHolaydi.

2. Olga siljish uchun o`qituvchi o`quvchining bilim, ko`nikma va malakalarini fakat tekshiribgina kolmasdan, balki o`qituvchi o`quvchiga materialni baen qilishga yordam beradi, o`quvchini cho`qurrok fikrlashga o`rgatadi. Bu xolatda so`rash jaraeni So`rash – o`rgatish jaraeniga aylantiriladi. Pedagogik no`qtai nazardan bu jaraen kuprok eklanadi, va maqsadga muvofiq deb Hisoblanadi. SHuning uchun xech kachon tekshirish uchun tekshirmaslik, balki nazorat qilib borish va ta`lim berib nazorat qilishga erishmok lozim.

- Darsda uy vazifasini tekshirish boskichini bo`lishi Har doim Ham shart emas, balki darsning boshqa boskichlariga kushib yuborish Ham mumkin. Bu o`qituvchining uddaburonligiga boglik.

So`rash jaraeni o`quvchining qiziqishi va faolligini oshirish va o`quvchi uchun kelgusi darsda asos bo`lib xizmat qilishi lozim. Uy vazifasini so`rashga oid topshirik o`quvchining bilim, darajasiga mos buliHi va darsdagi ishning davomi bo`lishi lozim. Masalan, agar darsda mavzu yuzasidan savollarga javob berish mashqi bajarilgan bo`lsa, o`quvchi uyda boshqa savollarga yangi situattsiyada javob berishi , agar rasmga karab Hikoya qilingan bo`lsa, uyda boshqa uxshash rasmga karab Hikoya tuzish topshirigi bajarilishi lozim.

O`rta maktab o`quvchilariga chet tilida gapirish, gaplashish va o`qishni o`rgatish vazifasini yuklagani uchun Ham nazorat ob`ekti bo`lib nutq faoliyatining ushbu turlariga oid ko`nikma va malakalarning rivojlanganlik darajasi bo`lishi lozim.

Utilgan dars yuzasidan uy vazifasini so`rash yangi mavzuga utish uchun kuprik vazifasini bajarishi lozim. Biroq yangi mavzuga utishdan avval suralgan dars materiali yana bir bora o`qituvchi tomonidan o`quvchilarning faol ishtirokida kiskacha takrorlanishi ayni muddao bular edi. Bu takrorlash frantal savol - javoblardan, o`qituvchining kiskacha izoHi, sinov savollar bilan o`quvchilarga murojati va boshqa usullardan iborat bo`lishi mumkin.

Zamonaviy metodika chet tili darsining asosi muomilaga o`rgatish bo`lishi lozim deb Hisoblaydi. SHu munosabat dars boskichlari, «qism»lari Haqida turli fikrlarnini guvoxi bo`lishi mumkin. Masalan, «umumiy metodika» ... avtorlari yangi materialni takdim qilish va tushuntirish boskichi, darsning mustakil boskichi

sifatida bo`lishi shart emas. chet tili darsi o`quvchilarda ko`nikma va malakalarini shakllantirish va ustirish darsi bo`lganligi sababli «takdim qilish » va «mustaxkamlash» boskichlari birlashtiriladi deb Hisoblaydilar.

YAngi materialni takdim qilish, tushuntirish avval keladimi yoki o`quvchilar tomonidan yangi materialni esga tushurish mashqlardan keyin bo`ladimi, baribir, dastlabki ko`nikmalarni tarkib toptirish bilan boglik. Tushuntirish va mashqlar bajarish bir jaraenda olib boriladi. YAngi til materiali (ibora, so`z, grammatik, fonetik, leksik xodisa) o`qituvchi tomonidan og`zaki yoki ezma ravishda qilinadimi bundan kat`iy nazar, «umumiy metodika»... avtorlari fikricha, dars boshlanishida tushuntirilishi maqsadga muvofiqdir. Bu yangi materialni uzlashtirish uchun etarli vaqt ajratish va o`quvchilarning materialini uzlashtirib olganliklari nazorat qilish imkonini beradi.

Kombinatsiyalashtirilgan nutq darslarida dars boskichlarining quyidagi izchilligini kuzatish mumkin.

a) til muhitini yaratish

b) yangi materialni uzlashtirish

v) yangi material asosida nutq faoliyatining turlariga oid ko`nikmalarni shakllantirish va malakalarni rivojlantirish.

Sof nutq darslarida nutq mashqlari bajarilib, bu jaraenda takrorlash, mustaxkamlash va o`quvchilar malakasining rivojlanish darajasini nazorat qilish kushib olib boriladi.

Darsning tarkibiy qismi Haqida turli fikrlar mavjud . Fikrimizcha «ingliz tili o`qitish metodikasi» avtorlari U.X. Xoshimov, I. YA. YAkubov (Toshkent 1993 yil) dars jaraenini uch boskichga bo`lib amaliyga yaqin turganlar. Ularning fikricha birinchi boskichda chet tili muHiti yaratiladi, ya`ni a) dars tashkil qilinadi b) fonetik mashgulot v) og`zaki nutqka oid mashgulot utkaziladi.

Darsning asosiy qismini tashkil kiluvchi ikkinchi boskichda yangi til materiali takdim qilinadi, tinglab tushunishni, gapirish, o`qish, ezish ko`nikmalari shakllantiriladi va malakalari shakllantiriladi.

darsning yakunida, ya`ni uchinchi boskichda: 1)darsga yakun yasaladi, 2) o`quvchilarning darsdagi faoliyatlari izoHlanadi baHolanadi, 3) uy vazifasi beriladi.

YAngi materialni ma`lum qilish va tushuntirish aloxida boskichi yoki yo`qmi bu xolda baxsni tuxtatib, aytishimiz mumkin bu darsning tarkibiy qismiga kiradi.

YANGI MATERIALNI TUSHUNTIRISH

YAngi materilni tushuntirish jaraenida o`quvchilarning tildan amalda foydalanishga o`rgataetganimizni unutmasligimiz kerak. SHuning uchun Ham bu jarayonining metodik mazmunini

1) Nutqka yunalagnlik.

2) Situativlik.

3) Funtsionallik printsiplari tashkil qilish kerak. (E.I.Passov).

Nutqka yunalganlik deganda

a) materiallarni amalda qo`llanilishini Hisobga olish,

b) barcha mashqlarni nutqka mosligi

v) motiv (o`quvchining nutqda ishtirok etishi xoxishini yaratishga) ga aloxida e`tibor berish lozim. Situativlik printsiptini tugri tushunish uchun metodikada situatsiya deganda nimalar nazarda tutilishini aniklab olish zarur.

Situatsiya (vaziyat)-mavjud xolatlar yigindisi,

- SHart-sharoitlarikompleksi,
- Harakatlar kompleksi,
- Munosabatlar yigindisi, majmui,
- Vokealar ketma-ketligi,
- Til muHiti,
- Tilga oid bulmagan muHit,
- Tilga oid va oid bulmagan shart-sharoitlar majmui,
- Nutq Harakati uchun fon,
- Nutqiy undov

Demak situativlik deganda nutqning shakl va mazmun jixatdan muHitga mosligini tushunish mumkin.

Funksionallik birinchi navbatda nutq birliklarining vazifasini nazarda tutadi. Darsda qo`llanilayotgan Har bir nutq birligi ma`lum vazifani anik ifolashi lozim. Masalan, «Matnni tinglang», yoki «o`qing» degan topshirikdan o`quvchi maqsadni anglab etmaydi. Odatda kitob, makola, xabar va boshqalarni yangilik olish, muxokama qilish, dam olish, dalillarni aniqlash, umumiy mazmunni tushunish, savollarga javob berish niyatida o`qish yoki eshitish mumkin. Bu xolat topshirik berishda Hisobga olinishi lozim. Funksionallikni Hisobga olish nutq birligining kaerda kanday qo`llash imkoniyatlarini tushunib olishni ta`minlaydi.

Til matriali yuqoridagi printsiptiallarni Hisobga olgan xolda takdim kilinishi va tushuntirilishi lozim.

YAngi materialni tanlash, takdim etish va tushunganlikni nazorat qilish darsning maqsadidan kelib chikadi. Materialni takdim etishning shakl va usullari materialni xusuiyati, ta`lim boskichi, o`quvchilarning bilim darajalariga karab turlicha bo`lishi mumkin. Birgina talab Har kanday xolatda Ham uzgarmay kolaveradi. Bu o`quvchilar tlmonidan materialning tugri idrok kilinishi va tushunilishidir. Tugri tushunish kup jixatdan takdimotning tugriligiga boglik. Bu urinda material takdimotining mikdorlanishiga aloxida e`tibor berish lozim. SHu bilan birga ixtiyoriy va ixtiyorsiz eslab kolish, eslab kolishning mustaxkamligi, avtomatizatsiya, ko`nikmalarni shakllantirish, malakalarni rivojlantirish, axborotning ketma - ketligi Ham materialni uzlashtirib olishni ta`minlovchi muxim omillardan ekanligini unutmash kerak.

Ushbu boskichda bilimlar ko`nikma darajasiga, ko`nikmalar esa malaka darajasiga etkazilishi lozim. Bunday maqsadga fakat takrorlash mashq, yo`li bilan erishiladi.

Fonetika, grammatika va leksikaga oid bilimlar fonetik, grammatik, leksik ko`nikmalar – ya`ni ongli ravishda bajariladigan ish Harakat darajasiga kutariladi, ko`nikmalar esa malakalarga – qisman avtomatizm darajasiga etkazilgan ko`nikmalarga – nutqiy malakalarga etkaziladi.

YAngi materialni takdimoti utilgan materialni mustaxkamlash va yangisini tushunilganlikni nazorat qilish bilan Hamoxang bo`lish lozim. Har kandy nazorat o`rgatuvchi ta`limiy nazorat darajasiga kutarilgandagina yaxshi samar beradi.

O`QUVCHI FAOLIYATI

O`quvchilarning darsdagi faoliyati akliy faoliyat Hisoblanadi. Bu faoliyat ma`lum Harakat va operatsiyalar egallashga karatiladi. Bu Harakat va operatsiyalar tinglash paytidagi ma`lum til materialini bilib olish, tanib olish va tushunish, konteksdagi so`zni ma`nosini aniqlash, leksik birikmalarni va sintaktik birikmalarni kovushtirish va boshqalar bo`lishi mumkin.

DARSNING TUZILISHI

Darsning tuzilishi, ya`ni uning bo`linadigan boskichlari va ularning izchilligi, o`qitish uslubiga, ta`lim boskichiga, darsning maqsadi va mazmuniga boglik. Odatda o`rta maktablardagi chet tili darsining tarkibiy qismlari yoki boskichlari kuyadagilardan iborat.

1. Tashkiliy qism.
2. Utilgan materialni esga solish.
3. YAngi material bilan ishlash.
4. YAngi materialni mustaxkamlash.
5. Uyga vazifa berish.

O`QUVCHILAR BILIM, KO`NIKMA VA MALAKALARINI NAZORAT QILISH VA BAHOLASH

Ta`lim jarayonini pedagogika va metodika jixatidan tugri tashkil qilishning muxim shartlaridan biri o`quvchilar faoliyatini nazorat qilish va bu faoliyat natijalarini baholashdan iboratdir.

Nazorat deganda “ishning narsaning axvoli, borishi, kishining yurish-turishini kuzatish, tekshirish, taftish qilishni” tushiniladi (J.Jalolov). Nazorat zahirida kamchiliklarni bartaraf qilish, xatoni tuzatish ishni yo`lga kuyish singari ezgu niyatlar yotadi. Tekshiruv, nazorat, kontrol atamalari sinonim sifatida foydalaniladi.

Nazorat muammolarning moxiyati, xal kilinishi va amalda tadbik etilishini birinchi navbatda nima uchun nazorat qilish-nazorat maqsadi, nimani nazorat qilish-nazorat mazmuni, ob`ekti, kandy nazorat qilish-nazorat usuliga oid masalalarni kandy tushunishiga va xal qilishga boglik.

O`quvchilar faoliyatini nazorat qilishdan ko`zlangan maqsad ta`lim maqsadlaridan kelib chikishi va ta`lim-tarbiyaning samaradorligini oshirish uchun xizmat kilgan xolda bilim, ko`nikma va malakalarni egallanish darajasini aniqlash, uzlashtirishdagi kiyinchiliklardan ogox qilish, o`quvchilarni bilim olishga intiltirish va olgan bilimlarini umumlashtirish uchun xizmat kilmogi kerak.

O`quvchilar faoliyatini nazorat qilishdan ko`zlangan maqsad ta`lim maqsadlaridan kelib chikishi va ular bilan uzviy boglik bo`lishi lozim.

CHet tili ta`limidan ko`zlangan amaliy, ta`limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarining kulga kiritilishi darajasini o`rganish nazoratdan ko`zlangan asosiy maqsad bilimni amaliyot taqazo qiladi.

Har kandy nazoratning ta`limiy Harakterga ega bo`lishi o`qish, o`rgatish jarayonining muvoffakiyatini ta`minlovchi asosiy omillardan biridir.

SHu bilan birga nazorat diagnostik Harakterga ega bo`lishi kerak. Bu o`qituvchi va o`quvchi faoliyatini ma`lum makomda tutish, ayrim uzgartirishlar kiritish, ta`lim shart-sharoitlarini Hisobga olish, o`qitishning komponentlariga va usullariga tuzatishlar kiritish imkonini beradi. Ta`lim natijasining yuto`q va kamchiliklarini aniqlashda asos bo`ladi.

Xatoning kelib chikish sabablarini aniqlash maqsadida utkazilgan tuzatish maqsadi kuzda tutiladi. O`quv faoliyati o`quvchi uchun murakkab, tushunarsiz, uning kuchiga mos bulmagan xolda xato kelib chikdi. Demak, xato kiyinchilik alomati, belgisi Hisoblanadi. Xatolarni tuzatish, kachon jarayonining dolzarb masalalaridan Hisoblanadi.

O`quvchilar bilim, ko`nikma va malakalarini nazorat qilish ularning shakllanganlik va usish darajasini aniqlashtirish uzlashtirish jarayonining sodir bo`lish xususiyatlarining, o`quvchilarni bilimlarini uzlashtirishlarida uchraydigan kiyinchiliklarini aniqlash, ta`lim usullarining samaradorligini aniqlash imkonini beradi.

Ta`lim jarayonida nazorat o`tkazish ta`limning maqsadi bo`lib kolmasdan, balki o`tkazish ,ulchatish uchun vosita bo`lishi lozim.

Nazorat ta'lim jarayonini rivojlantirish, kam samara beradigan usullarni samaradorlik bilan almashtirish, xatolarni tuzatish va bartaraf qilish, tilni amaliy bilishni tezlashtirish, chet til vositasida talablarni tarbiyalash imkonini beradi.

Nazorat quyidagi funktsiyalarni bajaradi:

- Nazorat - aniqlash.
- Nazorat - to'g'rilash.
- Nazorat - o'gohlantirish.
- Nazorat - intiltirish.
- Nazorat - umumlashtirish.

Nazoratning aniqlash funktsiyasiga sinf o'quvchilarning yangi material, bilim, ko'nikma va malakalarni uzlashtirishga kura kuchli, o'rtacha va kuchsiz o'quvchilarga ajratish, shu asosida ishlash uslublarini guruxga moslash vazifasi kiradi. Bu urinda ushbu sinf o'quvchilari faoliyatini doimiy, davomiy va uzok muddatli nazorat qilish natijalarning ishonchli bo'lishini ta'minlaydi.

Bunday kuzatishlar o'rgatuvchiga anik materialni uzlashtirish darajasining umumiy manzarasini aniqlash imkonini beradi.

O'gohlantiruvchi-nazorat o'qituvchiga kandy materialga uni uzlashtirishda aloxida e'tibor berish kerakligini, o'quvchilarni nazorat uchun tayyorlik darajalarini materiallarni bilish darajasini aniqlash imkonini beradi.

Intiltiruvchi-nazorat ishlarini o'tkazishga tayyorgarlik kurish bilan boglik va utilgan anik materialni uzlashtirib olganlikni aniqlash maqsadida utkaziladi. Bunday nazorat xususiy Harakterga ega.

Umumlashtiruvchi-nazorat ma'lum mavzu, chorak, yarim yillik, yillik materiallarni kamrab oladi va kompleks Harakterga ega bo'ladi. Nazorat quyidagi umumpedagogik talablarga javob berishi lozim.

- Har bir o'quvchining faoliyatini butun o'quv yil davomida doimiy nazorat qilib borish;

- Nazoratning kup kirrali bo'lishi (barcha til materiallari fonetik leksik, grammatik arfografik va nutq faoliyatining barcha turlariga oid ko'nikma va malakalarni nazorat qilish).

- Nazorat o'tkazishga differentsial yondashuv, ya'ni til materiali, o'quvchilarning kuchi, dars boskichi va boshqalarni Hisobga olishi.

- Nazoratning ob'ektivligi, nazorat mezonlarning mavjudligi va unga o'qituvchining amal qilishi o'qituvchining barcha o'quvchilarga bir xilda munosabatda bo'lishi o'qituvchining takdirlashi, o'quvchining uziga ishonchini kuchaytirishi, kiyinchiliklarni oldini olishni o'rgatish.

- Nazoratning tarbiyaviyligi.

Har kandy nazorat tarbiyaviy bulim talablarni bilim olishga intiltirish, axlokiy, xulk va yurish-turishga ijobiy ta'sir qilishi lozim.

CHet tili darsida nazorat ob'ekti bo'lib ko'nikma va malakalar xizmat qilishi lozim. Zamonaviy metodika talabiga muvofiq nazariy bilimlar tekshirilmaydi, balki gapirish, tinglab tushuntirish va yozuv ko'nikma va malakalari tekshirib boriladi. Ko'nikmalarni tekshirish paytida leksik grammatik va fonetik materialni nutq faoliyati turlarida qo'llanish darajasida nazorat qilinadi.

Malakalar tekshirilganda esa nutq faoliyati turlaridan muloqot vositasi sifatida foydalana olish me`yoriy ulchanadi (J.Jalolov).

Nutqiy malakalarni nazorat qilish shu turdagi faoliyatini nazorat qilish bilan belgilanadi. Masalan: Fikrni og`zaki bayon qilish gapirish va gaplashish malakalarining rivojlanish darajasi bilan, tinglab tushinish malakalarini nazorati nutqning mazmunini tushinish tulikligi va anikligi bilan o`qib tushunishni nazorat qilish matndan axborotni o`qib tushunish darajasi bilan belgilanadi.

Fikrni bayon qilishning sifat kursatgichi fikrning mavzu va xolatiga muvofiqligi mavzuning yoritilishi darajasi, gapiruvchining nutqiy ijodkorligi, foydalanilgan til materialining fonetik, grammatik, leksik mezonlarga muvofiq kelish darajasiga boglik.

Fikr bayonning mikdoriy kursatgichi aytilgan fikrlar soniga boglik.

Tinglab tushuntirishda sifat kursatgichlari:

audiomatini umumiy tulik, barcha ma`lumotlarni anik tushunish darajasi bilan belgilanadi.

Tinglab tushunish mikdori matn davomiyligi va tezligi bilan ulchanadi.

O`qishda sifat kursatgichlar;

1. O`qib tushunish kursatgichlari (umumiy, asosiy fikrlarni, tulik, tarjima orkali yoki tarjimasiz tushunish).

2. Matndagi til materialini xususiyatlari (tanish yoki qisman tanish materialini moslashtirilgan yoki asldagi matn) bilan boglik.

O`qishda mikdor kursatgichlari o`qish tezligi va matn xajmi bilan belgilanadi.

YUqoridagi talablar ta`limning turli boskichlarida bir-biridan farq qiladi.

Metodikada nazorat turlari masalasini xal qilish Ham muximdir.

Quyidagi nazorat turlari farqlanadi;

1. Joriy (kundalik) nazorat.

2. Mavzuli nazorat.

3. Oralik nazorat.

4. YAkuniy nazorat.

Joriy nazorat chet til ta`limida keng tarkagan bo`lib ta`lim samaradorligini ta`minlovchi eng muxim omil Hisoblanadi. Bu nazoratga kura o`quvchi Har darsda surab boriladi. Bu o`quvchi uz usullarining samaradorligini belgilash imkonini beradi.

Mavzuviy nazorat chet til ta`limida dolzarb bo`lib Har bir mavzu yakunida utkaziladi. Bu kalendar mavzuviy rejada kursatilgan bo`lib o`quvchi tomonidan anik mavzuning uzlashtirib olinish darajasini aniqlash imkonini beradi.

Oralik nazorat ma`lum mavzulardan bir nechta yoki yarim yillik yakunida utkaziladi. Natijada o`quvchilarning mavzu yoki mavzu tuplamlarini uzlashtirib olish darajalari aniklanadi.

YAkuniy nazorat o`quv yili tugagandan sung utkaziladi va o`quvchining yil bo`yicha olgan bilim, ko`nikma va malakalarining rivojlanish darajasi belgilanadi. YAkuniy nazorat mazmuniga nutq faoliyati turlariga oid malakalarning shakllanganlik darajasi (gapirish, tinglab tushunish va o`qish malakalari) nazorat

qilinadi va baholanadi, leksik va grammatik ko'nikmalarni nazorat qilish fikrni bayon qilish va o'qish jarayonida amalga oshirish.

O'quvchilar faoliyatini nazorat qilishning quyidagi shakllari mavjud.

- individual, yolgiz, yakka nazorat.
- frontal, yoppasiga nazorat.
- og'zaki nazorat.
- yozma nazorat.
- bir tilli nazorat.
- ikki tilli nazorat.

Fikrni og'zaki bayon qilishni nazorat qilish kupincha og'zaki shaklda utkaziladi, chunki bunday nazorat shakli nutq faoliyatining ushbu turini eng muxim xususiyatlarini yakkallashtirish imkonini beradi. Masalan: nutqiy javob (reaktsiya), nutqiy avtomatizimlar tuxtalish nutqning vaziyatga mosligini ifodalovchi belgilardan Hisoblanadi.

Tinglab tushunishni nazorat qilish ona tilida yoki urganilayotgan chet tilida og'zaki yoki yozma shaklda utkazilishi mumkin. Bunday nazorat tasdiklovchi (aniklovchi, belgilovchi) ta'limiy, intiltiruvchi (stimul) texnika vositasida yoki texnika vositasiz utkazilishi mumkin.

Nazorat usuli sifatida turli mashqlardan foydalaniladi. Bunday mashqlarni tanlab olish va tavsiflash ta'limning maqsadiga bog'lik.

Nazorat usullari nazorat ob'ektiga mos tushushi til materialini uzlashtirishni va nutqiy malakalarning rivojlanish xususiyatlarini Hisobga olishi lozim.

Nazorat dars jarayonida utkaziladi avval uzlashtirganni nazorat qilinadi sung yangi dars utiladi. Bu nazoratning ta'limiyyiligini ta'minlamaydi. Nazorat darsining barcha boskichlarida ishtirok etishi lozim.

Nazorat qilishning urni va ajratiladigan vaqt tekshirish turiga Hamda unga mos keladigan tekshirish usulining xususiyatlariga bog'lik. Dars jarayonidagi Har kungi nazorat eng avvalo yangi urganilayotgan so'zlar va so'z birikmalarining, grammatik xodisalar va nutq birliklarining dastlabki uzlashirilishini tekshirish uchun zarur. Kundalik nazorat nutq ko'nikmalarini tekshirishni Ham uz ichiga oladi. Darsda og'zaki nutqini ustirish va yozish jarayonida ko'nikmalarining shakllanganlik darajasi Ham tekshiriladi. Maxsus uyushtirilgan nazorat og'zaki yoki yozma, yakka yoki yoppasiga bo'lishi mumkin. Bunday nazorat odatda, biror urganib olingan paragrafni, paragraflar katorini yoki biror mavzuni yakunlash sifatida amalga oshiriladi.

Maktabda og'zaki nazoratga aloxida urin berish lozim. Lyokin yozma nazoratning Ham bir muncha afzalliklari mavjud:

1. YOzma shaklda nazorat qilinganda bir vaqtning uzida barcha o'quvchilarni tekshirish mumkin:

2. YOzma ishlarni og'zaki javoblarga nisbatan kurib chikish ancha kulay:

3. YOzma ishlardagi xatolarni tavsiflash va taxlil qilish kulaydir, chunki yozma ishda o'quvchilar Harakati uzining anik ifodasini topgan bo'ladi.

Lyokin yozma nazoratdan barcha ko'nikmalarni tekshirish uchun foydalanib bulmaydi. O'quvchilarning suxbat olib borish yoki mavzu yuzasidan fikr aytilish ko'nikmalarini yozma ravishda tekshirish mumkin emas.

SHuning uchun yozma tekshiruvdan yozuv ko`nikma va malakalarini nazorat qilish maqsadida, ilmiy-ommabop adabiyotni lugat yordamida tarjima qilish ko`nikmasini nazorat qilishda foydalanish tavsiya etiladi.

Nazoratning frontal shakli individual shaklga nisbatan kulaydir. Birinchi xolatda kuprok o`quvchilarni so`rashga ulguriladi. Bir o`quvchini doskaga chikarib, uzok so`rashga xech yo`l kuymaslik kerak.

Nazorat qilishning eng muximi uy vazifasini tekshirishdir. Odat bo`yicha, uy vazifasining yozma bajarilishi maqsadga muvofiqdir.

Nazorat baHolash uchun shart-sharoit yaratadi, zamin tayyorlaydi. Nazorat birlamchi, baHolash esa ikkilamchi jarayon bilan birgalikda amalga oshiriladi, uni joriy baHolash deyish mumkin.

CHet til ta`limida o`quvchilar faoliyatini baHolash ularning til materiallarini uzlashtirib olishlari va nutq faoliyatining asosiy turlarida (tinglab tushunish, gapirish, o`qish va yozish) malakalarning rivojlanish darajasini aniqlash bilan boglik.

BaHolashning umumpedagogik talablarga javob berishi uning samaradorligini oshiradi. Har bir o`quvchi faoliyatining doimiy kuzatuvda bo`lishi, baHolashga differentsial yondashuv, uning ob`ektivligi, kompleksligi, ta`limiyligi va tarbiyaviyligi chet tili predmeti uchun Ham dolzarb mezonlar Hisoblanadi.

CHet tili ta`limida keng tarkalgan va ta`limning muvoffakiyatini belgilovchi eng muxim baHolash turi bulmish joriy (kundalik) baHolash bilan bir katorda, mavzular yakunida tashkil qilinadigan mavzuviy baHolash, mavzular tuplamidan sung utkaziladigan oralik baHolash Hamda o`quvchilarning sinf bo`yicha bilim, ko`nikma va malakalarining rivojlanish darajasini aniqlash uchun xizmat qiladigan yakuniy baHolash turlari amalda yaxshi samara berishi kuzatilmokda.

BaHolashni samarlari tashkil kilinishini ta`minlovchi omillarning eng muximlaridan baHolash talab va mezonlarning o`quvchilarga tanish bo`lishidir. O`quvchilar Har bir chorak o`quv yili uchun utkaziladigan o`quv ishlari rejasidan vokif bo`lishlari, utiladigan mavzular, grammatik materiallar ruyxatini oldindan olishlari lozim. Bundan tashkari ular nutq faoliyatining Har bir turi uchun kuyiladigan talablarni Hamda ushbu talablarning bajarilishi darajasiga kura baHolanish mezonlarini yaxshi bilgan takdirda mustakil ishlash imkoniyatlaridan samarali foydalanadilar, muximi o`quvchilarga tilni o`rgatib kuyish mumkin emasligini, balki uni fakat o`rganish lozimligi Haqidagi fikrni singdirishdir.

BaHolash usuli birinchi navbatda nazorat maqsadida va ob`ekti bilan chambarchast boglikdir. CHet tili ta`limida o`quvchilarning til xodisalarini uzlashtirib olganli darajasini baHolash borasida bir kator ilgor usullar amalda muvoffakiyat bilan sinovdan utgan, biroq nutq faoliyatining turlariga oid malakalarning rivojlanish darajasini aniqlash borasidagi usullarini nazariy asoslash va amaliy ishlab chikish soxasidagi muammolar uz echimini kutmokda.

BaHolash usuli sifatida turli mashqlardan foydalaniladi va ularni darsning barcha boskichlarida bajarilgani maqsadga muvofiqdir. BaHolashning mavjud individual, frontal, og`zaki, yozma, bir tilli, ikki tilli shakllarini tanlash va qo`llash

ta'lim maqsadi, ob'ekti, boskichi, muallim tajribasi, bilimdonligi va maxorati bilan uzviy boglik.

Eng asosiy o'quvchilarni mustakil fikrlashga, ya'ni uz faoliyatlarini uzlari baHolay olish, baHolaganda Ham xolisona baHolay olishga o'rgatishdan iboratdir, chunki o'quvchining mustakil fikrlash malakasi uning u yoki bu vokelikka tugri baHo berishdan boshlanadi.

A D A B I Y O T L A R

1. Bim I.L. Metodika obucheniya inostranno'm yazo'kam kak nao'qa i teoriya shkol'nogo uchebnika. – M: Russkiy yazo'k, 1977.- 288 s.

2. Dem'yanenko M.YA., Lazerenko K.A., Kislaya S.V. Osnovo' obHey metonenko M.YA-Kiev: ViHa shkola, 1976, 282 s.

3. Jalolov J.J. CHet til o'qitish metodikasi. Toshkent 1996 yil

4. Djalalov Dj.Dj. Problemo' soderjaniya obucheniya inostrannomu yazo'ku. T.. Fan, 1987. 110 s

5. Zaripova R.A. CHet tillar o'qitish metodikasidan qo'llanma. – T: O'qituvchi, 1986, - 184 b.

6. Zimnyaya I.A. Psixologiya obucheniya inostranno'm yazo'kam v shkole – M. ProsveHenie 1991, - 222 s

7. Inostranno'e yazo'ka v shkole: Metodik jurnal.

8. Kurs obucheniya inostranno'm yazo'kam v sredney shkole /Pod red. TSetlin V.S. – M: Pedagogika, 1970. - 232 s.

9. Metodika obucheniya inostranno'm yazo'kam v sredney shkole: Uchebnik / Gez N.Ii., Lyaxovitskiy M.V., Mirol'yubov A.A, Folomkina S.K., SHatilov S. F. – M.: Vo'sshaya shkola, 1982, - 373 s.

10. Metodika prepodavaniya nemetskogo yazo'ka v pedagogicheskom vuze: Iz opo'ta raboto'/Domashnev A.I., Vazbutskaya K.G., Zo'kova N.N., SHatilov S.F. i dr. – M.: ProsveHenie, 1983. – 224 s.

11. Obuchenie inostrannomu yazo'ku kak spetsial'nosti: Uchebnoe posobie / Borodulina M. K., Karlin A.L, Lur'e A. S., Minina N. M – 2-e izd, ispr. – M.: Vo'sshaya shkola, 1982, - 255 s.

12. ObHaya metodika obucheniya inostranno'm yazo'kam v sredney shkole / Pod red. Mirol'yubova A.A., Raxmanova I.V., TSetlin V. S. – M. ProsveHenie, 1967 – 510 s.

13. ObHaya metodika prepodavaniya inostrannix yazikov v srednix spetsial'no'x uchebno'x zavedeniyax: Uchebnoe posobie – Pod red. Mirol'yubova A.A.i Paraxinoy A. V. – M.: Vo'sshaya shkola, 1978. 264 s.

14. Osnovno'e napravleniya v metodike prepodavaniya inostrannix yazikov v XI-X-XX vv./Pod red. Raxmanova I. V. (Avt. I.V.Raxmanov, N, I.Gez, I.Azimnyaya, S.K.Folomkina, A.YASHaykevich), -M. Pedagogika, 1972. – 320 s.

15. Passov E.I. Osnovo' kommunikativnoy metodiki obuchenie inoyazichnomu obHeniyu, - M. Russkiy yazo'k, 1989-276 s.

16. Passov E.I. Osnovo' metodiki obucheniya inostranno'm yazo'kam. M. Russkiy yazo'k. 1977-216 s.

17. CHet tillar bo'yicha o'rta maktab programmalari (1968 yildan hozirgacha qo'llaniladigan).
18. SHatilov S.F. metodika obucheniya nemetskomu yazo'ku v sredney shkole: Uchebnoe posobie – L. ProsveHenie, 1977-295 s.
19. O'rta maktabda chet tillar o'qitishning umumiy metodikasi / Mirol'yubov A.A., Raxmanov I.V., TSetlin V.S. taxriri ostida (ruscha 1964 yil nashridan tarjima. Tarjimonlar: A'loev Y., Aliev G.) – T.O'qituvchi 1974. –510 b.
20. Gerherd Neuner und Hans Hunfeld Methoden des fremdsprachlichen Deutschunterrichts. Berlin Muenchen. Langenscheidt. 1997.
21. Barbara Dahlhams Fertigkeit Hoeren . Berlin Muenchen. Langenscheidt. 1998.
22. Gabriele Neuf-Muenkel und Regine Roland. Fertigkeit Sprechen. Berlin Muenchen. Langenscheidt. 1999.
23. Gerard Westhoff. Fertigkeit Lesen. Berlin Muenchen. Langenscheidt. 2001.
24. Bernd Kast Fertigkeit Schreiben.. Berlin Muenchen. Langenscheidt. 2000.
25. Helga Dieling, Ursula Hirschfeld. Phonetik lehren und lernen. Berlin Muenchen. Langenscheidt. 2000.
26. Hermann Funk und Michael Koenig. Grammatik lehren und lernen. Berlin Muenchen. Langenscheidt. 1997.
27. Rainer Bohn Probleme der Wortschatzarbeit. Berlin Muenchen. Langenscheidt. 2000.
28. Hansen Zuber Zwischen der Kulturen. Berlin Muenchen. Langenscheidt. 1996.
29. Peter Bimmel, Bernd Kast und Gerd Neuner Arbert mit Lehrwerkktionen. Berlin Muenchen. Langenscheidt. 1998.
